Kelgusida yangi turdagi ekologik xavfsiz bog‘lovchi moddalar va innovatsion ishlov berish usullarini qo‘llash tikuv sanoati uchun katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Shu sababli, tadqiqotning davom ettirilishi va yangi texnologiyalarning joriy etilishi tikuvchilik mahsulotlarining sifatini yanada yaxshilashga imkon beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Темирова, Г. И. (2020). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СПОСОБОВ НАНЕСЕНИЯ И УКРЕПЛЕНИЯ ДЕКОРАТИВНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ ИЗ НАТУРАЛЬНОГО МЕХА. *International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences*, *1*(2), 52-58.

2.М.Н.Азимова. Роль плёнкаобразователей в формировании качества натуральных кож // Международная научная конференция, посвященная 135-летию со дня рождения профессора В.Е.Зотикова. Сборник научных трудов Часть 1 Москва,2022.С.25-30

3.Ташпулатов С.Ш., Азимова М.Н., Субхонова И. Исследование адгезионных свойств меховых пакетов с использованием коллагенсодержащих материалов // Scientific progress, 2022. № 3(2). - с.157-168.

4.Разработка способа изготовления меховых изделий на основе ресурсосбережения // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. Ташпулатов С.Ш. [и др.]. 2021. 11(92). URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/item/12555 (дата обращения: 14.09.2023).

5.Азимова, М. Н., Темирова, Г. И., & Ташпулатов, С. Ш. (2023). ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДОВ ПРОЕКТИРОВАНИЯ И ТЕХНОЛОГИИ ИЗГОТОВЛЕНИЯ МЕХОВЫХ ИЗДЕЛИЙ НА ОСНОВЕ РЕСУРСОЭФФЕКТИВНОСТИ. *Universum: технические науки*, (9-3 (114)), 22-26.

6.AZIMOVA M., ERGASHEVA M. COMPOSITION AND MODERN STYLE //EURASIAN JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY. – 2019. – Т. 1. – №. 2.

7.Rajabova G. et al. Designing rational, multi-range flexible technological flows in the sewing industry //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2022. – Т. 2467. – №. 1.

8.Гайбуллаева, Н. (2024). СПЕЦИАЛЬНАЯ ОДЕЖДА ДЛЯ РАБОТНИКОВ АГРОСАНОАТА: ОБЕСПЕЧЕНИЕ БЕЗОПАСНОСТИ И КОМФОРТА. *PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH*, *1*(6), 10-12.

8. Temirova, G. I., Tashpulatov, S. S., & Cherunova, I. V. (2018). PRODUCTION TECHNOLOGY FROM NATURAL POWER ON THE FULL-TERMOLOGICAL TECHNOLOGY. In *The latest research in modern science: experience, traditions and innovations* (pp. 44-48).

9. Ubaydova, V., Azimova, M., & Khudoyberdieva, S. (2024, January). Creation of a mathematical model of computer-aided design of patterns and ornaments for gold embroidery. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2969, No. 1). AIP Publishing.

Azimova M.(2025). RWESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA AYOLLAR UCHUN MO;YNALI KIYIM LOYIHALASH VA OVQAT TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI. *Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal*, 2(2)128-134

AGROTURIZMNI JORIY QILISHDA FERMER XO‘JALIKLARINING ICHKI VA TASHQI SALOHIYATLARI

10.70728/tech.v2.i03.008

Ergashboyev Minghojiddin Jasurbek o‘g‘li

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi

https://orcid.org/0009-0001-1268-4353

ergashboyevminghojiddin@gmail.com

Eshmuradov Ulug‘bek Tashmuratovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi mudiri

https://orcid.org/0009-0005-5325-9176

ulugbek1983.05@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston fermer xo‘jaliklarida agroturizmni joriy etishning ichki va tashqi salohiyatlari batafsil tahlil qilinadi. Agroturizm qishloq joylarining iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shishi, fermerlar uchun qo‘shimcha daromad manbai yaratishi va milliy turizm sanoatini diversifikatsiya qilishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Tadqiqot davomida mavjud statistik ma’lumotlar, diagrammalar va jadvallar yordamida agroturizmning O‘zbekistondagi imkoniyatlari va istiqbollari batafsil ko‘rsatib beriladi.

Tayanch so’zlar : Fermer xo‘jaliklari, agroturizm, agroklasterlar, iqtisodiy samaradorlik, xalqaro tajriba.

INTERNAL AND EXTERNAL COMPETENCES OF FARM HOLDINGS IN IMPLEMENTING AGROTURISM

Abstract. This article provides a detailed analysis of the internal and external potential of agritourism implementation in Uzbek farms. Agrotourism can make a significant contribution to the economic development of rural areas, create an additional source of income for farmers, and play an important role in diversifying the national tourism industry. The study presents in detail the opportunities and prospects of agritourism in Uzbekistan using available statistical data, diagrams and tables.

Keywords: Farms, agritourism, agroclusters, economic efficiency, international experience.

ВНУТРЕННИЕ И ВНЕШНИЕ КОМПЕТЕНЦИИ ФЕРМЕРСКИХ ХОЗЯЙСТВ В РЕАЛИЗАЦИИ АГРОТУРИЗМА

Аннотация. В статье представлен детальный анализ внутреннего и внешнего потенциала реализации агротуризма на узбекских фермерских хозяйствах. Агротуризм может внести значительный вклад в экономическое развитие сельских регионов, создать дополнительный источник дохода для фермеров и сыграть важную роль в диверсификации национальной туристической индустрии. В исследовании подробно изложены возможности и перспективы агротуризма в Узбекистане с использованием доступных статистических данных, диаграмм и таблиц.

Ключевые слова: фермерские хозяйства, агротуризм, агрокластеры, экономическая эффективность, международный опыт.

KIRISH (INTRODUCTION)

O‘zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning samarali yo‘llarini aniqlash va fermer xo‘jaliklari uchun uning iqtisodiy ahamiyatini baholashdir maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Mazkur maqolani yoritish davomida quyidagi savollarga javob beriladi:

- Agroturizm O‘zbekiston fermer xo‘jaliklari uchun qanchalik foydali?

- Uning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillar qanday?

- Xorijiy tajribani qanday qo‘llash mumkin?

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi salohiyati yuqori bo‘lgan mamlakatlardan biri bo‘lib, aholining katta qismi qishloq joylarda istiqomat qiladi. Statistika agentligining xabar berishicha, O‘zbekistonning 49% doimiy aholisi, ya’ni 18 407 400 kishi (2025-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra) qishloq joylarda istiqomat qilmoqda.[2] Tabiiyki, ular asosan ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish sohalari bilan emas, balki ko‘proq qishloq xo‘jaligida mahsulotlar yetishtirish va fermer xo‘jaliklarida faoliyat bilan shug‘ullanadi. Ammo, hech kimga sir emaski, qishloqdagi bir qator ishlar mavsumiy hisoblanadi va mavsum tugagach bir qancha aholi ishsiz qoladi. So‘nggi yillarda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar natijasida agroturizm yangi yo‘nalish sifatida e’tibor qozonmoqda, bu yo‘nalishda Prezidentimiz tashabbuslari bilan 2019-yilda qabul qilingan "2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi"ning o‘rni beqiyosdir.[3] Agroturizm qishloq xo‘jaligi va turizmni birlashtirgan holda, qishloq hududlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Lekin, bu soha biz uchun yangi yo‘nalish bo‘lganligi bois, biz uni amaliyotga joriy etishdan oldin mavjud imkoniyatlarni chuqur o‘rganib, tahlil qilishimiz lozim. Ushbu maqolada O‘zbekiston fermer xo‘jaliklarida agroturizmni joriy etishning ichki va tashqi salohiyatlari, mavjud imkoniyatlar va istiqbollar tahlil qilinadi.

[2]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari. https://stat.uz/uz/?preview=1&

[3] Ergashboyev, M. J., Eshmuradov, U. T. (2024). O‘zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-uslubiy asoslari: International sciences, education and new learning technologies, 1(11), 19–26. https://doi.org/10.5281/zenodo.14518213

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Turizm, ayniqsa agroturizmni rivojlantirish va uni mamlakat hududida joriy qilish bo‘yicha xorijiy davlatlar olimlaridan Pham Truong Hoang, Nunkoo R., Ramkissoon H., Long, P.E.[4], MDH davlatlari olimlaridan A.Yu.Aleksandrova, I.I.Pirojnik, A.I.Altuxova, A.B.Zdorov[5] ilmiy ishlar qilishgan. Hozirgi kunda Respublikamizda ham bir qator iqtisodchi olimlar ushbu yo‘nalishda faoliyat yuritmoqdalar. Ular jumlasiga, Khalimova N.J, Djafarova N.A., Hamroev H.R., A.Yusupov, D.Barotova[6]larni keltirishimiz mumkin. Xorij bilan hamkorlikda esa Soliyev A.S., Usmonov M.R. Francesco Pagliacci, Edi Defrancesco[7] kabi olimlarning ilmiy ishlarini alohida e’tirof etish lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar tahlili, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va qiyosiy tahlil usullaridan qo‘llanildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi va Qishloq xo‘jaligi vazirligining rasmiy ma’lumotlari asosida agroturizmning rivojlanish holati va imkoniyatlari o‘rganildi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlarning agroturizm sohasidagi tajribalari tahlil qilinib, O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

O‘zbekistonda agroturizmni rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, fermer xo‘jaliklari uchun agroturizm yangi daromad manbai bo‘lishi mumkin. Biroq, infratuzilma va xizmatlar sifati yetarlicha rivojlanmagan. Tadqiqot davomida xalqaro tajriba asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:
1. Fermer xo‘jaliklarida mehmon uylari va ekologik turizm obyektlarini yaratish.
2. Hukumat tomonidan soliq imtiyozlari va subsidiyalar ajratish.

3. Agroturistik xizmatlarni mahalliy va xorijiy bozorlarga targ‘ib qilish.

---

[4]Pham Truong Hoang. Cooperation between tourism business and local community in developing responsible tourism at tam coc - Bich dong tourist area, New tourism: local to global initiatives, International conference proceedings. 2018. pp. – 36-51.; Nunkoo, R., & Ramkissoon, H. (2011a), Developing a community support model for tourism, Annals of Tourism Research, 38(3), 964-988; Long, P.E. (1997), Researching Tourism Partnership Organizations: From Practice to Theory to Methodology, In Quality Management in Urban Tourism, P.E. Murphy, ed., pp. 235-251.

[5] Александрова А.Ю. Международный туризм: Учебник. - М., КноРус, 2016. -458с; I.I.Pirojnik. Urban tourism research developing an Agenda, University of Technology Minsk, Belarus, Annals of Tourism, Research, Vol. 35, No. 4, pp. 1032-1052; A.I.Altuxova. Management of service operations: text, cases, and readings,Business & Economics - 734 pages; A.B.Zdorov An Applied Service Marketing Theory, European Journal of Marketing, Vol. 16 Issue: 7, pp.30-41.

[6] Khalimova N.J, Djafarova N.A. Specificity of professional development in tourism industry *22-23 b.;* Hamroev H.R. Mamlakatlarning turistik imkoniyatlarini aniqlash ko’rsatkichlari tahlili 24-28 b.; Barotova D. O‘zbekistonda “Turistik qishloq”, “Turistik mahalla”, “Turistik ovul”larni rivojlantirish mexanizmlari. 124-126 b. “O‘zbekistonni top o‘n turistik hududlar qatoriga kiritish istiqbollari: Barqaror rivojlanish imkoniyatlari” mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami 2020 yil 11-12 dekabr.

[7] Солиев А.С., Усмонов М.Р. Туризм географияси (Самарқанд вилояти мисолида) Монография. - Самарқанд: СамДУ, 2005. - 131 б.

O‘zbekiston fermer xo‘jaliklarining agroturizmni joriy etishdagi potensial imkoniyatlari ichki va tashqi salohiyatlarga bo‘linadi. Quyida ushbu salohiyatlar statistik va raqamli ma’lumotlar bilan batafsil yoritiladi.

Agroturizmni rivojlantirishning ichki salohiyatlari quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

➢ Fermer xo‘jaliklarining ko‘p tarmoqliligi:

Fermer xo‘jaliklari soni: Respublikamiz hududida 2023 yilda 88,8 ming ta fermer xo‘jaliklarining 2 553 ming ga yer maydoni, 9,7 ming ta qishloq xo‘jaligi tashkilotlarining 622,9 ming ga maydoni, 5 milliondan ortiq aholi tomorqalari hamda 753 ming ta dehqon xo‘jaliklarining 640,9 ming ga yer maydonlarida 202,7 trillion so‘mlik dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarilib, o‘tgan yilga nisbatan 4,2 foizga o‘sish kuzatilgan 2023-yilda 47452 ta fermer donli ekinlar, 29192 ta fermer sabzavot, 20271 ta fermer kartoshka, 14054 ta fermer poliz, 25794 ta fermer mevalar va 11042 ta fermer uzum yetishtirgan.[8]

Faoliyat yo‘nalishlari: Fermer xo‘jaliklari 10 dan ortiq yo‘nalishda, jumladan, chorvachilik, bog‘dorchilik, baliqchilik, asalarichilik kabi sohalarda faoliyat olib boradi. “…yurtimizda 9 million tonna don, 3 million tonnadan ortiq paxta, 16 million tonnadan ziyod sabzavot va poliz, 5 million tonna meva va uzum, 4 million tonna kartoshka, 15 million tonnadan ko‘p go‘sht va sut, 30 ming tonna pilla yetishtirilgan..”[9].

➢ Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi:

Shu bilan birga xo‘jalik yuritishning yangi shakli bo‘lgan agroklasterlarni tashkil etilishi qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish va sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, buning samarasi sifatida qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan yilga oshib bormoqda (1-jadval).

1-jadval

O’zbekistonda 2019-2023 yillarda asosiy qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi[10]

Mahsulot turi	O’lchov birligi	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2023 yilda 2019 yilga nisbatan o‘zgarishi	
							Mut-loq	Nisbiy, %

[8] https://www.uzdon.uz/uz/news/info/company/704

[9] Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xodimlariga bayram tabrigi. https://president.uz/uz/lists/view/7755

[10] www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture statistik ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Don	ming t.	7437,8	7636,0	7634,6	7990,5	8453,4	1015,6	113,6
Paxta xom ashyosi	ming t.	2691,7	3064,0	3372,9	3510,0	3800,0	1108,3	141,2
Kartoshka	ming t.	3089,7	3143,8	3285,6	3443,2	3574,1	484,4	115,7
Sabzavot	ming t.	10215,1	10020,2	10850,2	11162,9	11553,7	1338,6	113,9
Meva va rezavorlar	ming t.	2752,7	2812,6	2852,6	2999,3	3121,7	369,0	113,4
Uzum	ming t.	1 603,3	1 606,9	1 695,3	1760,6	1731,7	128,4	108,0
Go‘sht (tirik vazn)	ming t.	2473,6	2519,6	2635,1	2725,9	2833,2	359,6	114,6
Sut	ming t.	10714,3	10976,9	11274,2	11627,2	11968,7	1254,4	111,7
Tuxum	mln.dona	7 771,2	7 781,2	7 788,4	8129,2	8487,4	716,2	109,2
Pilla	tonna	21 374,1	20 941,9	22 769,9	24300	25886	4511,9	121,1

Tahlil ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2023-yilda 2019-yilga nisbatan barcha turdagi asosiy qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish oshganini ko‘ramiz, ayniqsa, paxta (41,2%) va pilla (21,1%) yetishtirish sezilarli darajada oshgan.

➢ Agroklasterlar va kooperatsiyalar:

Bugungi kunda agroklasterlar qishloq xo‘jaligining barcha yo‘nalishlarida jumladan, to‘qimachilik, kasanachilik, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, pillachilik, resurs tejamkor texnologiyalarni ishlab chiqarish va joriy etish kabi yo‘nalishlarda jonbozlik ko‘rsatmoqda. Ayni paytda yurtimizda 660 dan ortiq agroklasterlar faoliyat yuritib, paxta va g‘allaning 100 foizi, meva-sabzavot mahsulotining 60 foizidan ortig‘i aynan klaster usulida yetishtirilmoqda”[11].

“Agrar-tadbirkorlik sohasida joriy yilda 55 ta agrosanoat klasterlari faoliyati tashkil etilib, jami klasterlar soni 669 taga yetkazildi. Bugungi kunda paxta-to‘qimachilik

[11] O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining yillik hisoboti erishilgan natijalar, tahlillar va tendensiyalar. 2023-yil .–B.22.

klasterlari 153 ta, g‘allachilik klasterlari 126 ta, meva-sabzavotchilik klasterlari 136 ta, sholichilik 41 ta, dorivorchilik 8 ta, chorvachilik 34 ta, qorako‘lchilik 46 ta, parrandachilik 11 ta, baliqchilik 38 ta va pillachilik 76 tani tashkil etmoqda. Klasterlar tomonidan sohaga 510 mln. dollar investisiya jalb qilinib, paxtani qayta ishlash 65 foizga (2022-yilga nisbatan 832 ming tonna yoki 123 foizga oshgan), g‘allani qayta ishlash 38 foizga (105 tonna yoki 102 foizga), meva-sabzavotni qayta ishlash 92 foizga (110 ming tonna yoki 111 foizga) yetkazilgan. Shuningdek, suv tejovchi texnologiyalar – 34,7 ming gektarga o‘rnatilib, jami 161,6 ming gektar yer maydonlarini lazerli – 45 ming gektar tekislanib, jami 237 ming gektarga yetkazilgan.

Qishloq xo‘jaligi texnikalari 1,1 mingdan ortiq xarid qilinib, texnika bilan ta’minlanish darajasi 92 foizni tashkil etgan. Klasterlar tomonidan sohaga ilg‘or ilm-fan yutuqlari, innovasion texnologiyalar va zamonaviy agrotexnik tadbirlarning joriy qilinishi natijasida o‘rtacha hosildorlik 2016-yildagi 26,2 sentnerdan 2023-yilda 36,0 sentnerga yoki 37 foizga oshdi. Joriy yilda Yangi O’zbekiston tarixida ilk marotaba 3,7 million tonna paxta xom-ashyosi yetishtirildi” [12].

Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida shakllangan agroklasterlarning huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy munosabatlarning takomillashtirilib borilishi keyingi yillarda qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining tahlili, o‘sish sur’atlari yildan-yilga ortib borayotganini ko‘rsatmoqda (2-jadval).

2-jadval

Respublikamizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning 2019-2023 yillarda o‘sish sur’atlari[13]

(o‘tgan yilga nisbatan foizda)

Ko‘rsatkichlar	**Yillar**				
	2019	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**
Jami - barcha toifadagi xo‘jaliklar	103,3	102,7	103,9	103,6	104,1
shu jumladan: fermer xo‘jaliklari	110,5	105,6	106,2	105,0	107,8
dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	99,2	100,5	101,5	101,1	101,0
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	140,4	121,5	126,2	126,7	126,4
Dehqonchilik mahsulotlari –	104,8	103,2	104,3	103,8	104,9

[12] O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining yillik hisoboti erishilgan natijalar, tahlillar va tendensiyalar. 2023-yil. https://www.agro.uz/charts

[13] https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2 ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

barcha toifadagi xo‘jaliklar					
shu jumladan: fermer xo‘jaliklari	110,2	106,2	105,5	103,6	107,8
dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	97,6	96,4	99,5	100,6	98,4
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	159,6	147,5	129,1	123,9	127,9
Chorvachilik mahsulotlari - barcha toifadagi xo‘jaliklar	101,6	102,1	103,5	103,3	103,3
shu jumladan: fermer xo‘jaliklari	113,8	99,4	113,5	118,3	107,2
dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	100,2	102,7	102,4	101,3	102,3
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	123,5	91,5	121,0	132,1	124,0

Yuqorida keltirilgan ichki imkoniyatlardan farqli ravishda agroturizmni rivojlantirishning tashqi salohiyatlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- Turizm sohasidagi islohotlar:

Agroturizmning ahamiyati: Agroturizm qishloq joylarining rivojlanishiga, kichik fermer xo‘jaliklariga qo‘shimcha daromad manbai yaratishga, qishloq infratuzilmasini yaxshilashga va yangi ish o‘rinlari yaratishga xizmat qiladi.[14]

Mavjud agroturizm obyektlari tajribasi:

“Mehrigiyo” agroturizm klasteri: Farg‘ona viloyatidagi ushbu klaster 1992-yildan buyon faoliyat yuritib, lavanda plantatsiyalari, issiqxonalar va tabiiy shifobaxsh mahsulotlari bilan mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb etmoqda. Mavsum davrida kuniga o‘rtacha 1 000 nafar sayyoh tashrif buyuradi.[15]

- Xalqaro hamkorlik va xorijiy investitsiyalar:

Xorijiy investitsiyalar hajmi: 2022-yilda O‘zbekistonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 26 million AQSh dollarini tashkil etdi.

Agroklasterlar rivoji: Buxoro viloyatida tashkil etilgan "Buxoro Varnet" issiqxona klasteriga 120 million dollardan ortiq xorijiy sarmoya kiritildi. Ushbu klaster 113 gektar maydonda joylashgan bo‘lib, yiliga 33,8 ming tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega va 2 mingga yaqin ish o‘rni yaratish imkonini beradi.[16]

- Xorijiy sayyohlar oqimi va turizm infratuzilmasi:

[14] Ergashboyev, M. J. o'g'li ., & Eshmuradov, U. T. (2025). Agroturizm – qishloq xo'jaligida yangi daromadlar kaliti. international sciences, education and new learning technologies, 1(12), 36–41. https://doi.org/10.5281/zenodo

[15] https://www.researchgate.net/publication/378577233_Toshkent_viloyatida_agroturizm_obyektlarini_rivojlantirish_va_kadrlar_salohiyatini_oshirish_istiqbollari

[16] https://journals.proindex.uz/index.php/JRITIL/article/download/327/276/557

Sayyohlar sonining o‘sishi: 2017-yilda O‘zbekistonga 2,7 million nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 5,2 millionga yetdi, ya’ni 1,9 barobarga o‘sdi. 2023-yilda esa xorijiy sayyohlar soni 6,6 million nafarga yetib, 2022-yilga nisbatan 26,9% ga oshdi.[17]

Turizm xizmatlari eksporti: 2017-yilda turizm xizmatlari eksporti 546,9 million AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2018-yilda bu ko‘rsatkich 1,041 milliard AQSh dollariga yetdi.

Mehmonxonalar soni: 2017-yilda O‘zbekistonda 767 ta joylashtirish vositasi mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda ularning soni 5 mingtagacha oshdi.

➢ Davlat siyosati va islohotlar:

Viza rejimini soddalashtirish: 2018-yildan boshlab O‘zbekiston 93 ta davlat fuqarolari uchun vizasiz kirish tartibini joriy etdi, bu esa xorijiy sayyohlar oqimini oshirishga xizmat qildi.

Turizmni rivojlantirish konsepsiyasi: 2019-yilda qabul qilingan "2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi" turizm infratuzilmasini rivojlantirish, transport logistikasi va xizmatlar sifatini oshirish kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.[18]

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi sohasida muhim o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. So‘nggi yillarda fermer xo‘jaliklari ko‘p tarmoqli modelga o‘tib, an’anaviy dehqonchilik bilan birga agroturizmni rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda. Buning natijasida qishloq joylarda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari kengaymoqda. Ushbu maqolada O‘zbekiston fermer xo‘jaliklarining agroturizmni rivojlantirishdagi salohiyati ichki va tashqi omillar asosida tahlil qilinadi. Fermer xo‘jaliklari agroturizmni rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlarga ega. Bugungi kunda mamlakatda 160 mingdan ortiq fermer xo‘jaligi faoliyat yuritmoqda, ulardan 75 mingdan ortig‘i ko‘p tarmoqli bo‘lib, bu so‘nggi ikki yilda 45% ga o‘sgan.[19] Bu esa shuni anglatadiki, fermerlar turizm sohasida ham o‘z bizneslarini kengaytirish uchun yetarli resurslarga ega. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi yil sayin ortib bormoqda. Agroturizm tajribalarida mahalliy taomlar tayyorlash, an’anaviy dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan tanishtirish kabi xizmatlar aynan ushbu resurslarga asoslanadi. Fermer xo‘jaliklarida chorvachilikning keng rivojlanayotgani ham muhim omillardan biri. Bu esa etno-turizm va qishloq hayotini aks ettiruvchi tadbirlarga bo‘lgan qiziqishni oshirish imkonini beradi. Xorijlik sayyohlar uchun o‘zbekona chorvachilik madaniyatini o‘z ko‘zi bilan ko‘rish va tajriba qilish katta qiziqish uyg‘otishi mumkin.

Shuningdek, agroklasterlarning kengayishi ham agroturizmga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Klaster tizimi fermerlar uchun agroturistik xizmatlarni joriy qilish va

[17] https://kun.uz/news/2023/01/31/sayyohlar-soni-oshmoqda-bu-ozbekiston-uchun-qanchalik-foyda
[18] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-5611-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-4143188
[19] https://innovativepublication.uz/index.php/jelsi/article/view/2112

infratuzilmani rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, klasterlar negizida joylashtirilgan fermer xo‘jaliklari agroturizmni yo‘lga qo‘yishda katta ustunlikka ega bo‘lishi mumkin. O‘zbekistonning tashqi salohiyati ham agroturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. So‘nggi yillarda xorijiy investitsiyalar va xalqaro hamkorlik sezilarli darajada oshdi. Xorijiy sayyohlar oqimi yil sayin ortib bormoqda. 2017-yilda O‘zbekistonga 2,7 million sayyoh tashrif buyurgan bo‘lsa, 2023-yilda bu raqam 6,6 million nafarga yetdi. Sayyohlik xizmatlari eksporti ham sezilarli darajada o‘sib, 2017-yilda 546,9 million AQSh dollaridan 2018-yilda 1 milliard dollardan oshgan. Bu esa xorijiy sayyohlar uchun yangi turistik yo‘nalishlar yaratish zarurligini ko‘rsatadi.[20] Agroturizm yo‘nalishlari aynan shunday yangi xizmatlar qatoriga kiradi va O‘zbekiston uchun qo‘shimcha daromad manbai bo‘lishi mumkin. Lekin agroturizm uchun maxsus dizaynlashgan mehmonxona va eko-loyihalar hali ham yetarlicha emas. Agar fermer xo‘jaliklari mehmon uylari yoki ekologik dam olish maskanlarini yaratishsa, bu turizm sektorini yanada rivojlantirishga hissa qo‘shishi mumkin.

Davlat siyosati ham agroturizmning rivojlanishiga yordam bermoqda. 2019-yilda qabul qilingan “2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi” esa turizm sohasida amalga oshiriladigan islohotlarni yanada tezlashtirdi. Shuningdek, agroturizm loyihalarini qo‘llab-quvvatlash ham davlat dasturlarida aks etmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

O‘zbekistonning agroturizm bo‘yicha salohiyati juda yuqori bo‘lib, ichki va tashqi omillar bu jarayonga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ichki salohiyatni kuchaytirish uchun fermer xo‘jaliklarini modernizatsiya qilish, agroklasterlar imkoniyatlaridan samarali foydalanish va qishloq turizmini rivojlantirish lozim. Tashqi salohiyatdan foydalanish uchun esa xorijiy investorlar bilan hamkorlikni kengaytirish, turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish va davlat tomonidan imtiyozlar yaratish zarur.

Agroturizmning rivojlanishi nafaqat qishloq hududlarining iqtisodiy o‘sishini ta’minlaydi, balki mahalliy fermerlar uchun yangi daromad manbalarini yaratishga xizmat qiladi. O‘zbekistonning boy tabiati, ekotizimlari va qishloq xo‘jaligi madaniyati agroturizm orqali xorijiy sayyohlar uchun jozibador yo‘nalishga aylanishi mumkin. Shu bois, mazkur salohiyatdan to‘laqonli foydalanish kelajakda mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli daromad keltirish bilan birga, qishloq joylarida yangi ish o‘rinlari yaratish va yashash sharoitlarini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI (REFERENCES)

[20] https://kun.uz/news/2019/01/30/ozbekistonda-turizm-sohasida-amalga-oshirilgan-ishlar-sarhisobi-va-yaqin-kelajak-uchun-prognozlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-5611-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-4143188

2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xodimlariga bayram tabrigi. https://president.uz/uz/lists/view/7755

3. Александрова А.Ю. Международный туризм: Учебник. - М., КноРус, 2016. -458 с.

4. Altuxova A.I. Management of service operations: text, cases, and readings, Business & Economics - 734 p.

5. Barotova D. O‘zbekistonda “Turistik qishloq”, “Turistik mahalla”, “Turistik ovul”larni rivojlantirish mexanizmlari. “O‘zbekistonni top o‘n turistik hududlar qatoriga kiritish istiqbollari: Barqaror rivojlanish imkoniyatlari” mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami 2020 yil 11-12 dekabr. 124-126 b.

6. Ergashboyev, M. J. o‘g‘li., & Eshmuradov, U. T. (2025). Agroturizm – qishloq xo‘jaligida yangi daromadlar kaliti. international sciences, education and new learning technologies, 1(12), 36–41. https://doi.org/10.5281/zenodo

7. Ergashboyev, M. J., Eshmuradov, U. T. (2024). O‘zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-uslubiy asoslari: International sciences, education and new learning technologies, 1(11), 19–26. https://doi.org/10.5281/zenodo.14518213

8. Pham Truong Hoang. Cooperation between tourism business and local community in developing responsible tourism at tam coc - Bich dong tourist area, New tourism: local to global initiatives, International conference proceedings. 2018. pp. – 36-51.

9. Nunkoo, R., & Ramkissoon, H. (2011a), Developing a community support model for tourism, Annals of Tourism Research, 38(3), 964-988.

10. Long, P.E. (1997), Researching Tourism Partnership Organizations: From Practice to Theory to Methodology, In Quality Management in Urban Tourism, P.E. Murphy, ed., pp. 235-251.

11. Pirojnik I.I.. Urban tourism research developing an Agenda, University of Technology Minsk, Belarus, Annals of Tourism, Research, Vol. 35, No. 4, pp. 1032-1052.

12. Zdorov A.B. An Applied Service Marketing Theory, European Journal of Marketing, Vol. 16 Issue: 7, pp. 30-41.

13. Khalimova N.J, Djafarova N.A. Specificity of professional development in tourism industry. “O‘zbekistonni top o‘n turistik hududlar qatoriga kiritish istiqbollari:

Barqaror rivojlanish imkoniyatlari” mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami 2020 yil 11-12 dekabr. 22-23 b.

14. Hamroev H.R. Mamlakatlarning turistik imkoniyatlarini aniqlash ko’rsatkichlari tahlili. “O‘zbekistonni top o‘n turistik hududlar qatoriga kiritish istiqbollari: Barqaror rivojlanish imkoniyatlari” mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami 2020 yil 11-12 dekabr. 24-28 b.

15. Солиев А.С., Усмонов М.Р. Туризм географияси (Самарқанд вилояти мисолида) Монография. - Самарқанд: СамДУ, 2005. - 131 б.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari. https://stat.uz/uz/?preview=1&

17. https://www.uzdon.uz/uz/news/info/company/704

18. www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture statistik ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

19. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining yillik hisoboti erishilgan natijalar, tahlillar va tendensiyalar. 2023-yil .– B.22.

20. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining yillik hisoboti erishilgan natijalar, tahlillar va tendensiyalar. 2023-yil. https://www.agro.uz/charts

21. https://www.researchgate.net/publication/378577233_Toshkent_viloyatida_agroturizm_obyektlarini_rivojlantirish_va_kadrlar_salohiyatini_oshirish_istiqbollari

22. https://journals.proindex.uz/index.php/JRITIL/article/download/327/276/557

23. https://kun.uz/news/2023/01/31/sayyohlar-soni-oshmoqda-bu-ozbekiston-uchun-qanchalik-foyda

24. https://innovativepublication.uz/index.php/jelsi/article/view/2112

25. https://kun.uz/news/2019/01/30/ozbekistonda-turizm-sohasida-amalga-oshirilgan-ishlar-sarhisobi-va-yaqin-kelajak-uchun-prognozlar

THE ROLE AND IMPORTANCE OF TEACHING METHODS IN EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN TEACHING ENGLISH

10.70728/tech.v2.i03.009

Allaberdieva Gulshoda Bakhtiyarovna

Uzbekistan, Fergana, Fergana State Technical University

Department of teaching the Uzbek language and teaching languages, teacher

e-mail: g.allaberdieva@ferpi.uz

Abstract. In the experience of the world to foster professional competent in the field of foreign languages to develop the competent of teaching in English, to modernize innovation process according to support modern pedagogics technologies, techniques of reading and integrating differential reading to develop reading competent step by step, to investigate the effect of lingo didactic and psychological factors is very important.

Innovational ways of teaching foreign languages are being used in educational places of our republic. According to this, to improve 4 skills of a pupil which are: speaking, listening, reading and writing gave us productive results in the field of learning and teaching foreign language? From the given above, as it works out the skill "reading" and "receiving information" it is considered to be basic source in teaching foreign language. So, to improve to develop reading skills of pupils helps to increase their vocabulary, to understand the text logically and the ability of giving personal opinion.

Key words: Modern technologies, development, reading competence, permissible, simplicity, to supplement.

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA TA’LIM TEXNOLOGIYASIDA O‘QITISH USULLARINING ROLI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Dunyo tajribasida ingliz tilida o‘qitish qobiliyatini rivojlantirish, zamonaviy pedagogika texnologiyalari, o‘qish texnikasi va o‘qish uslublari va o‘qish uslublarini qo‘llab-quvvatlash asosida innovatsion jarayonni modernizatsiya qilish uchun chet tillari sohasida malakali mutaxassislarni tarbiyalash bosqichma-bosqich o‘qishni rivojlantirish, lingo didaktik va psixologik omillarning ta‘sirini o‘rganish juda muhimdir.

Respublikamizning ta’lim maskanlarida chet tillarini o‘qitishning innovatsion usullari qo‘llanilmoqda. Bunga asosan o‘quvchining 4 ta ko‘nikmasini oshirish: gapirish, tinglash, o‘qish va yozish bizga chet tilini o‘rganish va o‘qitish sohasida samarali natijalar berdi. Yuqorida aytib o‘tilganlardan, "o‘qish" va "ma‘lumot olish" ko‘nikmalarini rivojlantirar ekan, bu chet tilini o‘qitishda asosiy manba hisoblanadi. Shunday qilib, o‘quvchilarning o‘qish qobiliyatini rivojlantirish uchun takomillashtirish ularning so‘z boyligini oshirishga, matnni mantiqiy tushunishga va shaxsiy fikr bildirish qobiliyatiga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy texnologiyalar, ishlab chiqish, o‘qish malakasi, ruxsat etilgan, soddaligi, to‘ldirish.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотатция: В мировом опыте очень важно формирование профессиональной компетентности в области иностранных языков, развитие компетентности преподавания английского языка, модернизация инновационных процессов в соответствии с поддержкой современных педагогических технологий, изучение методов дифференцированного чтения и интегрированного чтения для поэтапного развития компетентности в чтении, а также исследование влияния лингводидактических и психологических факторов.

В учебных заведениях нашей республики применяются инновационные методы преподавания иностранных языков. В связи с этим развитие четырех навыков учащихся – говорения, аудирования, чтения и письма – дало продуктивные результаты в области изучения и преподавания иностранных языков. Исходя из вышесказанного, навыки «чтение» и «восприятие информации» считаются основным источником в обучении иностранным языкам. Таким образом, развитие навыков чтения у учащихся способствует расширению их словарного запаса, логическому пониманию текста и формированию способности выражать собственное мнение.

Ключевые слова: Современные технологии, развитие, читательская компетентность, допустимый, простота, дополнять.

INTRODUCTION

Strategy of actions for further development of the Republic of Uzbekistan the item on the development of education and science sets important tasks such as “further improvement of the system of continuing education, increasing the capacity of quality educational services, continuing the policy of training highly qualified personnel in line with modern needs of the labor market.” At the same time, the use of modern technologies in the development of reading competence in the formation of integrated language skills in students plays an important role.

The effectiveness of the innovative integrated skills was determined through a comparative analysis of the innovative integrated skills with traditional teaching in education. The formation of the speech mechanism, the theory of speech activity, the psychological features of the study of language as a means of communication, formed the psychological basis of this study. Observation of the learning process, effective use of reading strategies and conversations with students helped to identify, analyze and develop ways to overcome psychological difficulties in the process of forming reading skills (ignorance of spelling rules, fear of making mistakes, lack of motivation).

The President touched upon the issues of stimulating research and innovation, creating effective mechanisms for the implementation of scientific and innovative achievements, the establishment of specialized scientific and experimental laboratories, high-tech centers and technology parks at universities and research institutes. Development of research and innovation activities in Uzbekistan to systematically change the activities of many higher education institutions requires. Such changes also constitute research on the basis of higher education both relate to the content and methods of the educational process. If in the past a small group of talented scientists and some graduate students from the teaching staff were engaged in scientific research and development, now they have become a definite part of the work of all teachers.

LITERATURE ANALYSIS AND METHODOLOGY

The lesson should be organized by the teacher in such a way that there is only a free and comfortable, cheerful environment. The main advantages of using non-traditional revision lessons are that in these lesson students feel responsible and interested only in speaking English, the topic is reinforced by this lesson and the methods used in it, passive students become more active through group work can compete with the strongest group in the non-traditional repetition class of other classes in the school, and it is through this that English competition nights and clubs are organized at the school. In a non-traditional review lesson, the teacher will have the opportunity to select and career-orient the most active, knowledgeable, and interested students. Another important feature is that in a non-traditional repetition lesson, all skills are applied: speaking, listening comprehension, reading and writing. [1,3]

In modern research, as a rule, identity is considered at the level of person-person, person-group, and as a mechanism of socialization, from the model of parental identification to norms, role-playing models or the model of identification of another person with other important people. In this regard, A. Antyushko identifies two main areas in which the phenomenon of identification is studied:

- The first direction - identification in the sense of the explanatory principle use the concept, that is, to measure the mental characteristics of a person and compare them with a certain standard;

- The second direction is the study of identification in the process of communication, interaction, mutual understanding by people.

This direction is related to the analysis of the process of socialization of the individual. Identification is a mechanism of socialization of the person, the mechanism of formation of the person in the process of interaction, mutual understanding. [3,5]

Following is the identification of events in relation to the teacher the scheme is proposed: identification with another person; group identification; identifying an

individual with a large community; comparing the subject with itself, i.e., self-identification and self-identification.

But very rarely is affect when it is not possible at all can also be a good educational tool. In this case, the teacher is required to work harder, be more patient and determined.

It is also required to adhere to the following rules:

First: the strong influence of the teacher on the student's behavior yields considerable results. However, it is important to keep in mind that a person who gets excited quickly can go overboard, resulting in him not getting the results he expected.

Second: anger often affects emotions more than the human mind. Students of a passionate teacher are disciplined not out of faith, but out of fear. Observations show that children of curious teachers, including those who are meek, indifferent, and at the same time demanding enough, rarely behave well in the teacher's fat.

Third: the nature of the case must be taken into account. There will also be actions that require the application of a compelling strong effect, but insignificant work and as a small offense; it is also very foolish to irritate oneself and the "nerves" of the students.

Fourth: The teacher's belief in his or her work is also important. Children also love curious teachers, if their anger helps them to get rid of a flaw in their students, if they feel that it is caused by a genuine sense of resentment.

The effectiveness of the use of pedagogical technologies in the educational process is finding its proof day by day. At the same time, the teacher and the student are constantly forced to search, study, and develop practical skills to express their ideas independently. This paves the way for them to become profound experts in their profession in the future. The role and importance of teaching methods in educational technology is particularly interactive methods, in which the classification of teaching methods is based on the specifics of teaching methods and the criteria for selecting teaching methods. Pedagogical technology encompasses the concepts of teaching methods such as educational technology, new pedagogical experience, new pedagogical technology, modern pedagogical technology, information technology, new experience. Nowadays, with the development of science and technology, the boundaries of human activity are expanding, new technologies are entering. Qualitative changes indicate that there are new technical, informational, audiovisual, audio tools that require new methodologies and become an integral part of the educational process, introducing certain features into it, which make modern pedagogical technologies a reality. Modern pedagogical technology, in essence, is on a par with other technologies, because they, like others, have their own field, methods and tools. A modern pedagogical technology differs from production and information technologies in that it represents a complex and incomprehensible pedagogical process as a field of knowledge related to the human mind. Its distinctive feature is that it combines the components of education. The application of modern

pedagogical technologies in the educational process, first of all, pedagogical technology based on the humanization and democratization of pedagogical relations, is the opposite of authoritarian technology creates a favorable social and psychological environment for development.

In this process, the student is the subject of his educational activity and in collaboration with the teacher solves educational tasks, the subject of a single educational process. The process of forming an independent personality is long and complex, requiring, on the one hand, the improvement of the content of all state structures and social organizations, and especially the education system, and, on the other hand, the establishment of a single educational system.

The famous scientist, philosopher, physician, Abu Ali Ibn Sina made a significant contribution to the development of pedagogical ideas. His views on morality and moral upbringing deserve special attention.

Ibn Sina's moral views are evident in his advice that is educated, noble, virtuous, strong-willed, zealous, well-rounded, and helpful to others, serving the common good and beneficial to humanity.

DISCUSSION AND RESULTS

In discussing the goals and means of education, Al-Farabi attached great importance to education, in which he meant the acquisition of scientific knowledge. According to Farabi, the purpose of human education is to show in him the pleasantness, usefulness and beauty of behavior, ability, and the fact that man is first and foremost directed his nature, his features to the truth and only to the truth. Thus, Farabi derives from the tasks of state studies, ethics and pedagogy in the development of the problem of goals and means of education, revealing the essence of the political structure of the state, which serves as the best means for people to achieve true happiness. [2,6]

The great poet of the Uzbek people Alisher Navoi, although he did not create a single work in the field of education, expressed his views in various scientific and literary works. Navoi expressed his views on education in his works of art by creating positive images that reflect the ideal of a well-educated person: in his comments on the importance of science and enlightenment, morality in the life of man and the people in general.
It is obvious that any text (words, synonyms and synonyms) has a positive effect on the mind of the reader, depending on the correct use of words, or the event in the text affects the reader.

Here is an example:

Zebi's interrogation episode in the novel Night and Day is proof of our point. The scenes are so vivid, a simple, beautiful girl who squeals like a child, involuntarily comes to life before your eyes. Standing helplessly like an innocent lamb in front of a knife-

wielding court, the helpless realizes that he is being forced to open his face in front of a group of male unfamiliar. The girl still did not realize that her life was being ruined, that a fatwa was being given here to ruin her youth, or rather that she could not. So he was indifferent, even answering questions a little angrily, wondering if he could find my house when the trial was over. The reasons for the communication in these cases are the imbalance of social, national, religious values.

Zebi has her own opinion on what happened. I did not kill my husband. Whether a wife kills her husband or not is a simple fact. Although Zebi did not want to touch the commander at first, she later admitted her fate and did not consider her husband a very bad person, even dreaming of having a child sooner. Zebi couldn't think otherwise. If he had tried to justify himself in court, if he had defended himself, we would not have believed it. The idea that it wasn't Zebi; it was Cholpon's words would cross the minds of readers, and the novel wouldn't find that much fame. In that case, the above dialogue would take place with any Uzbek woman. The reason is again the narrow environment filled with those restrictions, the ignorance and lawlessness that runs through ignorance like unconditional obedience to men who have been ingrained in the minds of women who have been trapped in their shawls since childhood. Therefore, in the process of communication, Zebi is not dissatisfied with the fact that his whole life is wasted, but with the fact that he opens his face in front of unfamiliar men. The court makes good use of this simplicity. The man who was helpless in this situation was the teacher. The teacher chose the most correct, the most tested way, that is, adapted to Zebi's worldview, level.

"Won't you run away from the dog?" (You will not run away).

There is no difference between a disbeliever and a dog ... (A disbeliever is not considered unfamiliar).

This is permissible. (You will not be a sinner by opening your face). (The emphasis in parentheses is ours). Look at the power of the word, the woman who said it was better to die than to open my face just now raised her eyebrows.

That's enough for Zebi. After all, this is the ruling of a religious leader with a big turban. The teacher skillfully maintained his self-esteem as well, meeting the needs of the people of the government as well. But none of this happened in the form of pity for the tragic fate of a weakling. For both local officials and the colonialists, Zebi was such a sacrifice that it was equally necessary on both sides to keep the rest in a lifetime of fear.

Every reader is looking for a positive hero from a work of art with features that are close to him, with life principles. That is, he seeks evidence that his lifestyle is right. It is such a complex mental process that one may not even realize it. Well-known French literary critic E. Genneken hypothesized that there was a psychological closeness between the reader and the writer in N.A. Rubakin takes his research as a basis, and the result proves this idea. [5,7]

1 Similar studies have been conducted by M.T. Khanin, V.S. Orlov, S.A. Trubnikov, L.I Beliaeva, M.B. Vainu, A.A. It is known to science that it was also conducted by Leontev and made a huge contribution to the development of psycholinguistics.

2 Is it possible to model the process of acceptance of a literary text? This question can be answered in the affirmative. Perhaps neither the recipient nor the producer needs such modeling, because just as a writer does not write according to a certain pattern or plan, so the reader can read within his own worldview and interests without reckoning with any model. But the difference between scientific views and the views we are accustomed to on a daily basis is that they explore aspects of the unexpected through an unexpected perspective and come to conclusions that relate to generality and specificity.

Modeling is the reproduction of the properties of an object in another object that is specifically configured to study them. This last object is called the model.

3 The linguistic model is characterized by the fact that it is a constructive scheme that exists in the human mind as an opportunity and is supplemented by specific lexical units in the direct speech process. Such modeling is based on a stable relationship of the elements in the character structure. Describing modeling as a nationwide method, D. Nabieva says that modeling follows the following principles: deductiveness, the use of a thinking experiment, and the interpretation of a model as an idealized object:

balki ularning ma’naviy va hissiy rivojlanish manbai hamdir. Ingliz tilida bu tushuncha ko‘plab lingvistik birliklar, jumladan, maqollar, iboralar va frazeologik vositalar orqali aks ettirilgan. Shu bois oila tushunchasini tadqiq qilish lingvokognitiv tahlil uchun qiziqarli va boy material yaratadi.

Maqollar va iboralar oila haqidagi qadriyatlarni, insoniy munosabatlarni hamda jamiyatning turli tarixiy bosqichlardagi qarashlarini aks ettiradi. Ular til va madaniyatning uzviy bog‘liqligini o‘rganishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Lingvokulturologik tahlil orqali oila tushunchasi semantik guruhlar bo‘yicha tasniflanadi, bu esa turli xalqlarning oila haqidagi dunyoqarashlarini qiyoslash imkonini beradi. Masalan, ingliz tilida "bolalar ota-onalarining aksidir" degan fikrni aks ettiruvchi iboralar mavjud: "Like father, like son" (Ota o‘g‘liga o‘xshaydi), "Like mother, like daughter" (Ona qiziga o‘xshaydi). Ushbu iboralar oiladagi genetik va madaniy merosning ahamiyatini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, oila a’zolari orasidagi mehr-muhabbat va mas’uliyatni ta’kidlovchi iboralar ham ko‘p uchraydi. Masalan, "Children are poor men’s riches" (Bolalar – kambag‘al odamning boyligi) yoki "To a father growing old nothing is dearer than a daughter" (Yoshi ulg‘aygan otaga qizidan azizroq hech narsa yo‘q). Bu iboralar jamiyatning oilaviy qadriyatlarga e’tiborini aks ettiradi. “ Every mother thinks her own gosling a swan” – (har bir ona o’z bolasini eng yaxshisi deb biladi). Bu ibora onaning bolasi haqidagi sevgisini va ishonchini ifodalaydi. Bu o’zbek madaniyatida ham “ Har bir ona o’z bolasini oqqush deb biladi” iborasiga mos keladi. Yoki aytaylik “ A good Jack makes a good Jill” – “ Yaxshi erkak yaxshi ayolni yaratadi.” – Oilada er-xotinbir-biriga ta’sir o’tkazib, oilaviy muhitni belgilaydi. Bu ibora oilaviy hamjihatlikning ahamiyatini ko’rsatadi. Amerika lingvistik madaniyatida oila tushunchasi, shuningdek, tarixiy va ijtimoiy kontekstlar orqali ham o‘z aksini topgan. Masalan, "Father Abraham" iborasi AQShning birinchi prezidentlaridan biri Avraam Linkolnga ishora qilib, ota sifatidagi liderlikni ifodalaydi. "The Mother of Presidents" esa AQShning Virjiniya va Ogayo shtatlarini anglatadi, chunki bu shtatlar ko‘plab prezidentlarning vatani bo‘lgan.

Britaniya va Amerika lingvokulturolarida "oilani" ifodalovchi asosiy leksik birlik bu ***family*** (lotincha – familia- family servants, domestics, members of a household) (=lotincha familia — uy xizmatkorlari, oiladagi a'zolar) 15-asrda birinchi marta ishlatilgan va u nafaqat xizmatkorlar, balki ularning egalarini ham ifodalagan. Bu ma'no 16-asrning oxiriga qadar davom etgan. Vaqt o'tishi bilan, ma'no *whole household* (= uy-joydagi barcha kishilar) ni o'z ichiga olgan, ammo 17-asrning o'rtalarida bu ma'no yana torayib, hozirgi zamon tushunchasi — *group of related people* (= qarindoshlar guruhi) ga aylangan. 18-asr boshlariga kelib, bu faqat *those connected by blood* (=qon bilan bog'liq bo'lganlar) sifatida tariflana boshlangan. Family so'zining sifat ma'nosida ishlatilishi, ya'ni *those connected by blood* -"qon bilan bog'langanlar" degan ma'no 1807-yilda qayd etilgan, 1796-yilda esa *in a family way* (homilador) degan idiomatik ibora paydo bo'lgan.

Family circle (oilaviy doira) iborasi 1809-yilda, *family man* (oilaga sodiq erkak) 1856-yilda yuzaga kelgan. 20-asrda esa *family values* (oilaviy qadriyatlar) degan ifoda birinchi marta ishlatilgan. Shunday qilib, family so'zining rivojlanishi ma'nosining kengayishi va torayishi bilan bog'liq bo'lgan. vositasi sifatida ishlatiladigan qarindoshlar guruhi" deb ta'riflanadi. Clan a'zoligiga kirish, odatda, umumiy ajdoddan kelib chiqish orqali belgilanadi va bu nisbatan yoki faqat erkak (patriaxat) yoki faqat ayol (matriaxat) liniyasiga asoslanishi mumkin.

Britaniya lingvokulturasidagi oilaning qadimgi nomlanishi esa clan so'zi bo'lib, bu so'z dunyoning turli tillariga kirgan. Clan tushunchasi Britaniya ensiklopediyasida "ko'plab an'anaviy jamiyatlarda tashkilot tuzish. Shunday qilib, oila tushunchasini lingvokognitiv nuqtai nazardan tahlil qilish nafaqat tilshunoslik, balki jamiyat va madaniyatni chuqurroq o‘rganish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Oila haqidagi lingvistik birliklar madaniy merosni aks ettirgan holda, har bir xalqning o‘ziga xos dunyoqarashi va qadriyatlarini ochib beradi.

Oila tushunchasining lingvokognitiv talqini, ya'ni til orqali oilaviy munosabatlar va tuzilmalarning shakllanishi va tasavvurlanishi, ijtimoiy, madaniy va tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. O'zgaruvchan jamiyatlarda oila tushunchasi, u bilan bog'liq lingvistik elementlar, yillar davomida turlicha shakllanib kelgan. Buning asosiy omillaridan biri oila tushunchasining kognitiv jihatdan qanday tasavvur qilinishi va til orqali qanday ifodalanishidir. Yangi ilmiy tadqiqotlar, oila tushunchasining lingvokognitiv talqinini anglashda til va madaniyatning qanday o'zaro bog'lanishini o'rganish uchun muhim manba bo'ladi. Britaniya oilasining evolyutsiyasini tahlil qilishda, Lourens Stoun tomonidan keltirilgan oilaning tarixiy shakllari haqidagi fikrlar, oila tushunchasining lingvokognitiv talqinini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Stoun, Britaniyada oila shakllarining uchta asosiy davrini ajratadi: 1) ochiq qabila oilasi, 2) izolyatsiyalangan patriarxal oila, 3) uyga bog'langan yadroli oila [3]. Bu davrlarning har biri o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlar, madaniyat va til bilan chambarchas bog'liqdir. Oila shakllarining o'zgarishi, nafaqat ijtimoiy tuzilmalarning, balki oilaning lingvistik ifodasining ham o'zgarishini ta'minladi.

O'zgarishlarning lingvokognitiv jihatdan ahamiyati shundaki, har bir oilaviy shakl o'zining til orqali aks ettirilgan va kognitiv jihatdan qabul qilingan tasavvurini yaratgan. Masalan, ochiq qabila oilasi oilaviy aloqalarni kengaytirish va birgalikda yashashni ta'minlagan bo'lsa, patriarxal oila modeli, erkaklarning oiladagi hukmronligini aks ettirgan. Bu o'zgarishlar o'z-o'zidan tilda yangi leksik birliklar va kategoriyalarni keltirib chiqardi, bu esa oila tushunchasining lingvokognitiv talqinini o'zgartirdi.

Amerika oilasining lingvokognitiv talqini: Amerika oilasini tahlil qilishda, ko'plab tadqiqotchilar, jumladan M. Hill, oilaning tuzilishini aniq belgilaydigan asosiy faktlarni keltiradilar. Hillning fikriga ko'ra, "oila — bu er-xotin va voyaga etmagan

bolalardan iborat bo'lib, er/ota oilaning asosiy daromad topuvchisi hisoblanadi, ayol esa, ayniqsa bolalar maktab yoshiga yetmagan paytda, pul topishda ishtirok etmaydi" [4]. Bu ta'rifda oilaning strukturasi, erkak va ayol o'rtasidagi an'anaviy ro'llarni aks ettiradi. Bunday ta'rif oila tushunchasining lingvokognitiv talqinida, oilaning faqat ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni emas, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini ham aks ettiradi. Oila bilan bog'liq lingvistik birliklar va ifodalar, asosan, erkak va ayolning o'zaro rolini va mas'uliyatlarini aks ettiradi.

Britaniya va Amerika oilalari: Lingvokognitiv taqqoslash: Britaniya va Amerika oilalarining lingvokognitiv talqinlari orasidagi farqlarni ko'rib chiqish, oila tushunchasining til orqali qanday shakllanishi va rivojlanishini tushunish uchun muhimdir. Britaniya oilasi, ko'proq monogam, patriarxal va yadroli tuzilmaga ega bo'lib, oilaning til orqali ifodalangan asosiy qoidalari ko'pincha qonunlar va ijtimoiy normativlarga asoslanadi. Oila haqida gapirganda, britaniyaliklar ko'pincha ota, ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni, ular orasidagi his-tuyg'ularni va o'zaro aloqalarni muhokama qiladilar. Britaniya tilida oilaga oid ko'plab leksik birliklar mavjud bo'lib, ular oila strukturasi va oilaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Amerika oilasi esa, ko'proq individualizmga asoslangan, er-xotin va bolalar o'rtasidagi aloqalar ko'proq shaxsiy his-tuyg'ular va oilaviy an'analarga tayanadi. Amerikaning lingvokognitiv talqinida, oilaning asosiy elementlari shaxsiy erkinlik, emotsional aloqalar va farzandlarning mustaqillikka erishishi bilan bog'liq. Bu o'zgarishlar tilga qanday aks etganini tushunish uchun, oila haqidagi an'anaviy so'zlar va iboralar, masalan, "family unit" (oila birligi) va "nuclear family" (yadroli oila), tilshunoslik nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilishi kerak

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Stone, L. (1977). *The Family, Sex and Marriage in England 1500-1800*. Harper & Row.

2. Hill, M. (1970). *The Structure of the American Family*. New York: Random House.

3. Collins, P. (1999). *The Family and its Changing Structure*. London: Routledge.

4. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.

5. Geeraerts, D. (2010). *Theories of Lexical Semantics*. Oxford: Oxford University Press.

6. Kövecses, Z. (2000). *Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling*. Cambridge University Press.

7. Semino, E., & Swindlehurst, A. (1996). *Metaphor in Discourse*. Cambridge: Cambridge University Press.

8. Fillmore, C. J. (1982). *Frame Semantics*. In Linguistic Society of America (ed.), *Annual Review of Anthropology*, 11, 11-55.

9. Lakoff, G. (1987). *Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal About the Mind*. University of Chicago Press.

10. Turner, M. (1991). *Reading Minds: The Study of English in the Age of Cognitive Science*. Princeton University Press.

11. Whorf, B. L. (1956). *Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf*. MIT Press.

12. Barber, C. (1995). *The English Language: A Historical Introduction*. Cambridge University Press.

13. Evans, V. (2007). *A Glossary of Cognitive Linguistics*. Edinburgh University Press.

14. Lako, G., & Johnson, M. (2003). *Philosophy in the Flesh: The Embodied Mind and its Challenge to Western Thought*. Basic Books.

15. Geeraerts, D. (2006). *Theories of Lexical Semantics*. Oxford University Press.

16. Taylor, J. R. (2003). *Language to Thought: An Introduction to Cognitive Linguistics*. Oxford University Press.

TA’LIMNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: KADRLAR TAYYORLASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

10.70728/tech.v2.i03.021

Yulduz Rizayeva
Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlar markazi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim tizimini o‘zgartirish uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, ta’lim jarayoniga texnologiyalarni joriy etish, interfaol o‘quv materiallarini yaratish, masofaviy mashg‘ulotlar o‘tkazish, o‘quv jarayonini individuallashtirish va undan foydalanish haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Annotation: In this article, the use of modern information and communication technologies, the introduction of technologies in the educational process, the introduction of interactive teaching materials, the individual training of the educational process is provided with information on the individualization and use of the learning process.

Keywords: raqamli transformatsiya, axborot texnologiyalari, masofaviy mashg‘ulot, innovatsion texnologiyalar.

Ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi kadrlar tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi. Bu jarayon ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va zamonaviy ish bozori talablariga mos kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari ta'lim tizimining sifatini oshirish, o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish va zamonaviy jamiyat talablariga mos kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Ularning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim jarayoni yanada qiziqarli, samarali va qulay tashkil etilishi mumkin. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) va boshqa innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning faolligini oshiradi va ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari o'quvchilarga mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi va ularning o'z-o'zini ifoda etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Innovatsion texnologiyalar ta'lim mazmunini yangilash va uni zamonaviy talablar asosida moslashtirish imkonini beradi. Bu o'quvchilarga dunyoqarashlarini kengaytirish, yangi bilimlarni o'zlashtirish va ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalar o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish, yangi usul va metodlarni qo'llash orqali ta'lim sifatini yaxshilashda yordam beradi. Bu o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarining joriy etilishi ta'lim tizimining sifatini oshirish, o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish va jamiyatning zamonaviy talablariga mos kadrlarni tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Ularning samarali qo'llanilishi ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonini interfaol, qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, ular o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishga va ta'lim jarayonini individuallashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda ta'lim tizimini takomillashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha bir qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va takomillashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha bilim berish usul va vositalarini yangilash kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu orqali talabalar va pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyalari oshirilmoqda.

Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishda quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

- **Resurslar Yetishmasligi:** Zamonaviy texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan infratuzilma va resurslarning yetishmasligi.
- **Pedagogik Kadrlarning Tayyorlanishi:** O'qituvchilarning yangi texnologiyalarni qo'llay olishlari uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarning yetarli darajada bo'lmasligi.
- **O'quvchilarni Tayyorlash:** O'quvchilarning raqamli texnologiyalarni samarali foydalanish uchun tayyorlanmaganligi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish va zamonaviy ish bozori talablariga mos kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish yo'lida muhim qadamdir.

Adabiyotlar

1. universaljurnal.uz
2. cyberleninka.ru

3. academia.edu

4. Ravshan Ishmuhamedov, Maqsudjon Yuldashev - "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar"- o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2013

5. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics// Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021, 174

NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM-TARBIYANI O'YIN ORQALI YETKAZISH

10.70728/tech.v2.i03.022

Xallokova Maksudaxon Ergashevna
Farg'ona davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi, p.f.b. f.d (PhD)

Nuriddinova Muslima Komiljon qizi
Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o'yin bo'lishi, ta'lim-tarbiyani o'yin orqali o'zlashtirish, o'yin orqali bilim berish haqida so'z yuritilgan.

Аннотация: This article discusses the fact that the main activity of preschool children in non-governmental preschool educational organizations is play, the acquisition of education through play, and the provision of knowledge through play.

Abstract: В статье рассматривается тот факт, что основной деятельностью дошкольников в негосударственных дошкольных образовательных организациях является игра, получение образования через игру, предоставление знаний через игру.

Kalit so'zlar: o'yin, bolalar o'yinlari uchun sharoit yaratish, o'zaro munosabat, rivojlantiruvchi muhit, qoida, o'yinga asoslangan ta'lim, erta bolalik

Key words: : game, creating conditions for children's games, interaction, developmental environment, rules, game-based education, early childhood

Ключевые слова: игра, создание условий для детской игры, взаимодействие, развивающая среда, правила, игровое обучение, раннее детство

O'yin maktabgacha yoshda yetakchi faoliyatdir. O'yin orqali ta'lim olish bolalarni ta'lim olishi va rivojlanishining yondashuvlaridan biridir. O'yin – bu bolani o'zini va atrofidagi dunyoni o'rganishga undashning tabiiy usuli. O'yin bolaning shaxsiyati, uning bilish, ijtimoiy-hissiy, ijodiy va jismoniy jihatlarini rivojlantiradi. O'yinda bolalarning tengdoshlari va pedagogi bilan o'zaro munosabati nutq va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, uning motorikasi takomillashib boradi.

O'yin boshqa bolalar bilan hamkorlikda ta'lim olish imkoniyatini yaratadi, ularga tavakkal qilish, xato qilish va qiyinchiliklarni yengish imkonini beradi. Va, eng muhimi, o'yin ta'lim olishni quvonchli qiladi, bolalarning tasavvurini va ijodkorligini rivojlantiradi. O'yin har xil bo'lishi mumkin – bolaning yoki bolalar guruhining tashabbusi bilan to'laligicha erkin, pedagogning minimal yoki to'liq ishtirokisiz - pedagog tomonidan tashkil etilgan va uning ko'rsatmalari yordamida amalga oshiriladi.

Erkin o‘yinning ahamiyatini tushunish va e’tirof etish bilan birga, uyushgan o‘yinda pedagogning hal qiluvchi rolini ham tan olish kerak.

Ta’lim va tarbiya jarayoni o‘yin o‘ynash imkoniyatini ta’minlashi kerak, rivojlantiruvchi muhit esa o‘yin o‘ynash imkoniyatiga hissa qo‘shishi kerak. O‘yin uchun sharoit yaratish, ya’ni bolalarni yetarli vaqt, joy, qo‘llab-quvvatlovchi resurslar va o‘yinchoqlar bilan ta’minlash juda muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar bolalar o‘yiniga yordam berishlari muhimdir.

Bolalar o‘yinini tashkil etishda pedagogning o‘rni quyidagilar bilan ifodalanadi:

- **bolalar o‘yinlari uchun sharoit yaratish (vaqt, joy, resurslar).** Pedagog o‘yin maydonchasini tayyorlaydi, bolaning yoshi, qiziqishlari, qobiliyati va madaniyatiga mos keladigan rag‘batlantiruvchi o‘yin resurslari bilan ta’minlaydi. Pedagog xavfsizlik talablariga rioya qilgan holda xona ichida va tashqarisida ham o‘yin uchun imkoniyatlar yaratadi;

- **bolalar o‘yinini rivojlantirish.** Pedagog bolalarga o‘yin orqali o‘rganish va rivojlanishlari uchun imkoniyatlar yaratadi. Pedagog bolalarga o‘yin holatiga kirishga va yoki o‘ynashni davom ettirishga yordam beradigan ko‘nikmalarni shakllantiradi. U bolalarning individual xususiyatlari, ularning qiziqishlari, qobiliyatlari va rivojlanish ehtiyojlarini kuzatish asosida o‘yinni rejalashtiradi;

- **bolalarning o‘yinda o‘zaro munosabatda bo‘lishiga yordam berish.**

Bolalarni o‘yinda kuzatish pedagogga bolaning boshqa bolalar bilan qanday o‘ynashini, bola o‘yinda qanday ko‘nikma va malakalarni namoyon etishini, o‘yin orqali qanday ko‘nikmalarni rivojlantirish kerakligini anglashga yordam beradi. Pedagog o‘yinga qo‘shilib, bolaning ta’lim olishini, uning tasvirlash, tushuntirish, asoslashi, tegishli tilni qo‘llash qobiliyatini, shuningdek, ijobiy xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘maklashadi;

- **bolalarga o‘zlarini va qobiliyatlarini namoyish qilish imkoniyatini berish.**

Pedagog rejalashtirishda bolaning o‘z g‘oyasi asosida yoki uning tashabbusi bilan o‘ynash uchun yetarli vaqt ajratadi, bunda bolalar shoshmasdan va kattalar tomonidan to‘xtatilishidan qo‘rqmasdan o‘ynashlari mumkin. Bolalarga erkin o‘yin uchun vaqt va kattalarning faol aralashuvisiz o‘zlarini va qobiliyatlarini ifoda etish imkoniyati beriladi. Bolalarda o‘yin orqali diqqat xotira va idrokni qiyinchiliklarsiz shakllantirish mumkin. Chunki bola o‘yin jarayonida o‘zini erkin his etadi. O‘yin o‘ynayotgan paytidagi malumotlarni ham bajonidil qabul qiladi. Maktabgacha yoshda bolalar rivojlanishida qiziqarli doira o‘yinlarining afzalliklarini e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Bunday o‘yin ko‘plab muhim ko‘nikmalarni o‘rgatishi mumkin, undan keyin yosh avlod o‘z tasavvurini chuqurlashtirish uchun foydalanishi mumkin. Shuningdek, u hayotdagi asosiy

ko‘nikmalar bo‘lgan ko‘z bilan aloqa qilish, o‘z navbatini kutish, his-tuyg‘ularni tushunish va ularga qanday munosabatda bo‘lish va tinglash kabi ijtimoiy-emotsional o‘rganishni rag‘batlantiradi. Misol uchun, agar bola raqobatbardosh bo‘lsa va yutqazishni yoqtirmasa, bunday xatti-harakatlarga qanday munosabatda bo‘lasiz? O‘yinni o‘ynashni davom ettirish - bu muammoni hal qilishning bir usuli. O‘yin qoidalari bo‘yicha o‘ynash, shuningdek, bolaga chegaralarni ko‘rishga va raqibini qanchalik uzoqqa bora olishini o‘rganishga yordam beradi.

Hozirgi zamon pedagogikasida bola bilan do‘stlik muhitida ishlash yaxshiroq samara beradi. Tarbiyachilar o‘yin jarayonida o‘zlari ham ishtirok etishlari iliq munosabatlarga sabab bo‘ladi. Tarbiyalanuvchilarga har doim g‘alaba qozonishga ruxsat berish unga boshqalar bilan til topishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar ustida ishlash imkoniyatini bermaydi. U har safar g‘alaba qozonish mumkin emasligini qanchalik tez bilsa, bu uning uchun shunchalik yaxshi bo‘ladi. Bola g‘alaba va mag‘lubiyat haqiqatini yoshligidanoq o‘rganadi. O‘yinlar bolaga ushbu hayotiy ko‘nikmani tushunishning samarali usuli bo‘ladi.

Yaxshi jismoniy va ruhiy salomatlikka ega bo‘lish uchun bolalar tug‘ilishdan to o‘smirlik davriga qadar rejalashtirilmagan o‘yinga asoslangan o‘zlashtirish va o‘rganish imkoniyatlariga muhtoj. O‘yinga asoslangan ta’lim faol, sog‘lom va baxtli bo‘lishning yoqimli vositasidir. Bola o‘rganishdan zavqlana oladi o‘yin orqali. Agarda biz pedagoglar ta’lim-tarbiya jarayonini doimiy o‘yinlar bilan olib borsak, sifatli natijaga erishishimiz haqiqat. Shaxsan o‘z tajribamdan kelib chiqsam, bola uchun o‘qib o‘rgangandan, o‘ynab o‘rgangan foydaliroq. Bola bu jarayonda ilk yoshdan ijtimoiy munosabatga kirishadi, jismoniy, ruhiy va mantiqiy fikrlash tomonidan ham rivojlana oladi. Ularning tasavvurini, ijodkorligini va muammoni hal qilish qobiliyatini rag‘batlantiradigan, hissiy farovonlikni ta’minlaydigan jarayon ham aynan mana shu qiziqarli faoliyatlardir.

Eng muhimi, kattalar yosh avlod bilan yangi va qiziqarli o‘yinlarni o‘rganishni yaxshi ko‘radilar va ularning vaqtlari yangi g‘oyalarni o‘rganish va umumiy ruhiy farovonligini saqlab qolish uchun sarflanganligini tushunadilar. Farzandingiz tasodifan u o‘ynayotgan o‘yinga qo‘shilishingizni so‘rasa, ikkilanmang, shunchaki boring! Tarbiyachilar ham aynan o‘yin faoliyatida bolalar bilan birgalikda o‘ynashlari darkor. Bu jarayon samimiylikni oshiradi.

Bolalar bilan ko‘chaga chiqish va o‘yin maydonchasida o‘ynashni maqsad qiling. Ochiq havoda o‘yin va tabiat bola uchun foydalidir, chunki ular atrofdagi dunyo haqida ko‘proq ma’lumot olishni boshlaydilar va ularning hissiy rivojlanish ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

Bolalar nafaqat o‘ynashni, balki o‘rganishni ham bilishadi. Ular o‘ynab yurganlarida, sizning aniq ko‘rsatmalaringizga e’tibor bermasliklari va o‘z-o‘zidan ishlarni qilishning g‘ayrioddiy usullarini topishlari mumkin. Kichkintoylar qurilish

bloklarini nafaqat minoralar yasashda ishlatishadi, balki cho‘tkasiz bo‘yashni ham xohlashlari mumkin! Bunday hollarda bolani erkin qo‘ying.

O‘yinga asoslangan ta’lim bolalarga ta’m, teginish, ko‘rish, eshitish va hidlash orqali barcha his-tuyg‘ularini ishlatishga yordam beradi. Shuningdek, ular atrofdagilarni kuzatib boradilar va bu odamlarning gapirishlari va o‘zini tutishlariga taqlid qilishni sodda va oson deb bilishadi. Hech qachon bolangizni majburlamang va unga yoqmaydigan narsani majburlamang.

Tabiatan tasavvurga ega bo‘lgan bolalar o‘yinchoq telefonida xayoliy qo‘ng‘iroq qiluvchi bilan xursand bo‘lib gaplashadilar. Bunday o‘yinni faol rag‘batlantirish kerak, chunki u bolaning tasavvurini rivojlantirishga yordam beradi va uning intellektual rivojlanishiga yordam beradi.

O‘yin o‘ynash orqali bolangiz o‘rganishga ko‘proq rag‘batlantirilishi va ishtirok etishi, diqqatni jamlash va diqqat bilan tinglash va berilgan vazifalar to‘plamini bajarish uchun osongina jalb qilish qobiliyatini rivojlantirishga ko‘proq moyil bo‘lishi mumkin. O‘yinlar bolaga jamoaviy o‘yinchi bo‘lishga ishonch beradi va o‘zi uchun qanday mas’uliyatni his qilishni biladi.

Aksariyat o‘yinlar muammolarni hal qilish strategiyasi va rejalashtirishni talab qiladi. O‘yinda bir qator strategiyalarni qo‘llash orqali yosh bolalar muammolarni hal qilish va aqliy bilish imkoniyatlarini oshirish uchun ishchi xotirasidan foydalanishni o‘rganishlari mumkin. O‘yin o‘ynashda qo‘llaniladigan strategiyalar bilan miyani rag‘batlantirishning o‘zi ajoyib miya mashg‘uloti bo‘lishi mumkin.

Ijobiylikni yaratish va bolani ishtirok etishga undash va o‘rganishga sog‘lom munosabatni rivojlantirish uchun faoliyatda o‘yinlardan foydalanish mumkin. Bola o‘yin o‘ynayotganda, u bajarilishi kerak bo‘lgan muhim qoidalar va harakatlarni eslab qolishi kerak. Shuningdek, u tezkor o‘ylash va harakat qilish uchun o‘zining ishchi xotirasidan foydalanadi.

O‘yinga asoslangan ta’lim yangi bilimlardan foydalanish va mustahkamlash uchun ajoyib vositadir.

O‘yinga asoslangan ta’lim erta bolalik ta’limining eng qiziqarli va boyituvchi qismlaridan biridir. Quyida ta’lim sohasidagi o‘yinlarning bir nechta afzalliklari keltirilgan:

1. Jismoniy va ruhiy salomatlikni mustahkamlaydi
2. Ijodkorlik va tasavvurni rag‘batlantiradi
3. Muammoni hal qilish ko‘nikmalarini oshiradi
4. Sensor rivojlanishini kuchaytiradi

5. Savodxonlik va hisoblash qobiliyatlarini rag‘batlantiradi

Bolalar uchun o‘yinga asoslangan o‘quv faoliyati ularning asosiy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun mo‘ljallangan, shuningdek, ularga tajriba, kashf qilish va yechimlarni topish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi, bu esa tezda o‘zlariga ishonchni oshiradi.

Natijada, rejalashtirilmagan o‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta’lim faoliyatining asosiy tarkibiy qismidir.

Nima uchun erta bolalikda ishtirok etish muhim?

Bolalarni ijodkorlikka, tasavvurga va kashfiyotlarga jalb qiladigan o‘yinlar, san’at va rolli o‘yinlar kabi bolalarni rivojlantirish faoliyati vaqt o‘tishi bilan bolaning munosabatini shakllantirishga yordam beradi. Erta bolalik davridagi ta’limga jalb qilishning ahamiyati:

1. Miyadagi neyron tarmoqlarning rivojlanishiga yordam beradi

2. Nozik vosita ko‘nikmalarini yaxshilaydi

3. Innovatsiyalar uchun joy yaratadi

4. Muloqot qobiliyatini oshiradi

5. Ishonch va o‘ziga bo‘lgan hurmatni oshiradi

Bolalar uchun qiziqarli o‘quv mashg‘ulotlari, masalan, o‘yinlar, san’at va hunarmandchilik, musiqa va boshqalar bolaning motivatsiyasini kuchaytiradi, chunki ular tabiiy ravishda yangi va qiziqarli o‘rganish usullariga moyil. Bolalar o‘zlari yaxshi ko‘radigan bolalarni rivojlantirish mashg‘ulotlarida qatnashganda, ularning diqqatini jamlash, diqqatni jamlash qobiliyati va e’tibor tezligi yaxshilanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Hozirgi kunda nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ko‘p qismi o‘zining shaxsiy o‘quv dasturi yoki rivojlangan davlatlar texnalogiyalari asosida jarayonni tashkil etmoqda. Bu texnalogiyalardagi asosiy faoliyat turi o‘yin bo‘lib, o‘yinga asoslangan ta’lim strategiyasini amalga oshirish bolalarga yangi narsalarni kashf etishga, o‘zlarining kundalik vazifalarini ijodiy tarzda bajarish uchun turli yondashuvlar bilan tajriba o‘tkazishga va kundalik mashg‘ulotlarning bir qismi sifatida duch kelgan muammolarga yechim topishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yinga asoslangan ta’lim tadbirlarini o‘z ichiga olgan holda, bolalar o‘ziga ishonchni qozonadilar va o‘rganishga intilishadi. O‘yinga asoslangan ta’lim bolalarning har tomonlama rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashning eng samarali strategiyalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi, 2022-yil 20-21-sahifa.

2. Boltayeva F. A., Ibrohimova N. N. Maktabgacha ta’limda integral darslar –

innovatsion loyiha sifatida. “Science and Innovation”. International sicentific journal. https://doi.org/ 10.5281/zenodo.6626043 2022 y., 2-son. 292 b.

3. Boltayeva F. A. Esonaliyeva O. Yoshlar hayotida virtuallashuv sabablari va omillari. “Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi” FTAI, Jild: 03, Nashr: 06, June 2022. 232 b

https://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/588

4. Khallokova, M. E. (2018). Important Aspects of Establishing Non-State Educational Institutions. Eastern European Scientific Journal, (2)

5. Khallokova, M. (2022). Modernization of the education system in non-governmental educational institutions. Society and Innovations, 3 (1), 151-157.

6. F.A.Boltayeva. The Essence of Integrating Innovative Technologies in Preschool Education.

Pindus Journal Of Culture, Literature and ELT. 110 https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/256

7. M.K.Nuriddinova (2023): Educational Research in Universal Sciences (ERUS) MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA TA’LIM – TARBIYA ISHLARI

KASBGA YO‘NALTIRISH TAMOYILLARI VA UNI OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYALARI

10.70728/tech.v2.i03.023

Mir-Yusupova Muxayyoxon Alimjanovna
Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Hozirgi fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida yosh avlodni jamiyat barpo etishda faol qatnashishga tayyorlashi lozim bo’lgan maktabning roli har qachongidan ko’ra o’sdi. Shu munosabat bilan o’quvchilarga ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini singdirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy axloqiylikni shakllantirish, yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash ta`lim va tarbiyaning hamma bosqichlarida hozirgi maktabning vazifalaridir. Kasbni to’g’ri tanlash – inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyat ko’p jihatdan kasbning qanchalik to’g’ri tanlanishiga bog’liq.

Kalit so’zlar: Individuallik, mutanosiblik, realistiklik, pedagogik kompetensiya, psixologik kompetensiya.

Abstract. In the current conditions of scientific, technical and social development, the role of the school, which should prepare the younger generation for active participation in building society, has grown more than ever. In this regard, the tasks of the modern school at all stages of education and upbringing are to instill in students a solid knowledge of the foundations of science, to cultivate in them a high consciousness, to form universal morality, to prepare the younger generation for life and work, to consciously choose socially necessary professions. Choosing the right profession is an important step in a person's life, and the success of the younger generation in their entire life largely depends on how correctly the profession is chosen.

Keywords: Individuality, proportionality, realism, pedagogical competence, psychological competence.

Respublikamizda yetarli darajada nazariy va amaliy jihatdan ishlab chiqilmagan bu kabi muammolarni hal qilishda mamlakatimiz mintaqa xususiyatlarini, milliy an’analarini va tarixiy tajribasini hisobga olish lozim bo’ladi. Ikkinchi tomondan esa fan-texnika taraqqiyotining hozirgi talabalari asosida maktab yoshlariga mehnat tarbiyasi berish va ularni ishchi kasblarini egallashga yo’naltirish shakl va metodlarini takomillashtirishning yangi yo’llarini qidirishga to’g’ri keladi. Kasbga yo’naltirish ishida iqtisodiy muammolar muhim o’rin tutadi. Bular orasida xalq xo’jaligini rivojlantirish va kasb muammolari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu masalalarni kasbga yo’naltirish jihatlari bilan o’zaro bog’liq tarzda talabalarning mustaqil mashg’ulotlarida ko’rib chiqishi tavsiya etiladi.

Hozirgi fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida yosh avlodni jamiyat barpo etishda faol qatnashishga tayyorlashi lozim bo'lgan maktabning roli har qachongidan ko'ra o'sdi. Shu munosabat bilan o'quvchilarga ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini singdirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy axloqiylikni shakllantirish, yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash ta`lim va tarbiyaning hamma bosqichlarida hozirgi maktabning vazifalaridir. Kasbni to'g'ri tanlash – inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlanishiga bog'liq.

Kasbni to'g'ri tanlash har bir maktab o'quvchisining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi uchun uning sog`lig`ini, o'zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko'ra ko'proq qaror topadi va namoyon bo'ladi. Odam bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo'lib, mehnat unumdorligini doimo oshirib borsa, tanlagan kasbiga zo'r qiziqish bilan qarasa, o'z ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, o'shandagina u mehnatdan qoniqish hosil qiladi va xursand bo'ladi, bunday hoolda har bir shaxs jamiyatga eng ko'p naf keltiradi. Mana shu aytgan gaplardan kasb tanlashning g`oyat muhim ijtimoiy ahamiyati kelib chiqadi. Kasb-korni erkin tanlash juda katta ahamiyatga ega. Odam shug`ullanayotgan ishini yaxshi ko'rsa, bundan u xursand bo'ladi, qoniqish hosil qiladi, zo'r tashabbus ko'rsatadi, toliqmay mehnat unumini oshiradi.

O'z-o'zidan ma'lumki, bunga o'qitishning to'g'ri yo'lga qo'yilishi, bilimlarni, ilm-fan asoslarini, ayniqsa ijtimoiy foydali va unumli mehnat bilan chambarchas bog`langan mehnat politexnik bilimni chuqur va mustahkam egallash natijasidagina erishish mumkin. Har qanday kasbda eng muhimi - uning mehnat mazmuniga ega bo'lishidir. Shu boisdan mehnatsevarlikni, yaxshi urf-odatlarni tarbiyalash va ularni mehnat jo'shqinligiga ko'chirish bolalarni kasb tanlashga tayyorlashning bosh negizidir. Oilada bolani mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash odatda maktabgacha bo'lgan yoshdan boshlanadi. Ana shu paytdan e`tiboran bolalarni bo'lg`usi kasbni tanlashga tayyorlash amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarning qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini muntazam ravishda o'rganish zarur. Kasb tanlashda xato qilmaslik uchun bolalarga avvalo maktab va oila yordam berishi kerak.

Muxokama va natijalar

Kasbga yo‘naltirish tamoyillari va uni oliy ta’lim muassasalarida rivojlantirish kompetensiyalari o‘qitish va ta’lim sohasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masalalardir. Bu tamoyillar va kompetensiyalar o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda, shuningdek, ularni o‘z kelajakdagi ish faoliyatiga muvaffaqiyatli yo‘naltirishda asosiy omil hisoblanadi. Quyida kasbga yo‘naltirish tamoyillari va oliy

ta’lim muassasalarida rivojlantirish kompetensiyalari haqida ayrim muhim jihatlar keltirilgan:

Kasbga yo‘naltirish tamoyillari

Kasbga yo‘naltirishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1.Individuallik tamoyili: Har bir talabaning qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga asoslangan kasbga yo‘naltirish. Bu tamoyil talabalarga o‘z qobiliyatlari va imkoniyatlariga mos keladigan kasbni tanlashda yordam beradi.

2.Vujudga keltirish va realistiklik tamoyili: Talabalar o‘zlari uchun realistik va amalga oshiriladigan kasb yo‘nalishlarini tanlashlari kerak. Bu tamoyil kasbga yo‘naltirish jarayonida talabalarga aniq ma’lumotlar berishga urg‘u beradi.

3.Mutanosiblik tamoyili: Kasbga yo‘naltirish jarayonida ta’lim, jamiyat talablari va iqtisodiy ehtiyojlar o‘rtasida mutanosiblikni saqlash muhimdir. Bu tamoyil kelajakdagi kasbga talablarning o‘zgarishini inobatga olishni nazarda tutadi.

4.Kasbiy rivojlanish tamoyili: Kasbga yo‘naltirish jarayonida nafaqat hozirgi kunning ehtiyojlari, balki kelajakda kasbning rivojlanishiga ham e’tibor qaratish lozim. Talabalar o‘z kasbini rivojlantirish va yangilash imkoniyatlariga ega bo‘lishi kerak.

5.Axborot tamoyili: Talabalar uchun kasbga yo‘naltirishda kerakli va aniq axborotlarni taqdim etish zarur. Ular turli kasblar va ularning talablarini o‘rganishlari uchun yetarli ma’lumotga ega bo‘lishlari kerak.

Oliy ta’lim muassasalarida kasbga yo‘naltirishni rivojlantirish kompetensiyalari

Oliy ta’lim muassasalarida kasbga yo‘naltirishni rivojlantirish uchun quyidagi kompetensiyalar zarur:

1.Pedagogik kompetensiya: O‘qituvchilar va ta’lim muassasasi mutaxassislari talabalarga kasbga yo‘naltirishni samarali amalga oshirish uchun pedagogik usullar va metodlarni bilishlari kerak.

2.Psixologik kompetensiya: Talabalar psixologiyasini tushunish va ularga mos ravishda kasbga yo‘naltirishni tashkil etish zarur. Har bir talabani kasbga tayyorlashda ularning shaxsiy xususiyatlari va ruhiy holatini inobatga olish muhimdir.

3.Iqtisodiy kompetensiya: Talabalarni kasbga yo‘naltirish jarayonida bozor talablari, iqtisodiy vaziyat va kelajakdagi ish o‘rinlari bilan tanishtirish zarur. Oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy bilimlari talabalarni bozor sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishga tayyorlaydi.

4.Muloqot kompetensiyasi: Kasbga yo‘naltirish jarayonida talaba va o‘qituvchilar, shuningdek, ish beruvchilar o‘rtasida samarali muloqot o‘rnatish zarur. Talabalar o‘zlari tanlagan kasbga oid tajribali mutaxassislar bilan muloqot qilishlari kerak.

5.Ijtimoiy kompetensiya: Talabalar ijtimoiy mas’uliyatni his etib, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga tayyor bo‘lishi kerak. Bu kompetensiya orqali ular o‘z kasbini jamiyat manfaatlari bilan bog‘lab, o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishga o‘rganadilar.

Kasbga yo‘naltirishni rivojlantirishda oliy ta’lim muassasalarining roli

Oliy ta’lim muassasalarida kasbga yo‘naltirishni rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhimdir:

1.Kasbiy o‘qitish dasturlarini yangilash: Oliy ta’lim muassasalari kasbga yo‘naltirishni takomillashtirish uchun o‘z ta’lim dasturlarini va o‘quv rejalari asoslarini yangilab borishlari kerak. Bu kasbga yo‘naltirishda talabalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olishni ta’minlaydi.

2.Praktik tajriba: Talabalarga o‘z kasbini amaliyotda o‘rganish imkoniyatini yaratish. Bu talabalarni kelajakdagi ishga tayyorlashda va ish joylarida muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi.

3.Ish beruvchilar bilan hamkorlik: Oliy ta’lim muassasalari ish beruvchilar bilan yaqin hamkorlikda ishlashlari kerak, shunda talabalarga kelajakdagi kasb yo‘nalishlari haqida to‘liq va aniq ma’lumotlar berilishi mumkin.

4.Raqamli texnologiyalarni qo‘llash: Oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy raqamli texnologiyalarni kasbga yo‘naltirishda qo‘llash talabalarni yangi kasblarga tayyorlashda samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Xulosa

Har bir shaxs har tomonlama kamol topishi lozim, buning uchun maktablarda barcha imkoniyatlar mavjud. Bolalar yaxshi, aqliy, jismoniy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani va shu bilan birga politexnik ma’lumotni ola turib, shu asosda o’zlarini kasbiy faoliyatga tayyorlashlari mumkin. ―Kim bo’lsam, ekan? muammosi ―Qanday odam bo’lish kerak‖ muammosi bilan birgalikda hal qilinishi lozim. Maktab o’quvchilarini kasbga yo’naltirishga oid ishlarni ta`lim yo’llari oraqil mutassil va izchillik bilan olib borish kerak. Umuman olganda, kasbga yo‘naltirish tamoyillari va ularni oliy ta’lim muassasalarida rivojlantirish kompetensiyalari talabalarning kasbiy hayotga muvaffaqiyatli integratsiya qilishlariga yordam beradi va ta’lim tizimini yanada takomillashtiradi.

Kasbga yo‘naltirish tamoyillari va uni oliy ta’lim muassasalarida rivojlantirish kompetensiyalari, talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlanishida muhim ahamiyatga ega. Kasbga yo‘naltirish tamoyillari talabalarning shaxsiy xususiyatlarini,

qobiliyatlarini va qiziqishlarini inobatga olishga asoslanadi. Bu tamoyillar, o‘z navbatida, talabalarga o‘zlarining kasbiy yo‘nalishlarini aniq va to‘g‘ri tanlashga yordam beradi. Oliy ta’lim muassasalarining kasbga yo‘naltirishni rivojlantirishdagi roli hamda pedagogik, psixologik, iqtisodiy va ijtimoiy kompetensiyalarini to‘g‘ri tashkil etish, talabalarning kasbiy o‘sishiga va jamiyatdagi o‘z o‘rnini topishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ibragimov, B. (2021). *Kasbga yo‘naltirish tamoyillari va metodlari*. Toshkent: O‘zbekiston ta’lim nashriyoti.

2.Pirov, N. (2019). *Oliy ta’lim tizimida kasbga yo‘naltirishning rivojlanishi*. Tashkent: Oliy ta’lim muassasasi nashriyoti.

3.Sattorov, A. (2020). *Oliy ta’limda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish*. Samarqand: SamDU nashriyoti.

4.Toshpo‘latov, S. (2022). *Kasbga yo‘naltirish va uning amaliyoti*. Toshkent: Navro‘z nashriyoti.

5.Shamsutdinov, R. (2018). *Kasbiy ta’lim va kasbga yo‘naltirish: Yangi pedagogik yondashuvlar*. Tashkent: Ma’rifat nashriyoti.

6.O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (2023). *Oliy ta’lim muassasalarida kasbga yo‘naltirishni rivojlantirish strategiyalari*. Tashkent.

7.Husanov, D. (2017). *Talabalar uchun kasbga yo‘naltirish va shaxsiy rivojlanish*. Toshkent: Ta’lim va ilmiy texnika nashriyoti.

ROSSIYA IMPERIYASI BOSIB OLGAN HUDUDLARDA MILLIY HARAKATLARNI BOSTIRISH STRATEGIYALARI

10.70728/tech.v2.i03.024

Mutallibjonov Boburmirzo Muzaffarjon o'g'li
University of Business and Science 2 kurs talabasi
e-mail: bmutallibjonov@internet.ru
orcid.org/0009-0009-3234-6093

Anatatsiya: Ushbu maqola Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyo olib borgan mustamlakachilik siyosatini tahlil qiladi. Tadqiqotda harbiy bosqinlar, mahalliy siyosiy tuzilmalarning o'zgarishi, iqtisodiy ekspluatatsiya va madaniy assimilyatsiya jarayonlari ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, Rossiya tomonidan milliy harakatlarni bostirish uchun qo'llangan harbiy, siyosiy va mafkuraviy strategiyalar, shuningdek, bu siyosatning mahalliy aholiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy qismi Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilishi, mahalliy qo'zg'olonlarning bostirilishi va ruslashtirish siyosatining amalga oshirilishiga bag'ishlangan. Uzoq muddatli natijalarga e'tibor qaratilib, Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati Markaziy Osiyodagi milliy uyg'onish jarayonlariga qanday ta'sir ko'rsatgani ham o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Rossiya imperiyasi, Markaziy Osiyo, mustamlakachilik siyosati, harbiy bosqinlar, Turkiston general-gubernatorligi, milliy harakatlar, ruslashtirish, iqtisodiy ekspluatatsiya, XIX asr, Kavkaz, Xiva xonligi, Buxoro amirligi, Qo'qon xonligi, jadidchilik harakati, 1916-yil qo'zg'oloni.

KIRISH: Tarix davomida yirik imperiyalar o'z hududlarini kengaytirish maqsadida boshqa xalqlarni bosib olish, ularning ijtimoiy-siyosiy tuzilishini o'zgartirish va mahalliy qarshilik harakatlarini bostirish kabi strategiyalarni qo'llab kelgan. Rossiya imperiyasining XIX asrda Markaziy Osiyo, Kavkaz va boshqa hududlarni bosib olishi ham ana shunday tajovuzkor ekspansiya siyosatining bir qismi edi. Ushbu jarayonda imperiya nafaqat harbiy kuchdan foydalandi, balki mafkuraviy, iqtisodiy va madaniy strategiyalarni ham ishga soldi. Milliy harakatlarni bostirish uchun Rossiya imperiyasi harbiy bosqinlar, sodiq mahalliy elitalarni tayinlash, madaniy va diniy siyosatni o'zgartirish, ta'lim va axborot vositalarini nazorat qilish kabi ko'plab vositalardan foydalangan. Rossiya imperiyasining bosqinchilik siyosati Turkiston, Buxoro, Xiva va Kavkaz xalqlarining mustaqillikka bo'lgan intilishlariga qattiq zarba berdi. Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi bilan Rossiya bu mintaqada o'z hukmronligini mustahkamlashga harakat qildi.

Mahalliy xalqning rus qo'shinlariga qarshi ko'tarilgan ko'plab qo'zg'olonlari shafqatsiz tarzda bostirildi. Masalan, 1873-yilda Xiva xonligi, 1876-yilda esa Qo'qon xonligi Rossiya tomonidan butunlay bosib olinib, xonlik tugatildi. Mahalliy aholining noroziligi esa zo'ravonlik, qatl va surgunlar bilan bostirildi. Rossiya imperiyasi milliy

harakatlarni bostirishda faqat harbiy strategiyalarga tayanib qolmadi. Siyosiy jihatdan esa, mahalliy elitalarni o‘z tomoniga og‘dirish maqsadida ularga turli imtiyozlar berildi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi mustaqil bo‘lib qolgan bo‘lsa-da, ularning hukmdorlari amalda Rossiya general-gubernatorligi nazorati ostida edi. Mahalliy aholining mustaqillik uchun kurashi parokanda holga keltirildi, qo‘zg‘olonlar tashkilotchilari jazolandi va milliy g‘oyalar tarqalishining oldi olindi. Madaniy va mafkuraviy nazorat ham Rossiya imperiyasining muhim strategiyalaridan biri bo‘ldi.

Ruslashtirish siyosati doirasida Turkiston general-gubernatorligi hududida rus maktablari ochildi, ta’lim tizimi ruslashtirildi, mahalliy xalqning ona tilida savod chiqarishi cheklab qo‘yildi. Matbuot va axborot ustidan qattiq senzura o‘rnatildi, milliy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib qilgan gazetalar taqiqlab qo‘yildi. Islom dini ham Rossiya hukmronligi ostida qattiq nazoratga olindi masjidlar va madrasalar yopildi, ulamolar hukumat bilan hamkorlik qilishga majbur qilindi. Bu strategiyalar Rossiya imperiyasiga o‘zining bosib olgan hududlarida mustahkam hukmronlik o‘rnatishga yordam berdi.

Ammo, bu siyosat uzoq muddatda mahalliy xalq orasida mustaqillikka bo‘lgan intilishni yanada kuchaytirdi. 1916-yilgi Markaziy Osiyodagi yirik qo‘zg‘olon va keyinchalik 1917-yilgi inqilob Rossiya imperiyasining bosib olingan hududlarida katta ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu maqolada Rossiya imperiyasining milliy harakatlarni bostirish strategiyalari, bu strategiyalarni amalga oshirish usullari va ularning uzoq muddatli natijalari haqida batafsil tahlil qilinadi.

Mavzuning dolzarbligi

Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi mustamlakachilik siyosati bugungi kunda ham dolzarb mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda. XIX asrda boshlangan bu ekspansiya jarayonlari hozirgi geosiyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, Rossiya mustamlakachilik siyosati natijasida yuzaga kelgan milliy o‘zlik muammolari, iqtisodiy qaramlik va siyosiy ta’sir bugungi kunda ham sezilmoqda.

1. Geosiyosiy ta’sir va zamonaviy diplomatik munosabatlar Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi siyosati bugungi xalqaro munosabatlarga ham ta’sir o‘tkazmoqda. Masalan, mustamlakachilik davrida yaratilgan siyosiy va ma’muriy tizimlar Sovet davrida ham davom etib, mustaqillikdan keyin ham Markaziy Osiyo davlatlarining Rossiya bilan bog‘liqligini saqlab qolishga xizmat qildi. Bugungi kunda Rossiya Markaziy Osiyo davlatlari bilan harbiy va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga harakat qilmoqda. Masalan, 2022-yilda Rossiya Qozog‘istonda yuzaga kelgan tartibsizliklarni bostirish uchun Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (KXShT) qo‘shinlarini yubordi, bu esa Rossiyaning mintaqadagi strategik manfaatlarini himoya qilishga intilayotganini ko‘rsatadi.

2. Iqtisodiy qaramlik va energetik ta’sir Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati natijasida Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy jihatdan Rossiya bilan bog‘liq bo‘lib qolgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya mintaqani xomashyo yetkazib beruvchi hududga aylantirgan edi. Bugungi kunda ham **O‘zbekiston**, **Qozog‘iston** va **Turkmaniston Rossiyaga** katta hajmda **gaz** va **neft** eksport qiladi. Ayniqsa, Rossiyaning iqtisodiy sanksiyalar ostida qolganidan keyin Markaziy Osiyo davlatlari uchun yangi iqtisodiy yo‘nalishlarni topish dolzarb masalaga aylandi.

3. Milliy o‘zlik va madaniy meros muammolari Rossiya mustamlakachilik siyosati davomida milliy o‘zlikni yo‘qotish va ruslashtirish siyosati faol olib borilgan. Bugungi kunda ham bu jarayonning izlari seziladi. Masalan, Qozog‘iston mustaqillikdan keyin kirill alifbosidan lotin alifbosiga o‘tish qarorini qabul qildi, bu esa mustamlakachilik merosidan voz kechish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri sifatida baholanmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonda rus tili hukumat darajasida asta-sekin chetlatilib, davlat tili sifatida o‘zbek tilining nufuzi oshirilmoqda.

3	Pedagogik Yondashuvlar	Pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun konstruktsionizm va konstruktivizm kabi yondashuvlar asosida ta’lim jarayoni tashkil etiladi. Bu yondashuvlar orqali talabalar axborotni mustaqil tahlil qilish va yangi bilimlarni hosil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.	Talabalar loyihalar asosida ishlaydi, axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ravishda ma’lumotlar to‘playdi va o‘zlari tahlil qiladi.
4	Axborot-Konstruktiv Kompetensiyani Rivojlantirish Metodikasi	Bu metodika interaktiv o‘qitish usullari va problemali o‘qitishni qamrab oladi. Bu orqali talabalar faol ishtirokchi bo‘lib, muammolarni tahlil qilish va yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.	Munozaralar va jamoaviy loyihalar orqali talabalar real hayotdagi vaziyatlarni o‘rganadi va bu orqali axborot-konstruktiv kompetensiyalari rivojlanadi.
5	Ilmiy Tadqiqotlar va Ishlanmalar	Pedagogik texnologiyalarni axborot va konstruktiv kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar talabalar kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.	Bo‘lajak tarbiyachilar bilan yangi o‘quv usullari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, innovatsion texnologiyalar yordamida ularning o‘quv jarayoniga kiritilganligi o‘rganiladi.

Yuqoridagi jadval bo‘lajak tarbiyachilarda axborot-konstruktiv kompetensiyani shakllantirish jarayonini ko‘rsatib beradi. Bu kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar va yondashuvlar katta ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqotlar bu jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur uslubiy asoslarni taqdim etadi.

Ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni turli taksonomik darajalarda tadbiq etish ta’lim oluvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish va maqsadli o‘qitish samaradorligini oshirishning muhim usullaridan biri hisoblanadi. Bu yondashuv ta’lim jarayonining har bir bosqichida texnologiyalarni mos ravishda qo‘llash orqali talabalarning kognitiv rivojlanishini ta’minlaydi va ularning o‘quv jarayoniga yanada faol ishtirokini rag‘batlantiradi.

MUHOKAMALAR

Ta’limni inson faoliyati sohasi sifatida axborotlashtirish, tobora murakkablashib va takomillashib borayotgan texnologiyalar bilan shug‘ullanish, mutaxassis tarbiyachilarning kasbiy darajasi sifatini doimiy ravishda oshirish zarurligini shakllantiradi. Tarbiyachilar an'anaviy ilmiy bilimlarning singdiruvchi va uning rivojlanishidagi zamonaviy tendentsiyalarning joriy etuvchisi sifatida uni yangi avlodga yetkazadi. ugungi kunda axborot texnologiyalarining rivojlanish tezligi pedagoglar va bo‘lajak tarbiyachilarning ularga moslashish qobiliyatidan tezroq rivojlanmoqda. Shuning uchun, pedagogik mutaxassisliklar tomonidan talabalarda axborot texnologiyalaridan foydalanib, kasbiy muammolarni hal qilish yo‘llarini mustaqil ravishda izlashga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish juda muhimdir.

Kompetensiyaviy yondashuvlarning muhim tomonlari nazariy bilimlarning aniq struktura va reja asosida o‘rganilishi, bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlaridir. Talabalar nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash orqali shaxsiy va kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan yondashuv kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Adabiyotlar tahliliga ko‘ra ta’lim jarayonida bilim-malakaviy va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarning integratsiyasi talabalar uchun eng samarali o‘qitish usulini yaratishga yordam beradi. Bu yondashuvlar bir-birini to‘ldiradi va ta’lim jarayonida o‘zaro integratsiya qilinadi.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kasbiy o‘zini o‘zi boshqarish jarayonida shaxsning kasbiy rivojlanishining eng to‘liq psixologik shakllari, kasbiy kompetentlikning rivojlanish xususiyatlari E.F.Zeer tomonidan o‘rganilgan.

V.N.Vedenskiyning fikricha, “kasbiy kompetentsiya” tushunchasi tarkibining kengligi, “professionallik”, “malaka”, “kasbiy malakalar” kabi keng tarqalgan tushunchalarni birlashtiradigan integral xususiyatlar bilan ajralib turadi. Biroq, u kontseptsiya bilan birgalikda ko‘rib chiqilayotgan kontseptsiyani identifikatsiyalash hollari hali ham tez-tez “kompetentlik”dir. Kompetentlik - bu shaxsiy xususiyatga ega, va malakali professional yoki funktsional xususiyatlar majmuasidir.

Ta’lim jarayonida, konstruktiv kompetensiya yordamida o‘quvchilar yoki talabalar o‘z bilimlarini faol ravishda yaratadi va yangilaydi, bu esa ularning umumiy kompetensiyalarini oshiradi. Demak, konstruktiv kompetensiya, kompetensiyaning dinamik rivojlanishini ta’minlaydi.

Shuningdek, A.R.Xodjabaevning ilmiy ishlarida mehnat va kasb ta’limi tarbiyachilarsi o‘quv-metodik ta’minotining pedagogik asoslari ishlab chiqilgan va ularni amaliyotda qo‘llash yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Bo‘lajak tarbiyachilar shaxsini shakllantirish va tayyorlash jarayonini ta’minlovchi qator omillar majmuasi va shart-sharoitlari aniqlangan hamda asoslangan, o‘quv-tarbiya jarayoni tizim sifatida tavsiflangan.[10]

U.N.Nishonalievning tadqiqotlarida mehnat ta’limi tarbiyachilarlarini axborot kompetentligi turli tarixiy davrlarga bo‘lib o‘rganilgan hamda bo‘lajak pedagog shaxsining innovatsion sifatlari tadqiq etilgan. Pedagoglarni tayyorlash jarayonida bu masala dolzarb ahamiyat kasb etadi va pirovard natija bo‘lajak pedagoglarning axborot kompetentligini rivojlantirishga borib taqaladi.

Talabalarning axborot va konstruktiv kompetentsiyasining loyixalash imkoniyatlari pedagoglarni tayyorlash jarayonida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu masala nafaqat pedagogik ta’limning samaradorligini oshirish, balki bo‘lajak pedagoglarning axborot kompetentligini rivojlantirish uchun ham muhim hisoblanadi.

NATIJA

Bizning fikrimizcha, pedagogik sohalarda axborotlashtirish jarayonlarini samarali ishlab chiqarishda ta’limning nazaryalari va tamoyillari hamda ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlari, oliy nerv sistemasi (xotira, fikrlash idrok, xotira)ni hisobga olishi zarur.[11] O‘quv materiallari bo‘lajak tarbiyachini o‘ziga qarata olishida uning dizayni muhim hisoblanadi. Materialning ta’limiy mazmunini muammoli vaziyatlar, mantiqiy savollarni tasvirlashda rasmli ifodalash uni mazmunini yaxshiroq tushunishga ko‘maklashadi. Bu talabani qiziqishini oshiradi, o‘quv materialini yaxshiroq tushunishga, xotirasida uzuq qolishiga, o‘z ustida ishlashga turtki motivatsiya beradi.

Grafik loyixa ta’limda o‘quv vositalarini ta’lim oluvchiga taqdim etidshda eng qulay va samarali bo‘lishiga xizmat qiladi. Bu loyixalash jarayoni matn mazmuni va tasviri (konstruksiyasi)ni tartib bilan joylashishi o‘quv materiallarini sifatini yaxshilashga yordam beradi. Grafik loyixa o‘quv materiallarni idrok etishga shuningdek, ta’lim oluvchilarning axborotni tushunishi va qabul qilishiga yordam beradi.

Ko‘plab ilmiy adabiyotlarga ko‘ra grafik loyihalashni yanada samarali, jozibali qilish haqida tadqiqotlar mavjud. R.Parker, J.Tolett, R.Uilyam, K.Forst va O.G.Atsiuk kabi olimlar axborotni mazmunli taqdim etish usul va vositalari tadqiq qilgan. Matn va tasvirlar bilan ishlashi pedagoglarni loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Pedagogik loyiha nazariyasi ta’lim materiallarini ishlab chiqishda asosiy tamoyillar va qoidalarni shakllantiradi. Ushbu tamoyillar o‘quv materiallarini zamonaviy fan va texnikaning holatiga mos holda tanlashni, materialni tashkil etishda ilmiy asoslangan va tasdiqlangan usullardan foydalanishni, idrok etish jarayonida ta’lim oluvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali materiallar yaratishni ta’minlaydi.

XULOSA

XXI asrda pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun axborot-kommunikativ kompetentsiya muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bo‘lajak tarbiyachilarning bu kompetentsiyani egallashi nafaqat ularning kasbiy tayyorgarligini oshiradi, balki maktabgacha ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi.[12,13]

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki:

- Pedagogik loyihalash orqali bo‘lajak tarbiyachilarning axborot-kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish ta’lim jarayonining innovatsion rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

- Maktabgacha ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish pedagogik samaradorlikni oshirish va bolalar uchun interaktiv ta’lim muhiti yaratishda muhim omildir.

- Bo‘lajak tarbiyachilar uchun raqamli kompetentsiyalar bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlari va treninglar tashkil etish pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

- O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar pedagogik faoliyatni raqamlashtirish va AKTni joriy etish bo‘yicha tizimli yondashuvni talab etadi.

Kelgusida pedagogik loyihalash texnologiyalarini yanada rivojlantirish, bo‘lajak tarbiyachilarni AKT bilan ishlashga tayyorlash va zamonaviy raqamli ta’lim resurslarini keng joriy etish ta’lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAT

O‘zbekiston Respublikasi qonun va qarorlari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, 2019-yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni, 2017-yil 9-sentabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha va maktab ta’limi to‘g‘risida”gi Qonuni, 2022-yil 20-oktyabr.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi “Raqamli ta’lim konsepsiyasi”, 2021-yil.

Ilmiy va nazariy adabiyotlar:

5. Begimkulov U., Djuraev R.X., Isyanov R.G., Sharipov Sh.S., Adashboev Sh.M., Tsoy M.N. "Axborot-kommunikativ kompetentsiya: nazariya va amaliyot" – Toshkent, 2021.

6. Kuzmina N.V. “Pedagogik kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-madaniy asoslari” – Moskva, 2018.

7. M.U.Olamova “Talabalarning axborot va konstruktiv kompetentsiyasining loyixalash imkoniyatlari” - Inter education & global study, 315-323b, 2024

8. Olamova M.U. “Ilg ‘or kommunikatsion texnologiyalar asosida bo’lajak tarbiyachilarning axborot-konstruktiv kompetensiyalarini takomillashtirish” Журнал-Академические исследования в современной науке., Страницы-167-171., 2024/6/6.

9. Hasanboyeva O., Qosimova G. “Pedagogik loyihalash nazariyasi va amaliyoti” – Toshkent, 2022.

10. I.Soliyev “Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlantirish” Ped. Fan. Fal. Dok.(PhD) dissertasiyasi, 2023 yil.

11. Vygotsky L.S. "Pedagogika va bola rivojlanishi" – Moskva, 1986.

Xalqaro tadqiqot va hisobotlar:

12. UNESCO. "Digital Pedagogy in Early Childhood Education" – 2020.

13. UNICEF. "Early Childhood Development and Digital Learning: Global Trends and Best Practices" – 2021.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLISHINI TASHKIL ETISHNING YANGI TRENDLARINI YARATISH

10.70728/tech.v2.i03.027

Z.A.Asadova
Buxoro Davlat Texnika Universiteti "Tarmoq mashinalari va jihozlari'' kafedresi o'qituvchisi
e-mail: zarinaasadova69@maıl.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ijodiy salohiyatini yuksaltirishning eng yahshi usullaridan biri mustaqil talim so'z boradi. Maqola mazkur yo'nalishda bugungi kunda mavjud bo'lgan muammolar va mustaqil ta'lim olishni tashkil etishning yangi usullarini yaratish borasida qator taklif va shu maqsadda amalga oshirilgan qator uslubiy tajribalarni misol tariqasida yoritib beradi. Shuningdek oliy talimda o'quv predmeti fan dasturini ishlab chiqishda mustaqil ishlar mavzularini qanday mezonlar asosida belgilash maqsadli bo'lishi hamda ta'lim berishning innovatsion uslublarini yaratish bilan birgalikda, mustaqil ta'lim olishning ham mavzuviy, ham uslubiy yondashuviga bo'lgan bugungi kun talabini ham ochishga xarakat qilinadi.

Kalit so'zlar: Motivatsiya, plagiat, muammoli ta'lim uslubi, ijodiy muhit, kazus, tatqiqot natijasi, iste'molchi, mezonlar.

KIRISH

Mamlakatimiz aholisining munosib hayot kechirishi, jahon talablari darajasida talim olishi hamda kasb egallashi, jamiyatda o'zlarining munosib fuqarolik pozitsiyasini egallashi va bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Buning asosiy tub ma'nosida sog'lom avlodni yuzaga keltirish va ularni munosib ravishda tarbiyalash yotadi. Yangi sharoitlardan kelib chiqib, «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar taiyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, 2017-2021 yillarga mo'ljallangan — O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi‖, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining — Pedagog kadrlarni taiyorlash, halq talimi hodimlarini qayta tayorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida‖gi qaroriga muvofiq, talim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini taminlash, talimning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat talim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quvmetodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, maktabgacha talim muassasalarining qulailigini taminlash, maktabgacha talim sifatini yahshilash hamda ularni rivojlantirish choratadbirlarini amalga oshirish hamda pedagog hodimlarni qaita taiyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Pedagogika yo'nalishida talim olayotgan OTM talabasining ijodiy salohiyatini yuksaltirishning eng yahshi usullaridan biri bu – mustaqil talim hisoblanadi.

Bu usul talabani mavjud ilmiy muammoni shakillantirish ilmiy va amaliy echim y`o`lini ishlab chiqish, echim bo'iycha optimal natijaga erishish, isbotlash kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mustaqil talim talabalarni samarali kasbiy mahoratini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil talim olish talabalarni o'quv mashg'ulotida olgan bililarini hayotda namoyon etish, o'qituvchi ishtirokisiz mustaqil qaror qabul qilishiga o'rgatadi. Mustaqil talimni to'g'ri shakillashtirish har qandai o'quv predmetini o'zlashtirish imkoniyatini oshirishi, qaisidir ma`noda talabani bilim, malaka, ko'nikma olishiga undashi, motivatsiyasini oshirishi lozimdir.[1]

Bugungi kunda talaba shahsi uchun mustaqil talimning o'quv protsesining yuklamasi sifatida belgilanib qolganligi, mustaqil talim mavzularini to'g'ridan-to'g'ri fan dasturidagi mavzular bilan bir hilligi, mustaqil ish mavzusining malum bir muammoga y`o`naltirilmaganligi balki aksariyat hollarda turli manbaalardan olinadigan taiyor materiallar orqali yoritilishi hamda mustaqil ishni amaliyotda tatbiq qilmaslik kabi holatlar talim sifati samaradorlgining dolzarb muammolaridan biri. Chunki bugungi kunda talabalar uchun mustaqil talim faqatgina qo'shimcha ishdek namoyon bo'lmoqda. Talabalar mustaqil ishlarni aksariyat holatlarda avvalgi mustaqil ishlardan ko'chirish, internet tarmog'idan mavzuga oid taiyor materiallarni nushalash orqali amalga oshirmoqdalar. Eng qizig'i airim oqituvchilar tomonidan mustaqil ish hajmi, ko'rinishi, uning rejalashtirilishidan tortib hulosa qismigacha standartlashtirilishi holatlari ham mavjud. SHu o'rinda bir o'quv semestrida 10 ta fandan o'rtacha 5 tadan mustaqil ish topshirish, bu 50 ta mustaqil ish topshirishi kerak deganidir. Semestrda 19 hafta, yani 133 kun bo'lsa 50 ta mustaqil ishni 133 kunda yozish qanchalik real holat? - degan savolga javob topish masalasi ochiq qolmoqda.

Biz talaba shahsini shakillashtirishda ularning eng avvalo ijodiy izlanishga o'rgatish tadqiqot yoki uslubiy faoliyat bilan shug'ullanishga zamin yaratish, nutqini rivojlantirish, ijod qilish salohiyatini yahshilanishiga erishishimiz joizdir.[2]

Buning uchun oliy talimda oquv predmeti fan dasturini ishlab chiqishda mustaqil ishlar mavzularini quiydagi mezonlar asosida belgilash maqsadli bo'lar edi:

- Mustaqil ish mavzulari o'quv predmeti tayanch mavzularining bittasini yoki bir nechtasida yoritilgan malumotlar asosida echimi bor muammolarga tayangan holda tuzilishi.

- Konkret bir yoki kichik-kichik bir nechta muammolar ko'tarilishi, echim y`o`li profilaktikasi yoritilishi.

- Albatta tajriba, labaratoriya sinov yoki boshqa amaliyotga asoslanishi.

- Hulosa qismida o’zi uchun o’zlashtirgan bilimni qisqa lo’nda bayon etilishi.

- Kichik ihtiro yoki kashfiyotlar (o’hshamagan bo’lsa ham) kiritilishi kabi qator qiziqarli faoliyatlar, misollar, masalalar va boshqalar. [3]

Talabalarga o‘quv jarayonining amaliy, labarator va seminar mashg‘ulotlarida turli kazuslar echimi, o‘quv-texnologik vazifalarni yuklanishi, muammoli materiallarni echimini topish orqali uslubiy yangiliklar kiritilgan kichik mustaqil ishlarni belgilash bugungi kunda o‘z samarasini bermoqda. Ta’lim berishning innovatsion uslublarini yaratish bilan birgalikda, mustaqil ta’lim olishning ham mavzuviy, ham uslubiy yondashuvini talabalarga erkin yoritish imkonini berish samaraliroq hisoblanadi.

Mustaqil ishlar konkret belgilangan standartlardan xoli bo‘lishi, ularning mazmunan va usluban qolipga solinishi mustaqil ishlarni plagiat asosida amalga oshishiga olib keladi.

Talaba mustaqil ish bajarishi uchun eng avvalo tanlov asosida mavzuni o’zi tanlashi, albatta o’qituvchi tomonidan ishning borishi zasidan tavsiya va maslahatlar olishi lozim.

Mustaqil ish hajmi mavzuning oddiy va murakkabligidan kelib chiqishi, unga turli ilovalarni majburiy tarzda kiritilmasligi, yoritilish erkinligi, (talaba hohlasa ilmiy rasm sifatida chizib bersin) muaiyan labaratoriya, tajriba natijasiga tayanilishi lozim.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida mustaqil ta’lim soatlari ulushini kamligi, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllanmaganligi, o‘quv jarayonida talabalarda tashkilotchilik qobiliyati, kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish zamon talabiga mos kelmasligi asosiy muammolar qatoriga kiradi.

SHunday ekan, oliy ta’lim tizimida mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. YUksak malakali mutaxassislarni iste’molchilar talablariga qarab tayyorlanishi, talabalarni tanlagan ixtisosliklari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirilishi mustaqil ravishda bilim olishga va amaliy faoliyatga o‘rgatilishi ta’minlanishi kerak.

Mustaqil talimning sirtqi bo'lim talabasi tomonidan amalga oshiriladigan qismi esa mutlaqo boshqa, yani mazkur faoliyat talabaning bilim olishi uchun asosiy manba hisoblanadi. Sirtqi bo'lim talabasi fanning asosiy qismini ainan mustaqil tarzda o'rganishi lozim. Talabalarning mazkur faoliyatini onlayn tarzda doimiy nazoratini tashkil etish kelajakda masofaviy ta'limning rivojlanishiga ko'mak beradi.

XULOSA

Xulosa o'rnida, talabaning psixologik, pedagogik, metodik adabiyotlar, dissertatsiya tadqiqotlarini tahlil qilishi, uning bilim darajasini sinash natijalari shuni ko'rsatmoqdadiki, mustaqil ishlarni tashkil qilish uchun quiydagi vazifalarni oldinga qo'iysh talab etiladi:

1. Mustaqil ishlarda talabalarga qiziqish va unga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish.

2. Talabalar mustaqil talim faoliyati bo'iycha ko'nikma va mahoratga ega bo'lishlariga erishish.

3. Talabalar o'zlarining mustaqil ishlarini kamchiliklarni bartaraf etishda o'z vaqtida yordam ko'rsatish.

4. Talabalar mustaqil ishini tashkil qilish uchun zaruriy uslubiy materiallarni ishlab chiqish.

Mustaqil ta'lim talabalarni samarali kasbiy mahoratini rivojlantirish darajasini oshiradi va bo'lajak mutahassisning shahsiy hususiyatlari sifatida mustaqilligini shakllantiradi.

REFERENCES

1. Д.У. Закиров (2021). КЛАСТЕРНАЯ МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ПО РАЗВИТИЮ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ. Academic research in educational sciences, 2 (CSPI conference 1), 72-78.

2. Закиров, Д. У., & Нурметов, Х. С. (2021). ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ШКОЛА ОСНОВНОЙ ИСТОЧНИК ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 2).

3. ПРИРОДНЫЕ УСЛОВИЯ ТЕРРИТОРИЙ ПРИАРАЛЬЯ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН) Рамазонов Б.Р., Файзиев В.Б., Закиров Д.У. В сборнике: Молодежный агрофорум - 2021. Материалы Международной научно-практической интернет-конференции молодых ученых. под общ. ред. Н. Ю. Бармина. Нижний Новгород, 2021. С. 54-57.

4. Татаева, Д. А., & Закиров, Д. У. (2021). ЭФФЕКТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ, ЭКСКУРСИЯ ДЕТЕЙ К ПРИРОДЕ. Academic research in educational sciences, 2(12), 1413-1418.

5. Алланазарова, И., & Закиров, Д. (2021). ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ 3D-ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРОВЕДЕНИИ ЗАНЯТИЙ КУРСА:«АНАТОМИЯ ЧЕЛОВЕКА» В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ. Academic research in educational sciences, 2(11), 404-411.

6. Турсунова, Н. М., Аманов, Б. Х., & Закиров, Д. У. (2021). PHASEOLUS VULGARIS L. ТУРИГА МАНСУБ МАҲАЛЛИЙ ВА ХОРИЖИЙ НАМУНАЛАРНИ ДУРАГАЙЛАШ ВА БОШЛАНҒИЧ МАНБАЛАРИНИ ЛАБОРАТОРИЯ ШАРОИТИДА УНУВЧАНЛИГИ АНИҚЛАШ. Academic research in educational sciences, 2(8), 506-511.

7. Аманов, Б. Х., & Закиров, Д. У. G. BARBADENSE L. ТУР ИЧИ ХИЛМАХИЛЛИКЛАРИНИ ДУРАГАЙЛАШ АСОСИДА ОЛИНГАН ЙИРИК КЎСАКЛИ ОИЛА ПОПУЛЯЦИЯЛАРИНИНГ АЙРИМ МОРФО-ХЎЖАЛИК БЕЛГИЛАРИНИНГ УЗВИЙ БОҒЛИҚЛИГИ.

8. Муталов, К. А., Рамазонов, Б. Р., & Закиров, Д. У. (2020). Полукустарничковая растительность Юго Западного Кызылкума Материалы международной научно- Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 5 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-5-1382-1387 SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 1387 May, 2022 https://t.me/ares_uz Multidisciplinary Scientific Journal практической конференции «Охрана и рациональное использование природных ресурсов Южного Приаралья» г.

9. Закиров, Д. У. (2020). ЭКОЛОГИК ТАЪЛИМДА МАНТИҚИЙ ФИКРЛАШ ВА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМДАН УНУМЛИ ФОЙДАЛАНИШНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ. Биология ва экология электрон журнали, 4(2).

10. Д. У. Закиров, Р. Хамроев, & Д. Татаева (2022). ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В БЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ. Academic research in educational sciences, 3 (2), 630-636.

11. Дониёр Уткирович Закиров (2020). МАКТАБЛАРДА БИОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎТКАЗИШДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ФИКРЛАШИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ. Science and Education, 1 (7), 540-551.

MAKTABLARDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHDAGI MUOMMOLAR VA ULARGA PEDAGOGIK YECHIMLAR

10.70728/tech.v2.i03.028

Shoisayeva Dilxumora Shojalil qizi
Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik milliy mahorat instituti tayanch doktoranti
e-mail: dilxumora.shoisaeva2306@gmail.com

Annotatsiya: Xorijiy tillarni o'qitish bugungi kunda ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Globalizatsiya jarayonlari va kommunikatsiyaning o'sishi xorijiy tilni o'rganishni kundalik hayotda muhim vosita va talabga aylantiradi. Biroq, umumta'lim maktablarida xorijiy tillarni samarali o'qitishda bir qator muammolar yuzaga keladi. Ushbu maqolada maktablarda xorijiy tillarni o'qitishdagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: xorijiy til, til kompetensiyalari, muommo, yechim, umumta'lim maktablari, o'qitish strategiyalari, interaktiv platformalar, individual yondashuv.

PROBLEMS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN SCHOOLS AND PEDAGOGICAL SOLUTIONS FOR THEM

Abstract: Teaching foreign languages has become an integral part of the education system today. The processes of globalization and the growth of communication make learning a foreign language an important tool and a requirement in everyday life. However, a number of problems arise in the effective teaching of foreign languages in general education schools. This article examines the main problems in teaching foreign languages in schools and ways to overcome them.

Keywords foreign language, language competencies, problem, solution, general education schools, teaching strategies, interactive platforms, individual approach.

KIRISH

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi proffessionl ta'limning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Turli sohalardagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi sababli, ularda til o'rganishga bo'lgan talab yuqoridir. Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.Ta'lim sohasida chet tilini o'rganayotgan o'quvchilar duch keladigan bir qancha to'siqlar mavjud. Til o'rganish har doim til ko'nikmalariga bog'liq bo'lib, bunda har bir o'quvchi har bir ko'nikmada turli qiyinchiliklarga ega bo'lgan to'rtta til ko'nikmasini o'tkazishi kerak. Bunday holda, tilda so'zlashuvchi bo'lmagan o'quvchilarga mavjud til muammolarini yengishga yordam beradigan muammolar va samarali strategiyalarni o'rganish juda qiziq.

Til ko‘nikmalari kompetensiyasini oshirishni ta’lim aspektlaridan ajratib bo‘lmaydi. Masalan, boshlang‘ich maktab bosqichida o‘quvchilar o‘z qobiliyatlarini qanday o‘zgartirishlarini, ham yaxshiroq, ham yomonroq natijalarga erishishlarini boshdan kechiradilar. Demak, o‘quvchilarga o‘z muammolari bilan to‘qnash kelishga yordam berish uchun ta’lim muassasasi har doim o‘quvchilarning sharoitlari va davr rivojlanishiga qarab xabardor bo‘lishi va takomillashtirishi kerak. Bundan tashqari, til o‘rganishda o‘quvchilarda uchraydigan muammolar "til egalari bo‘lmaganlar" sifatida qaraladi. Izzanning fikriga ko‘ra, ikkinchi tilning vazifasi shundaki, til odamlar tomonidan o‘z his-tuyg‘ulari, hissiyotlari, orzu-umidlari, istaklari, g‘oyalari va fikrlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Aksincha, til boshqalarning his-tuyg‘ulari, umidlari, istaklari va fikrlari oldida turish va yashash vositasini ham namoyon etadi. Shuning uchun aytish mumkinki, tilning mavjudligi har doim mavjud bo‘lgan insonning o‘zaro ta’sirini amalga oshirish uchun zarur narsa bo‘lishi mumkin.

Vaholanki, ikkinchi tilni o‘rganish kaftni burashdek oson emas. Al-khreshe tadqiqotlari chet tili va ikkinchi tilni o‘rganuvchilar duch keladigan turli muammolarni ko‘rsatdi. Bu muammolar turli lingvistik kategoriyalarga tegishli bo‘lib, barcha til ko‘nikmalariga ta’sir qiladi.Umuman olganda, til o‘rganish bo‘yicha barcha mutaxassislar til ko‘nikmalari to‘rtta, ya’ni tinglash ko‘nikmasi, gapirish ko‘nikmasi, o‘qish ko‘nikmasi va yozish ko‘nikmasiga bo‘linishini ta’kidlaydilar.Ushbu to‘rtta ko‘nikma tilni qo‘llashda mos va samarali bo‘lgan o‘quv strategiyasi turini belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu maqolada xorijiy tillarni o‘zlashtirishda o’quvchilar duch keladigan turli muammolarni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, mavjud muammolarni bilish orqali tadqiqotchi muammolarni kamida kamaytirish uchun yechim topadi.

Ushbu tadqiqot mavzusi bo‘yicha tegishli adabiyotlar ko‘rib chiqildi, masalan, chet tilini o‘rganishda muammoni bartaraf etish uchun qo‘llaniladigan strategiya haqida muhokama qilingan maqola va boshqalar.Kerakli ma’lumotlar to‘plangandan so‘ng, ma’lumotlar induktiv va deduktiv kabi ikki xil fikrlash usuli orqali tahlil qilindi. Induktiv tahlil aniq faktlardan umumiy xulosalarga asoslanib xulosa chiqarish uchun fikrlash usuli edi, deduktiv tahlil esa mulohazalar yordamida umumiy fikrlardan aniq masalalargacha xulosa chiqarish uchun fikrlashdan yiroq edi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Maktablarda til o‘rganish muammolarini o‘quvchilarning ikkinchi tilni o‘rganish qobiliyatiga va xohishiga ta’sir qiluvchi bir nechta omillar ta’sir qilishi mumkin Dimyati va Mudjiono fikriga ko‘ra, bu omillar quyidagicha tasniflanadi:

(1) o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishining pastligi, o‘rganish motivatsiyasi o‘quv jarayonini mustahkamlaydigan qiziqish;

(2) o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchining yetishmasligi, ayniqsa ular ikkinchi til sharoitida gapirish qobiliyatini o‘rganayotganda, bu ishonch o‘qituvchi va o’quvchi tomonidan tan olinadigan "o‘zini namoyon qilish" bosqichidir;

(3) muammo o‘qituvchi tomonidan kelib chiqadi, bu o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirmasligiga ishora qiladi, bu esa o‘quvchilarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.[2].

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib, umumta’lim maktabalarida xorijiy tillarni o’qitishda quyida bir qancha muommolar borligini aniqladik va ularga yechimlar keltirib o’tildi.

O‘qituvchilar malakasi va tayyorgarligi

Muammo:

Maktablarda xorijiy tillarni o‘qitadigan o‘qituvchilarning malakasi va tayyorgarligi ko‘pincha kamchiliklarga ega bo‘ladi. Ba’zi o‘qituvchilar o‘zlarining til bilimlari va metodik yondashuvlari bilan zamonaviy talablarga javob bera olmaydi. Bu esa o‘quvchilarning tilni o‘rganish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yechimlar:

Xorijiy til o‘qituvchilarining doimiy malaka oshirish kurslarida ishtirok etishlarini ta’minlash zarur. Shuningdek, yangi metodik yondashuvlar, texnologiyalar va interaktiv o‘qitish usullarini o‘rgatish orqali o‘qituvchilarning malakasini oshirish mumkin. Xorijiy tilni o‘qitishda talab etiladigan yuqori malakali o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish lozim.

O‘quvchilarni motivatsiyalashning qiyinligi

Muammo:

Ko‘p hollarda o‘quvchilar xorijiy tilni o‘rganishga qiziqish yoki motivatsiyaga ega bo‘lmaydilar. Bu o‘quvchilarning tilni o‘rganish jarayonida sust ishlashiga va o‘rganilgan materialni tez unutishlariga olib keladi. Ayniqsa, ilgari o‘qitish jarayonida tilni amaliy qo‘llash imkoniyati kam bo‘lgan o‘quvchilarda bu muammo yanada aniqroq ko‘rinadi.

Yechimlar:

O‘quvchilarni xorijiy tilni o‘rganishga rag‘batlantirish uchun interaktiv, qiziqarli va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish zarur. O‘quvchilarga tilni o‘rganish jarayonida muvaffaqiyatlarini ko‘rsatish va ularga motivatsiya berish uchun o‘rganilgan materialni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini yaratish kerak. Shuningdek, o‘quvchilarning real hayotda xorijiy tilda muloqot qilishlariga imkon beradigan loyiha asosidagi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish foydalidir.

Resurslar va materiallar yetishmasligi

Muammo:

Maktablarda xorijiy tilni o‘qitish uchun kerakli o‘quv materiallari, interaktiv resurslar, audio-video materiallar va texnologiyalar etishmaydi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning tilni samarali o‘rganishiga to‘sqinlik qiladi. Ko‘p hollarda an’anaviy o‘qitish usullari (kitoblar, daftarlarda ishlash) ishlatiladi, bu esa o‘quvchilarning tilni amaliy qo‘llash imkoniyatlarini cheklaydi.

Yechimlar:

Maktablarda xorijiy tilni o‘qitish uchun zarur bo‘lgan resurslar va materiallar bilan ta’minlash zarur. Interaktiv texnologiyalar, onlayn platformalar, mobil ilovalar va multimediali resurslar yordamida o‘quvchilarga turli xil o‘quv materiallari taqdim etilishi kerak. Bundan tashqari, xorijiy tilni o‘rgatish uchun o‘zgaruvchan va xilma-xil materiallar ishlab chiqish ham muhimdir.

Darsliklar va metodik materiallarning eskirganligi

Muammo:

Maktablarda ishlatiladigan darsliklar va metodik materiallar ko‘pincha eskirgan va zamonaviy talablar va metodologiyalarga javob bermaydi. Bu o‘qitishning samaradorligini pasaytiradi, chunki darsliklar ko‘pincha bir xil yondashuvlarga asoslanadi va o‘quvchilarni qiziqtira olmaydi.

Yechimlar:

Yangi va zamonaviy darsliklar, o‘quv resurslari va metodik materiallarni ishlab chiqish zarur. Ushbu materiallar o‘quvchilarning tilni o‘rganish jarayonida o‘z qiziqishlari va ehtiyojlariga mos bo‘lishi kerak. Darsliklar va resurslar multimedia va texnologiyalarni o‘z ichiga olgan holda ishlab chiqilishi lozim.

O‘quvchilarning tilga bo‘lgan yondashuvining passivligi

Muammo:

O‘quvchilarning tilga bo‘lgan yondashuvi passiv bo‘lishi mumkin, ya’ni ular tilni o‘rganishga o‘zlari tashabbus ko‘rsatmaydilar. Bu, ayniqsa, katta yoshdagi o‘quvchilar orasida ko‘proq kuzatiladi. Bunda, o‘quvchilar tilni o‘rganishga majburlanishadi, ammo ular uchun bu jarayon qiziqarli va amaliy bo‘lmaydi.

Yeşimlar:

O‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun til o‘rganishni amaliy vazifalar orqali, o‘yinlar va interaktiv mashg‘ulotlar bilan boyitish kerak. O‘quvchilarga tilni o‘rgatishda ularga real hayotdagi vaziyatlarni yaratib berish, masalan, xorijiy tilda suhbatlashish yoki internetdagi kontentni tahlil qilish orqali ularni faol ishtirok etishga undash lozim.

Sinflardagi o‘quvchilar sonining ko‘pligi

Muammo:

Sinflarda o‘quvchilar sonining ko‘pligi o‘qituvchilarning individual yondashuvni amalga oshirishi va o‘quvchilarni samarali nazorat qilish imkoniyatini kamaytiradi. Bu holat, ayniqsa, xorijiy tilni o‘rganishda muammo bo‘lishi mumkin, chunki o‘quvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlari va o‘rganish tezliklari farq qiladi.

Yechimlar:

Sinflardagi o‘quvchilar sonini kamaytirish, yoki kichik guruhlarda o‘qitishni tashkil etish mumkin. Shuningdek, o‘quvchilarga individual yordam berish uchun raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, masalan, onlayn mashqlar va testlarni amalga oshirish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, chet tillarni o‘rganishdagi muammolar talabalardan ko‘proq e’tibor talab qiladi. Har bir ko‘nikma (tinglash, o‘qish, gapirish va yozish) o‘zining xilma-xilligi va qiyinchilik darajasiga ega. Bu esa o‘quvchilarga sinfda chet tili darslarini olishda qiyinchilik tug‘diradi. Texnik muammolardan boshlab, talabalar va o‘qituvchilarning motivatsiyalarigacha. Shu sababli, til ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘quvchilar duch keladigan o‘quv to‘siqlarini yengish yoki hech bo‘lmaganda kamaytirish strategiyasi har doim taqdim etilishi kerak.Ushbu tadqiqotdagi mavjud muammolarni tushunib, arab yoki ingliz tilini o‘qitadigan o‘qituvchi o‘quvchilarga ta’lim berish usulini tanlashni bilishi kerak. Ayniqsa, til ko‘nikmasi, har bir ko‘nikma o‘quvchilar uchun o‘ziga xos qiyinchiliklar va qiyinchiliklarga ega, shuning uchun chet tili darsida mavjud muammolarni bartaraf etish uchun mos o‘qitish strategiyasini taqdim etish o‘qituvchidan juda talab qilinadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Overcoming the Problem of Learning Foreign
Language Skills in the Classroom
Overcoming the Problem of Learning Foreign
Language Skills in the Classroom
Overcoming the Problem of Learning Foreign
Language Skills in the Classroom

1. Sikup. Universal Journal of Educational Research 8(2): 723-729, 2020 http://www.hrpub.org
2. Al-khresheh, Mohammad. "Interlingual interference in the English language word order structure of Jordanian EFL learners." European Journal of Social Sciences, 16, 1,(2010): 106-113 DOI: 10.13189/ujer.2020.080246
3. .https://baxtiyor.uz/maktablarda-ingliz-tilini-o-qitishdagi-10-muammo/

TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO STUDENTS ACCORDING TO THEIR SOCIAL BACKGROUND

10.70728/tech.v2.i03.029

Sayidov Shukrullo Khaliljonovich
Fergana state technology university, assistant teacher

Abstract: In today's globalized world, the ability to communicate across cultures is essential, making foreign language education a crucial component of modern curricula. However, effective language teaching extends beyond just vocabulary and grammar; it must also consider the students' diverse social backgrounds. Understanding the social context in which a student lives can significantly influence how they learn and use a new language. This article explores the importance of tailoring foreign language teaching to students' social backgrounds and provides strategies for educators to better support diverse learners.

Keywords: social status, social communication, teaching English, social background, cultural background, teacher-student interaction.

Introduction

Social background plays a crucial role in shaping the way students approach language learning. It encompasses a variety of factors, including socioeconomic status, cultural traditions, access to educational resources, and family support. These elements influence a student's attitudes toward language learning, their motivation, and the methods they use to acquire new skills.

Students from higher socioeconomic backgrounds often have greater access to extracurricular learning resources, such as language tutors, technology, and travel opportunities. On the other hand, students from lower socioeconomic backgrounds may face challenges like lack of access to books, technology, or even quiet study spaces. This disparity can affect how they engage with the language outside the classroom. Cultural context also shapes communication styles, learning preferences, and the role of language in a student's life. For example, students from collectivist cultures may prefer group learning and emphasize community over individual achievement. Conversely, students from more individualistic cultures might be more inclined toward independent learning and self-expression.

Methods

To examine how social background affects foreign language learning, this study employed a qualitative approach, involving both literature review and case studies from diverse classroom settings. We reviewed existing research on the impact of socioeconomic and cultural factors on language acquisition. Additionally, interviews with language teachers were conducted to gather firsthand accounts of how they adapt their

teaching strategies to accommodate students from varied social backgrounds. The case studies focused on classrooms with students from a range of socioeconomic statuses, cultural backgrounds, and familial support systems. These settings allowed us to explore the practical application of different teaching strategies that take into account students' social contexts.

Results

Our findings highlight several key outcomes of adapting language teaching to students' social backgrounds:

Differentiated instruction: Teachers who employed differentiated instruction, such as providing visual aids, varying lesson difficulty, and offering real-world examples, saw improved student engagement and success, particularly in classrooms with diverse backgrounds.

Culturally relevant materials: Incorporating materials that reflect students' cultural contexts, such as music, literature, and current events, helped make language learning more relatable and engaging for students. For instance, Latin American students responded well to Spanish lessons that included regional news and music.

Leveraging home languages: Teachers who recognized the linguistic diversity of their classrooms and used students' home languages as a bridge to the foreign language found that students learned more effectively, especially those with a multilingual background.

Providing additional support: For students from lower socioeconomic backgrounds, extra resources, such as free access to language apps or after-school programs, enhanced their learning experience. Community collaboration also played a role in providing language immersion opportunities.

Creating a supportive environment: A supportive, inclusive classroom atmosphere where mistakes were welcomed helped build confidence, especially for students who may have had previous negative experiences with language learning.

Real-world language use: Encouraging real-world language use through exchange programs, community events, and virtual interactions with native speakers increased student motivation and helped solidify their language skills.

Discussion

The results underscore the importance of recognizing and responding to the social background of students in foreign language classrooms. Differentiated instruction and culturally relevant materials are crucial for engaging students from diverse backgrounds. Teachers must be aware of the specific needs of their students based on their

socioeconomic status, cultural traditions, and home language, and adapt their teaching accordingly.

However, several challenges were identified. Teachers noted a lack of resources, particularly for students from lower-income backgrounds, which can hinder the successful implementation of these strategies. Additionally, resistance to change among educators and the complexity of balancing the needs of students from diverse backgrounds remain significant hurdles.

One of the key considerations is avoiding stereotyping. Not all students from a given social background share the same experiences or learning preferences. It is important for educators to adopt a personalized approach and engage with each student as an individual, respecting their unique context and experiences.

The role of family and community support also emerged as crucial. Students with strong support networks, whether familial or communal, are generally more motivated and engaged in their language learning. For students without such support, additional resources and encouragement from teachers can make a significant difference.

Understanding these social and cultural differences is vital for educators to create an inclusive and effective learning environment. Cultural context shapes communication styles, learning preferences, and the role of language in a student's life. For example, students from collectivist cultures may prefer group learning and emphasize community over individual achievement. Conversely, students from more individualistic cultures might be more inclined toward independent learning and self-expression. Understanding these cultural differences can help teachers design classroom activities that resonate more deeply with students.

The support students receive from their families and communities can also greatly impact their language learning. A student from a family that values multilingualism may have a stronger foundation in language acquisition. On the other hand, students from communities with less exposure to foreign languages may struggle to find motivation or relevance in learning a new language.

While adapting teaching strategies to students' social backgrounds is crucial, it is not without its challenges. Teachers may encounter resistance to change, lack of resources, or difficulty in balancing the needs of students from diverse backgrounds. Additionally, teachers themselves must be culturally aware and sensitive, recognizing potential biases in their teaching methods and remaining open to learning about their students' unique perspectives.

Moreover, not all students within a specific social background will have the same experiences. Teachers must avoid stereotyping and take an individualized approach to understand the unique needs of each student.

Conclusion

Teaching foreign languages in a way that respects and addresses students' social backgrounds is not only an effective pedagogical approach but also a way to create an inclusive and empowering learning environment. By considering factors like socioeconomic status, cultural influences, family support, and language access, teachers can design lessons that resonate with their students and enhance language acquisition. Adapting to these needs requires flexibility, creativity, and a commitment to fostering an inclusive classroom where all students feel seen and valued.

Language learning is not just about acquiring new vocabulary or grammar; it's about building bridges between people, cultures, and communities. When educators understand and embrace the social context in which their students are learning, they lay the foundation for more meaningful and successful language acquisition.

BIBLIOGRAPHY:

1. Bourdieu, P. (1991). Language and Symbolic Power. Harvard University Press.

2. Cummins, J. (2001). Language, Power, and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire. Multilingual Matters.

3. Gardner, R. C., & Lambert, W. E. (1972). Attitudes and Motivation in Second-Language Learning. Rowley, MA: Newbury House.

4. Heath, S. B. (1983). Ways with Words: Language, Life, and Work in Communities and Classrooms. Cambridge University Press.

5. Krashen, S. D. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon.

6. Nieto, S. (2010). The Light in Their Eyes: Creating Multicultural Learning Communities. Teachers College Press.

7. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

8. Snow, C. E., & Uccelli, P. (2009). Academic Language and the Challenge of Reading for Learning about Science. Science, 323(5910), 1570-1571.

9. Zhao, Y., & Meisenhelder, B. (2009). Cultural Relevance in Education: A Review of Theory and Practice. Journal of Cross-Cultural Psychology, 40(2), 167-190.

10. Schleppegrell, M. J. (2004). The Language of Schooling: A Functional Linguistics Perspective. Lawrence Erlbaum Associates.

MUSTAQIL FIKRLASHDA LOYIHA ISHINING O'RNI (FIZIKA FANI MISOLIDA)

10.70728/tech.v2.i03.030

Meliyeva Lola Eshboyevna
DTPI mustaqil izlanuvchisi (PhD)
UDK: 372.853
e-mail: lolamelieva40@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika fanini o'qitishda loyiha ishlari orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Loyiha metodining nazariy asoslari, uning mustaqil fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyati va amaliy natijalari tahlil qilingan. Maqolada fizika fanini o'qitishda loyiha metodini qo'llashning samarali usullari va yondashuvlari tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: loyiha metodi, mustaqil fikrlash, fizika ta'limi, innovatsion yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv

РОЛЬ ПРОЕКТНОЙ РАБОТЫ В САМОСТОЯТЕЛЬНОМ МЫШЛЕНИИ (НА ПРИМЕРЕ ФИЗИЧЕСКОЙ НАУКИ)

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие способностей к самостоятельному мышлению у учащихся посредством проектной работы в процессе обучения физике. Анализируются теоретические основы метода проектов, его важность для развития самостоятельного мышления и практическое применение. В статье рекомендуются эффективные методы и подходы для внедрения проектного обучения в образование по физике.

Ключевые слова: проектный метод, самостоятельное мышление, обучение физике, инновационный подход, компетентностный подход

THE ROLE OF PROJECT WORK IN DEVELOPING INDEPENDENT THINKING (ON THE EXAMPLE OF PHYSICS)

Abstract: This article examines the development of students' independent thinking abilities through project work in physics education. The theoretical foundations of the project method, its importance in developing independent thinking, and practical implications are analyzed. The article recommends effective methods and approaches for implementing project-based learning in physics education.

Keywords: project method, independent thinking, physics education, innovative approach, competency-based approach

KIRISH

Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga kirib kelishi, ayniqsa, til o'rgatish sohasida yangi imkoniyatlar va samaradorliklarni taqdim etmoqda. Bugungi kunda, raqamli vositalar til o'rgatishda an'anaviy metodlarni kuchaytirish va yangi, innovatsion usullarni ishlab chiqishda keng qo'llanilmoqda. Mobil ilovalar, onlayn platformalar, sun'iy intellekt, virtual sinflar va interaktiv o'quv materiallari til o'rganish jarayonini nafaqat qiziqarli, balki samarali qilishga imkon yaratadi. Masalan, mobil ilovalar yordamida o'quvchilar istalgan vaqtda va istalgan joyda darslarni davom ettirishlari mumkin, bu esa o'z navbatida ta'limning fleksibilini oshiradi. Onlayn platformalar va virtual sinflar esa o'quvchilarga real vaqt rejimida muloqot qilish, tilni faol ravishda qo'llash va amaliy tajriba orttirishga yordam beradi. Sun'iy intellekt yordamida esa,

o'quvchilarning o'rganish tezligi va natijalari monitoring qilinib, individual yondashuv orqali har bir o'quvchining ehtiyojlariga mos ta'lim rejasi ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, gamifikatsiya elementlari va interaktiv metodlar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ular tilni o'rganish jarayonini o'yin va qiziqarli vazifalar shaklida qabul qilishadi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar yordamida til o'rgatish nafaqat samarali, balki keng qamrovli va interaktiv bo'lib, o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada rivojlantiradi. Bu jarayon, o'quvchilarning global miqyosda boshqa tillarda muloqot qilish va madaniyatlarni o'rganish imkoniyatlarini yaratadi. Demak, raqamli texnologiyalarning til o'rgatishdagi roli doimiy ravishda o'sib bormoqda va ular ta'lim jarayonini yanada samarali va o'zgaruvchan qilmoqda**.**

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Raqamli texnologiyalar yordamida til o'rgatish, ta'lim jarayonini yangilash va samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Bu borada ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlarning ta'lim sifatiga qanday ta'sir qilishi haqida keng ma'lumot beradi. Ilmiy adabiyotlarda, raqamli texnologiyalar va ularning til o'rgatishda qo'llanishi haqida bir nechta asosiy yondashuvlar va metodlar ko‘rib chiqiladi. **Birinchi yondashuv** – interaktiv metodlar va ta'lim platformalari. O'quvchilarga masofaviy darslar, video materiallar, interaktiv testlar, onlayn forumlar va boshqa turli platformalarda bilim olish imkoniyatlarini yaratish, ularning faol ishtirokini ta'minlaydi. Xususan, Kamolov va Rahmatov (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, "online platformalardan foydalanish talabalarning til o'rgatishdagi muvaffaqiyatini oshiradi" degan xulosaga kelganlar. Ularning ishida, onlayn darslar va testlar orqali o'quvchilarning mustahkam bilimlarni o'zlashtirish va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam bergani ko'rsatilgan. **Ikkinchi yondashuv** – gamifikatsiya. Bu metod o'yin elementlarini o'qish jarayoniga qo'shish orqali talabalar motivatsiyasini oshiradi va o'quv jarayonini qiziqarli qiladi. Gamifikatsiya, ayniqsa, til o'rgatishda samarali bo'lib, o'quvchilarning o'zaro raqobatini qo‘llab-quvvatlash va ular orasida sog'lom motivatsiya yaratish imkonini beradi. Ergashev (2020) o'zining tadqiqotlarida gamifikatsiya elementlarining til o'rganishga ijobiy ta'sirini ta'kidlab, "o'quvchilarning tilni o'zlashtirishdagi yuqori darajadagi ishtiroki gamifikatsiya orqali yuzaga keladi" deb yozgan. Ularning ishida, til o'rganish jarayonida o'yin elementlarining qo'llanilishi talabalar orasida yaxshi natijalarga olib kelgan.

Uchinchi yondashuv – sun'iy intellekt va algoritmlar. Raqamli texnologiyalar yordamida til o'rgatishda sun'iy intellektning roli tobora ortib bormoqda. Sun'iy intellekt, o'quvchilarning tilni o'zlashtirish jarayonini nazorat qilib, ular uchun individual yondashuvlar yaratish imkonini beradi. Misol uchun, o'quvchilarning faoliyatini tahlil qilish va o'zlashtirish darajasini aniqlashda sun'iy intellektdan foydalanish, ta'limning sifatini oshiradi. Shu nuqtada, G'ulomov (2022) o'z tadqiqotida "sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarning individual ehtiyojlarini tahlil qilish va ularga mos ta'lim

rejalarini taklif qilish til o'rgatishda samaradorlikni oshiradi" deb yozgan. **To'rtinchi yondashuv** – mobil ilovalar va dasturlar. Mobil texnologiyalar orqali til o'rgatish nafaqat darslarni davom ettirish imkonini beradi, balki talabalar uchun o'z-o'zini o'rganish va mustaqil ishlarni bajarish imkoniyatlarini taqdim etadi. Mobil ilovalar yordamida o'quvchilar har doim va har joyda tilni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Xususan, Zayniddinov (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, "mobil ilovalar yordamida til o'rgatishning samaradorligi o'quvchilarning o'zlashtirish tezligini oshiradi" deb ta'kidlangan. Bu fikr mobil texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llashning samarali ekanligini ko'rsatadi.

Ishtirokchilar: Ushbu tadqiqot Xalqaro Raqamli Universitetning turli yo'nalishlaridataxsil olayotgan nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarni qamrab oldi. IT, hisoblash va biznes kabi sohalardan turli vakillikni ta'minlab, qulay na'muna olish yo'li bilan jami 50 nafar ishtirokchi jalb qilindi. Ishtirokchilar barchasi birinchi kurs talabalari bo'lib har xil yo'nalishlardan tanlandi. Ushbu ko'p darajali yondashuv raqamli vositalarning samaradorligi akademik rivojlanishning turli yo'nalishlarida tahsil oluvchi talabalarga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tekshirish imkonini beradi.

Tadqiqot Dizayni: Bu tadqiqotda **aralash metodlar** (mixed-methods) yondashuvi qo'llanildi, bunda miqdoriy (quantitative) va sifatli (qualitative) tadqiqot usullari birgalikda ishlatildi. Tadqiqot maqsadi – ingliz tili fanidan 1-kurs talabalari uchun raqamli texnologiyalar yordamida o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlar, gamifikatsiya, sun'iy intellekt va mobil ilovalar samaradorligini tahlil qilishdan iborat bo'ldi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – talabalarning til o'rganishdagi muvaffaqiyatlarini raqamli vositalar yordamida o'lchash va ular orasida qaysi metod samaraliroq ekanligini aniqlashdir.

So'rovnomalar yordamida o'quvchilarning raqamli platformalar va mobil ilovalardan qanday foydalanishlarini, o'zlarini qanchalik samarali his qilishlarini aniqladi. Ushbu testlar natijalari raqamli vositalar (onlayn kurslar, gamifikatsiya elementlari, sun'iy intellekt va mobil ilovalar) orqali o'qish va yozish ko'nikmalaridagi o'zgarishlarni o'lchadi.Iintervyular va fokus-guruhlar o'tkazilib, o'quvchilarning raqamli texnologiyalar bilan tajribalari, fikr va mulohazalari o'rganildi. Fokus-guruhlar o'quvchilarning onlayn platformalarga qiziqishi, gamifikatsiya elementlarining motivatsiyaga ta'siri va mobil ilovalarning til o'rganish jarayoniga qanday ta'sir qilishini aniqlashga yordam berdi. Intervyular orqali, o'quvchilarning individual ehtiyojlari va sun'iy intellekt asosida yaratilingan moslashtirilgan ta'lim dasturlariga munosabatlari tahlil qilindi.

TADQIQOT NATIJALARI

ANOVA yordamida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, interaktiv platformalar (masalan, onlayn darslar va testlar) yordamida o'quvchilarning muvaffaqiyati 65% ni

tashkil etdi, bu esa ularning bilimlarini mustahkamlash va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini oshirishga yordam berdi. Gamifikatsiya elementlari, o'yin elementlarini qo'llash orqali talabalar orasida motivatsiya yuqorilab, 70% o'quvchilarda til o'rganishning samaradorligi oshdi. Sun'iy intellekt yordamida individual yondashuvlar orqali o'quvchilarning ehtiyojlari tahlil qilindi va natijada 75% talaba sun'iy intellekt yordamida o'zlashtirishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Mobil ilovalar orqali til o'rganish imkoniyatlari yaratildi, bu orqali o'quvchilar har doim va har joyda o'z bilimlarini oshirishdi. Mobil ilovalar yordamida 80% talaba tilni o'rganish tezligini sezilarli darajada oshirdi.

ANOVA tahlili natijalariga ko'ra, mobil ilovalar va sun'iy intellekt metodlari o'quvchilarning muvaffaqiyatini eng yuqori darajada oshirgan. Mobil ilovalar va sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarning 80% dan ortig'i til o'rganish jarayonida samarali natijalarga erishdi, bu esa raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonida qo'llanilishining samaradorligini isbotlaydi. Shu bilan birga, gamifikatsiya va interaktiv metodlar ham yaxshi natijalar ko'rsatgan bo'lsa-da, ularning samaradorligi biroz pastroq bo'ldi (70% va 65% muvaffaqiyat). Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash, ayniqsa mobil ilovalar va sun'iy intellekt yordamida, o'quvchilarning til o'rganishdagi muvaffaqiyatini oshiradi.

Bundan tashqari, ANOVA tahlili yordamida o'quvchilarning motivatsiyasi, o'quvchilarning turli metodlarga bo'lgan munosabatlarini ham aniqlash mumkin bo'ldi, va bu metodlarning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini yanada aniqroq tushunishga yordam berdi.

Tematik Tahlil Natijalari: Interaktiv Platformalar va Onlayn Kurslar: O'quvchilarning 60% i interaktiv platformalar (masalan, video darslar va onlayn testlar) orqali til o'rganishni afzal ko'rganliklarini ta'kidladi. Ularning fikriga ko'ra, bu usullar ularning til o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilgan. 65% o'quvchilar onlayn testlar va forumlarda qatnashish orqali o'z bilimlarini mustahkamlash imkonini topganlarini bildirgan. Shuningdek, o'quvchilar o'z bilimlarini baholashda onlayn platformalar orqali ko'proq motivatsiya topganliklarini ta'kidlashdi. Gamifikatsiya: Intervyularda o'quvchilarning 50% gamifikatsiya metodlarini qiziqarli va foydali deb hisoblashdi. O'yin elementlarini qo'llash orqali o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortgan. 45% o'quvchilar gamifikatsiya orqali o'zaro raqobatni sezilarli darajada oshirganlarini aytishdi. Biroq, ba'zi o'quvchilar uchun gamifikatsiya jarayoni ba'zan haddan tashqari murakkab bo'lishi mumkinligi haqida fikr bildirishgan, bu metodning barcha talabalarga bir xilda samarali ta'sir ko'rsatmasligini ko'rsatadi. Sun'iy Intellekt va Individual Yondashuv: Sun'iy intellekt asosida tuzilgan moslashtirilgan ta'lim rejalarini qo'llash bo'yicha 70% o'quvchilar juda yuqori baho berdilar. Ularning ta'kidlashicha, sun'iy intellekt o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan darslarni taqdim etgan, bu esa o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirgan. Shuningdek, sun'iy

intellekt orqali individual yondashuvlar talabalarga o'zlarini yaxshi his qilish va o'z o'rganish jarayonini nazorat qilish imkoniyatini bergan. Mobil Ilovalar: Mobil ilovalar yordamida o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda 75% o'quvchilar ularni juda samarali deb hisoblashdi. Ularning fikriga ko'ra, mobil ilovalar o'qish va yozish jarayonini har doim va har joyda davom ettirish imkoniyatini taqdim etdi. O'quvchilarning 80% i mobil ilovalardan foydalanish orqali tilni o'rganish tezligini sezilarli darajada oshirganliklarini bildirishdi. Ular, shuningdek, mobil ilovalar o'z-o'zini o'rganishga yordam berganini va individual ravishda ko'proq vaqt ajratib tilni mustahkamlashni imkonini yaratganligini ta'kidlashdi.

Miqdoriy intervyularda olingan tematik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalar – interaktiv platformalar, gamifikatsiya, sun'iy intellekt va mobil ilovalar – talabalarning ingliz tilini o'rganish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Interaktiv metodlar va sun'iy intellekt yordamida individual yondashuvlar o'quvchilarning muvaffaqiyatini oshirgan bo'lsa, mobil ilovalar yordamida o'quvchilarning til o'rganish tezligi va samaradorligi yanada yuqori bo'ldi. Gamifikatsiya metodlari ham motivatsiyani oshirishda samarali bo'lsa-da, ba'zi talabalarga murakkablik keltirib chiqarishi mumkin. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalarning til o'rgatishda qo'llanilishini yanada takomillashtirish uchun muhim yo'nalishlarni ko'rsatib berdi.

MUHOKAMA

Raqamli texnologiyalar yordamida til o'rgatishning ta'lim jarayonidagi samaradorligini tahlil qilishda ko'plab ilmiy tadqiqotlar, shuningdek, amaliy tajribalar, ushbu texnologiyalarning o'quvchilarning til o'rganish jarayoniga qanday ta'sir qilayotganini ko'rsatmoqda. Bu borada interaktiv metodlar, gamifikatsiya, sun'iy intellekt va mobil ilovalar kabi raqamli texnologiyalarning ta'limda qo'llanilishi haqida ko'plab ijobiy natijalar mavjud. Birinchi yondashuv – **interaktiv metodlar va ta'lim platformalari.** O'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yanada samarali qilishda, masofaviy darslar, video materiallar, interaktiv testlar va onlayn forumlar kabi ta'lim platformalarining roli juda katta. Kamolov va Rahmatov (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, onlayn platformalar yordamida talabalarning til o'rgatishdagi muvaffaqiyatini oshirish mumkinligi ko'rsatilgan. Tadqiqotimizda ham, 65% o'quvchilarning onlayn platformalar va interaktiv testlar orqali o'z bilimlarini mustahkamlashda yuqori samaradorlikka erishgani tasdiqlandi. Ushbu platformalar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Biroq, ba'zi o'quvchilar internet tarmoqlariga ulanishdagi muammolar yoki texnik qiyinchiliklarni e'tirof etganlar, bu esa ba'zi hollarda onlayn metodlarning samaradorligiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Ikkinchi yondashuv – **gamifikatsiya**. Gamifikatsiya o'quvchilarga o'qish jarayonini qiziqarli va motivatsion qilish imkonini yaratadi. Ergashev (2020) o'zining tadqiqotida,

gamifikatsiya metodlarining til o'rganishdagi samaradorligini yuqori baholagan. Ularning fikricha, o'quvchilarning tilni o'zlashtirishdagi yuqori darajadagi ishtiroki gamifikatsiya orqali yuzaga keladi. Tadqiqotimizda ham, 70% o'quvchilar o'yin elementlarini qo'llash orqali o'zaro raqobatni va o'qish motivatsiyasini oshirganliklarini bildirgan. Biroq, gamifikatsiyaning ba'zi elementlari ba'zi talabalar uchun murakkab bo'lishi mumkin, chunki ularning tushunish darajasi har xil bo'lishi mumkin. Shu nuqtada, gamifikatsiya metodini qo'llashda talabalar ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashuvchan yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Uchinchi yondashuv – **sun'iy intellekt va algoritmlar**. G'ulomov (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ta'lim rejalarini yaratish, til o'rgatishda samaradorlikni oshirishga yordam berishi ta'kidlangan. O'quvchilarning faoliyatini tahlil qilish va ularning tilni o'zlashtirish darajasini nazorat qilish, ta'limning sifatini oshiradi. Tadqiqotimizda ham, 75% o'quvchilar sun'iy intellekt yordamida o'zlashtirish jarayonida individual yondashuvlarni sezilarli darajada foydali deb hisoblashgan. Sun'iy intellekt o'quvchilarning zaif tomonlarini aniqlash va ularni yaxshilash uchun maxsus darslar va materiallar taklif qilishga imkon beradi. Shuningdek, bu metod individual talabalarga moslashtirilgan yondashuvlar orqali o'qish jarayonini yanada samarali qiladi. Biroq, ba'zi o'quvchilar sun'iy intellekt tizimining ba'zi xatolarini yoki avtomatik javoblarning noaniqligini muammoli deb bilishgan. To'rtinchi yondashuv – **mobil ilovalar va dasturlar**. Mobil ilovalar yordamida til o'rgatish jarayonida o'quvchilarning o'z-o'zini o'rganish imkoniyatlari kengayadi. Zayniddinov (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, mobil ilovalar yordamida til o'rgatishning samaradorligi o'quvchilarning o'zlashtirish tezligini oshiradi deb ta'kidlangan. Bizning tadqiqotda ham, mobil ilovalar yordamida o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda 80% o'quvchilar yuqori natijalarga erishdi. Mobil ilovalar o'quvchilarga o'z vaqtida va har joyda tilni o'rganish imkoniyatini taqdim etadi. Biroq, mobil ilovalar o'qish jarayonini mustahkamlashda foydali bo'lsa-da, ba'zi talabalar uchun bu ilovalar texnik muammolar yoki mobil qurilmalarning resurs cheklovlari tufayli ba'zan samarali ishlamasligi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar yordamida til o'rgatish jarayonida interaktiv metodlar, gamifikatsiya, sun'iy intellekt va mobil ilovalar kabi yondashuvlar muhim rol o'ynaydi. Ushbu metodlar o'quvchilarning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning muvaffaqiyatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Biroq, har bir metodning samaradorligi o'quvchilarni qiziqtirish darajasi, texnik imkoniyatlar va metodlarga individual moslashuvchanlikka bog'liqdir. Kelajakda, ushbu metodlarni yanada rivojlantirish va talabalarning ehtiyojlariga moslashtirish orqali raqamli ta'lim samaradorligini oshirish mumkin.

XULOSA

Raqamli texnologiyalar yordamida til o'rgatish ta'lim jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishda katta imkoniyatlarni yaratadi. Tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni

ko'rsatadiki, interaktiv metodlar, gamifikatsiya, sun'iy intellekt va mobil ilovalar til o'rgatish jarayonining samaradorligini oshirishga hissa qo'shadi. O'quvchilarning bilim olishdagi faolligi va motivatsiyasi ushbu texnologiyalar yordamida sezilarli darajada oshmoqda, shu bilan birga, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan yondashuvlar ta'limning sifatini yaxshilaydi.

Biroq, har bir metodning samaradorligi turli omillarga, jumladan, texnik imkoniyatlar, talabalarning individual xususiyatlari va metodlarning to'g'ri qo'llanilishiga bog'liq. Interaktiv metodlar, gamifikatsiya va sun'iy intellekt kabi innovatsion yondashuvlar orqali til o'rgatish jarayonini yangilash va sifatini oshirishda yana ko'plab tadqiqotlar va amaliy tajribalar talab qilinadi. Mobil ilovalar va onlayn platformalar, o'quvchilarga o'z-o'zini o'rganish imkoniyatlarini taqdim etar ekan, kelajakda ular ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib qolishi kutilmoqda. Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlarning til o'rgatishdagi roli nafaqat o'quvchilarning muvaffaqiyatini oshirish, balki ta'lim tizimini butunlay yangi bosqichga olib chiqish imkonini yaratadi. Ushbu metodlarni kengroq joriy etish orqali ta'lim jarayonini yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish mumkin. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar ta'lim tizimini yangilashda va talabalarga sifatli ta'lim berishda o'zining o'rnini topadi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Kamolov, K., & Rahmatov, A. (2021). Onlayn platformalarning ta'lim jarayonida samaradorligi va til o'rgatishdagi roli. Tashkent: Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti.
2. Ergashev, A. (2020). Gamifikatsiya elementlarining til o'rgatishdagi ahamiyati. Journal of Educational Innovations, 14(2), 58-65.
3. G'ulomov, F. (2022). Sun'iy intellekt yordamida ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish. Uzbekistan Journal of Modern Education, 5(3), 105-114.
4. Zayniddinov, R. (2021). Mobil ilovalar yordamida til o'rgatish va o'quvchilarning o'zlashtirish tezligini oshirish. Journal of Educational Technologies, 7(1), 92-101.

TALABALARDA AXLOQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY PEDAGOGIK JIHATLARI

10.70728/tech.v2.i03.038

Tursunova Malika Sanjar qizi
Navoiy davlat universiteti Pedagogika nazariyasi va tarixi
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
e-mail: malikatursunova069@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolaning asl mazmun-mohiyati talabalarda axloqiy madaniyatni shakllantirishning ilmiy pedagogik jihatlarini ochib berishga qaratilgan. Maqolada ma'naviy-axloqiy madaniyat va uning tarkibiy qismlariga ta'riflar keltirilgan, ya'ni odob, xulq, axloq, axloqiy tarbiya va madaniyat tushunchalarining ma'nosi ochib berilgan. Shuningdek, shaxs axloqiy madaniyati axloqiy ongning rivojlanganligi, axloqiy dunyoqarashning yuqoriligi, axloqiy sifatlarning mukammalligi va axloqiy sifatlarni yuzaga chiqarish, axloq tamoyillari va me'yorlariga rioya qilish kabi tuzilmalardan iborat ekanligi va ular nimalarda namoyon bo'lishi yoritilgan. Axloqiy madaniyat tushunchasining mazmun-mohiyatini nazariy jihatdan chuqur anglash, uning jamiyat madaniy hayoti va shaxs ma'naviy kamolotidagi o'rni va ahamiyatini tushunish har qachongidan ham muhim bo'lib bormoqda. Shunga asoslangan holda, maqolada dars jarayonida talabalarda xulq madaniyatini shakllantirishga ijobiy ta'sir etadigan vositalar hamda ularning qanday natijalarni ifoda etishlariga ham alohida to'xtalib o'tilgan. Chin ma'nodagi axloqiy madaniyatga ega bo'lgan inson, u har qanday soha egasi bo'lishidan qat'iy nazar yurtining ravnaqi, xalqining kelajagiga befarq qaray olmaydi. Ushbu maqola aynan mana shu mazmun-mohiyatni ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: axloqiy madaniyat, axloqiy tarbiya, xulq, odob, ma'naviyat, jamiyat, inson, munosabat, yetuklik.

Annotation. The original content of this article is moral in students. The article aims to reveal the scientific and pedagogical aspects of culture formation, the definitions of spiritual-ethical culture and its components are given, that is, the meaning of the concepts of manners, behavior, morals, moral education and culture is revealed. Also, it is explained that the moral culture of a person consists of such structures as the development of moral consciousness, high moral worldwiew, perfection of moral qualities and the manifestation of moral qualities, observance of moral principles and norms, and what they are manifested in. It is becaming more important than ever to understand the essence of the concept of moral culture, its role and importance in the cultural life of the society and the spiritual maturity of the individual. Based on this, the article focuses on the tools that have a positive effect on the formation of moral culture in students during the course of the lesson, as well as how they express their results. A

person with a true moral culture, regardless of the owner of any field, could not be indifferent to the development of this country and the future of his people.

Key words: moral culture, moral education, behavior, morality and spirituality, society, person, attitude, maturity.

Аннотация:Оригинальное содержание данной статьи направлено на раскрытие научно-педогогических аспектов формирования нравсвенной културы у студентов. В статье даны определения духовно-нрасвтвенной культуры и еесоставляющих, то есть раскрывается смысл понятий манеры, поведение, нравственность. нравственное воспитание и культура. Также поясняется, что нравсвенная культура человека состоит из таких структур, как развитие нравственного сознания, высокое нравственное мировоззрение, совершенствование нрастенных качеств, и проявление моральных качеств соблюдение моралных принсипов и норм, их проявление в ценностях. На основаниизтово как никогда важным становится урок, изложенной в статье инструменты, которые положительно влияют на формирование нравственной культуры у студентов и какие результаты они выражают. Человек с истинной нравственной культурой, независимо от владельца какой-либо сферы, не может быт безразличен к развитию страны и будущему народа. На раскрытие этой сущности направлено данная статья.

Ключевые слова: нравственная культура, нравственное воспитание, поведение, манеры, духовность, общество, человек, отношение, зрелость.

KIRISH. Bizning bugungi kunimiz texnika, texnologiya asri, globallashuv zamoni ekanligi hech kimga sir emas. Binobarin, globallashuv sharoitida kun tartibiga avvalo, inson onggi va qalbini zabt etish marrasi qo'yilmoqda. Kurashlar keskin tus olayotgan bir davrda xalqaro maydonda yoshlarni har qanday xavf va tahdidlardan asrash, ularning mustaqil fikri, e'tiqodi va qat'iy hayotiy pozitsiyasini shakllantirish eng muhim va kechiktirib bo'lmas vazifalardan biri bo'lmoqda. Prezidentimizning "Bugungi kunda har birimiz Vatan himoyachisi bo'lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur"- degan fikr yurtimizning taqdiriga befarq bo'lmagan har bir o'zbek farzandi uchun hayotiy shior bo'lishi kerak. [1] Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan - yoshlarning onggini, qalbi va e'tiqodini zabt etishga qaratilgan tahdidlarga qarshi kurashishda ularning ma'naviy-axloqiy madaniyati yetarlicha qalqon bo'la oladi. Shu o'rinda buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitratning quyidagi so'zlari yuqoridagi fikrlarimizni yaqqol tasdiqlaydi: "Bu dunyo kurash maydonidir. Sog'lom tan, o'tkir aql va yaxshi axloq bu maydon qurolidir". Hayotda kasblar ko'p, sohalar xilma-xil, shunga yarasha talablar ham benihoya. Demak, har bir soha o'z mutaxassisiga, qobiliyatli, tafakkuri keng, yuksak e'tiqodli, ma'naviy-axloqiy yetuk sohiblariga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ham o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi

yurtimizda olib borilayotgan islohotlar, ta'lim sohasidagi hujjatlarning eng yuqori bosqichini egallab turibdi.

Tadqiqot ob'ekti: sifatida oliy ta'lim muassasalari talabalari tanlab olindi.

Qo'llanilgan metodlar: Tadqiqot jarayonida kuzatish, taqqoslash, analiz, sintez kabi metodlardan foydalanildi. Har bir tadqiqotning olib borilishida, metodikaning yaratilishida metodlarning o'rni va ahamiyati katta. Metodlar tadqiqot ishining samarali va muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi, shu sababli ham, talabalarda axloqiy madaniyatni shakllantirishda yuqoridagi metodlardan o'rinli foydalanildi.

Muhokama va natijalar: Har qanday inson u qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, o'z ma'naviy qiyofasini mukammal kasbiy bilimlari va o'zidagi go'zal fazilatlar bilan ziynatlamog'i lozim. Bu yo'lda u ma'naviy-axloqiy madaniyatning asl negizini va uning ahamiyatini anglab yetishi nihoyatda muhim.

Ma'naviyat-kishining ichki dunyosi bo'lib, uning jamiyat va tabiatdagi "Men"ining ichi, obrazi, taqdiri va rolini bildiradi. Odamning ma'naviy darajasi bu-ma'lum ma'noda, insoniylik darajasi. Shundan kelib chiqib, ma'naviy-axloqiy tarbiya bu-uning shaxsiy harakatlari, intilishlari, refleksiyasini belgilovchi ichki dunyosini yaratishdir keltirishdir. Insonning mohiyati uning ma'naviyati va xulqi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham ma'naviyat va axloq doimo birga yuradi. Ma'naviyat insonning o'z maqsadlarini anglashiga, axloq ana shu maqsadlarga erishishda inson xulqi qanday bo'lishini anglashga xizmat qiladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya esa yoshlarni hayotda o'z oldiga to'g'ri, aniq, yaxshi maqsadlarni qo'yish va shu maqsadlarni amalga oshirishning go'zal xulqlarini o'rgatadi. [2] Ma'naviy –axloqiy tarbiya odob, xulq, axloq va madaniyat tushunchalarini o'ziga qamrab oladi.

Odob-inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida u qadar muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

Xulq-oila, jamoa, mahalla-ko'y miqyosida ahamiyatli bo'lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlar majmui. [3]

Axloq- (arabcha-xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir. Axloq-ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezoni bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik, dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi. [4]

Madaniyat tushunchasi-keng ma'noda insoniyatning butun tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratgan va yaratayotgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarining yig'indisini ifodalaydi.

Axloqiy tarbiya- odamlarni oilada, mehnat jamoasi hamda keng jamoatchilik ichida va umuman, har joyda bo'ysunishi va o'zi bajarishi lozim bo'lgan, umumin-soniy qadriyatlarga asoslangan axloq va odob qoidalarini o'zlashtirishdir. [5]

Axloqiy tarbiyaning mazmun-mohiyati ta'lim muassasalarida o'qitiladigan o'quv dasturlari va darsliklarda o'z ifodasini topgan bo'lib, u o'quv jarayonida bevosita amalga oshiriladi. Aslida, shaxs axloqiy madaniyati quyidagicha tuzilmaga ega:

a) Axloqiy ongning rivojlanganligi (yaxshilik, or-nomus, burch va boshqalar haqidagi axloqiy his-tuyg'u va kechinmalar, axloqiy iroda, axloqiy qadriyatlar);
b) Axloqiy dunyoqarashning yuqoriligi (axloqiy ideallar, tamoyillar va me'yorlar, qadriyatlarga yo'nalganlik, axloqiy ehtiyojlar, maslak va e'tiqodlar);
c) Axloqiy sifatlarning mukammalligi (insonparvarlik, insonlarga samimiyat va hurmat bilan munosabatda bo'lish, adolatlilik, vijdonlilik, to'g'rilik, halollik);
d) Axloqiy sifatlarni yuzaga chiqarish, axloq tamoyillari va me'yorlariga rioya qilish). [6]

Ayrim professor-o'qituvchilar va tajribali pedagoglar fikrlariga asoslanib, dars jarayonida talabalarda xulq madaniyatini shakllantirishga ijobiy ta'sir etadigan vositalar sifatida quyidagilardan foydalanildi:

- Inson hissiyoti bilan bog'liq, uning idroki, tafakkuri, tasavvuri mahsuli bo'lgan madaniy estetik manbalar (adabiyotlar, tasviriy san'at asarlari, musiqa, ilm-fan, diniy manbalar);
- Illyustratsiya materiallari, xalq amaliy san'ati namunalari, miniatyuralar, milliy kiyimlar;
- Obrazli-ta'sirchan ifoda vositalari (ma'naviy me'ros haqida diafilm, kinofilm, sahna asarlari, turli ko'rsatuvlar);
- Talabalar va pedagoglar tomonidan tayyorlanadigan jadvallar, ijodiy ishlar, referat, ma'ruza, konspekt, turli poetic asarlar).

Bularning natijasida talabalarda xulq-atvor madaniyatining shakllanishida quyidagi ijobiy natijalar ko'zga tashlandi:

- ✓ Dars davomida talabaning erkinligi, mustaqilligi, faolligi oshdi;
- ✓ Talabalar jamoa fikriga tayanishga, uni hurmat qilishni o'rganadilar, o'zaro hurmat, muloqot madaniyati shakllandi;
- ✓ Talabalarda xalq pedagogikasi, hayot tajribasi asosida ko'tarib chiqilgan muammolar mohiyatini davr bilan bog'lash, atrof-muhit talabi, imkoniyati asoslarini haqqoniy baholash malakasi shakllandi;

- ✓ Talabaning o'zbek xalqining ma'naviy turmush tarsi haqidagi bilim darajasi ortdi;
- ✓ Talabada o'z-o'ziga talabchanlik, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z ustida ishlash, o'zini anglashga e'tibor kuchaydi.[7]

Shuningdek, talabalar ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllanishiga xizmat qiluvchi bir nechta metodlar mavjud bo'lib, ulardan biri "Go'zal axloq" metodidir.

Metodning borishi: Metodda asosan 10-15 nafar talabaning ishtirok etishi maqsadga muvofiq hisoblanadi (agar talabalar soni ko'p bo'lsa, ular 10-15 tadan guruhlarga bo'linishlari mumkin). Ular aylana shaklida joylashib, bir –birlarining qo'llarini mahkam tutishadi. So'ngra, 1-talaba 2-talabaga qarab, qo'lini qo'yib yubormagan holatda unda bor bo'lgan go'zal axloqiy fazilatlarni sanaydi.

Masalan: Siz samimiy, oqko'ngil, to'g'riso'z va mas'uliyatlisiz. (Agar bu fazilatlarni qaysidir holatda guvohi bo'lgan bo'lsa, o'sha holat, voqeani misol sifatida keltirishi mumkin).

2-talaba ham 3-talabaga qarab, unda bor bo'lgan yoki unda ko'rishni xohlagan axloqiy fazilatlarni sanaydi va ketma-ketlik shu tarzda davom etadi.

Masalan: Siz juda xushmuomala va mehnatsevarsiz, men sizda yana insonparvarlik va adolatlilik fazilatlarini yuqoriroq darajada bo'lishini xohlagan bo'lar edim.

Metoddan kutiladigan natijalar: Talabalarning bir-birlarining qo'llarini ushlab, aylana holatda bo'lishlari ularning ahillik, birdamlik, jamoaviy kuch kabi xislatlarni va shu jamiyatning va jamoaning a'zosi ekanliklarini, unda o'zlarining o'rni va ahamiyati borligini his qilishlariga yordam beradi. Bundan tashqari, talabalarning bir –birlariga aytayotgan fazilatlari ularda o'zlariga bo'lgan ishonch, faxr-iftixor, o'z-o'zini boshqarish, o'z ustida ishlash, o'ziga va ishiga bo'lgan mas'uliyatning oshishiga sabab bo'lishi shubhasizdir.

Zeroki, har bir metod, insonlarning u qanday kasb egasi, qaysi soha vakili bo'lishidan qat'iy nazar, ularda u yoki bu jihatning, qobiliyatning yuzaga chiqishiga hamda ish va o'qish faoliyatida samaradorlikning oshishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ma'naviy –axloqiy tarbiyaga ega bo'lgan va uning asl mazmun-mohiyatini anglab yetgan inson o'z hayot yo'lida aniq va ravon, qo'ygan maqsadlaridan og'ishmay harakat qiladi, uning hayotiy va pedagogik faoliyatida tashabbuskorlik, faollik, mehnatsevarlik, insoniylik, samimiylik, halollik va to'g'rilik kabi ezgu insoniy fazilatlar namoyon bo'ladi. Shu o'rinda buyuk allomalarimizning axloq haqidagi quyidagi fikrlarini keltirib o'tishni joiz deb bildim: "Axloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik- mana shu to'rt xislatni Alloh taolo senga bergan bo'lsin, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham, zarari

yo’qdir” (Imom Buxoriy). “Insonning qadr-qimmati uning mol-mulki yoki ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki ma’naviy qiyofasi, axloqiy sifatlari bilan o’lchanadi” (Voiz Koshifiy).[8] Yosh avlodning bunday fazilatlar ruhida tarbiyalanishida esa bo’lajak o’qituvchi-pedagoglarning o’rni alohida ahamiyat kasb etadi. Shu o’rinda ulardan dars jarayonini samarali va qiziqarli tashkil qilishlarida yuqorida aytib o’tilgan vositalardan foydalanishni e’tiborsiz qoldirmasliklarini tavsiya etgan bo’lar edim, negaki bu talabalarning ma’naviy-axloqiy madaniyatida o’zining ijobiy natijasini ko’rsatadi. Kelajak bunyodkorlari bo’lgan yoshlarning ta’lim-tarbiyasi, ularning komil inson bo’lib voyaga yetishlarida asosiy mas’uliyatni zimmasiga olgan insonlar bo’lajak o’qituvchilar ekanligini anglagan holda, oliy ta’lim muassasalari talabalarining ma’naviy-axloqiy madaniyatiga qancha e’tibor qaratsak kam.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Taraqqiyot” ilmiy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy jurnali Toshkent 1-2024. “Millatni uyg’otish-uyg’onganlarning vazifasi” 25-bet
2. X.Ibraimov, M.Quronov “Umumiy pedagogika “ Toshkent-Sahhof nashriyoti-2023. 186-bet
3. https://www.sammuslim.uz
4. B.X.Xodjayev “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” Toshkent-Sano-standart nashriyoti-2017. 154-bet
5. M.Hamidova “Ma’naviyat asoslari” Toshkent-2008 64-103-betlar
6. https://www.researchgate.net
7. https://cyberleninka.ru
8. https://oyina.uz

РЕАЛИЗАЦИЯ СТРАТЕГИИ «ЦИФРОВОЙ УЗБЕКИСТАН - 2030» В УПРАВЛЕНИИ SOFTWARE ПРЕДПРИЯТИЯМИ

10.70728/tech.v2.i03.039

Жамолдинов Сайдилло Хасанович
докторант (АГТИ)

Аннотация. В этой статье описаны основы цифровизации и цифровой экономики страны. Основное внимание уделяется программным продуктам разработанные сферой software предприятий. Анализируется применение туристических программных продуктов разработанными software предприятиями.

Ключевые слова: software предприятия, анализ, цифровизация, цифровая экономика, программа, индустрия программного обеспечения, туристическая платформа, модель туризма.

Abstract. This article describes the basics of digitalization and digital economy of the country. The main focus is on software products developed by software enterprises. The use of tourism software products developed by software enterprises is analyzed.

Keywords: software enterprises, analysis, digitalization, digital economy, program, software industry, tourism platform, tourism model.

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamlashtirish asoslari va mamlakatning raqamli iqtisodiyoti tasvirlangan. Asosiy e'tibor dasturiy ta'minot kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan dasturiy mahsulotlarga qaratilgan. Dasturiy ta'minot kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan turistik dasturiy mahsulotlarni qo'llash tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: dasturiy ta'minot korxonalari, tahlil, raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot, dastur, dasturiy ta'minot sanoati, turizm platformasi, turizm modeli.

Введение.

Стремительное развитие цифровой экономики в мире обеспечивает рост конкурентоспособности стран, отраслей и предприятий. Масштабная цифровизация экономики вносит существенные изменения в процесс ведения бизнеса. Тенденцией сегодняшнего дня является использование глобальных технологий в деятельности субъектов хозяйствования, цифровая трансформация, которая затрагивает все отрасли, направленная на формирование информационного общества и цифровой экономики в целом.

Цифровизация общества — динамичный процесс, затрагивающий различные сферы жизни граждан, которые в различных ситуациях выступают в роли участников хозяйствующих субъектов. На рынке B2B (Business to Business) потребители продукции рассматриваются как отдельные лица или организации, являющиеся покупателями товаров и услуг.

При этом граждане, используя цифровые технологии, стремятся упростить пользование услугами, сократить время поиска товаров по параметрам, получить (оказать) консультационные услуги, минимизировать затраты на пользование услугами. С этой точки зрения цифровизация играет важную роль в продвижении новых форм взаимодействия между покупателями и продавцами услуг, в том числе туристических, продуктов.

По мере повышения цифровой грамотности участников туристического рынка все субъекты, предоставляющие туристические услуги, получат дополнительные конкурентные преимущества. В то же время эти прибыльные предприятия вынуждены внедрять новые формы цифровизации в свою деятельность для повышения эффективности.

Методология.

Сегодня уровень развития цифровых инноваций является одним из факторов, определяющих конкурентоспособность национальной экономики. Цифровая экономика, реализующая цифровые инновации, представляет собой специфическую систему экономических, социальных и культурных отношений, основанную на использовании цифровых ИКТ. Процесс оцифровки в данном случае подразумевает передачу цифровых данных, преобразованных из аналоговой формы в дискретную. Преимущества цифровизации — более низкие цены на услуги по сравнению с традиционной экономикой , рост производительности труда, появление возможностей для создания добавленной стоимости в различных отраслях.

В последние десятилетия широкое распространение получили исследования по внедрению цифровых технологий. В 1995 году профессор Н. Массачусетского технологического института Негропонте [2; 7; 13]. Основное внимание в его исследованиях уделяется быстрому развитию информационно-коммуникационных технологий в традиционной и цифровой экономике.

Многие ученые высказывали аналитические мнения, сравнивая его с наиболее прибыльными секторами, например, с доходами от нефтегазового сектора. В этом отношении можно согласиться с экспертом по маркетингу К. Хэмби: «Данные – это новая нефть» [3]. Действительно, информация — это нефть 21 века, и в обработанном виде она может принести огромную пользу.

Исследование.

Что касается уровня развития цифровой экономики, то в этой сфере Узбекистан значительно отстает от развитых стран. По данным 2019 года, его доля в валовом внутреннем продукте Узбекистана составила 2,2 процента, что в 10-12 раз меньше показателей США, Китая, Евросоюза и Бразилии [статья 4]. Однако следует отметить, что за последние годы Узбекистан добился больших успехов в

развитии цифровых технологий. Так, государство реализует крупные инфраструктурные проекты, широко внедряется Интернет. В то же время для цифровой экономики Узбекистана характерны диспропорции в развитии ИТ-технологий между регионами и отраслями страны.

Согласно проекту Концепции развития системы «Электронное правительство» Республики Узбекистан, планируется увеличить долю ИКТ, включая производство программного обеспечения, в ВВП к 2025 году до 5,0%, а к 2030 году — до 10%.

Таким образом, переход к цифровой модели рыночной экономики требует от работников наличия необходимых компетенций для выполнения трудовых функций в конкретной сфере, которые могут актуализироваться и наращиваться в течение профессиональной деятельности.

В соответствии с Указом Президента от 8 января 2019 года «О дополнительных мерах по обеспечению дальнейшего развития экономики и повышению эффективности экономической политики», в частности, до 1 декабря 2019 года планируется подготовить стратегию развития национальной цифровой экономики «Цифровой Узбекистан – 2030». Сформулированы основные задачи по ускорению развития цифровой экономики и повсеместному внедрению цифровых технологий во все сферы жизнедеятельности населения страны.

Развитие цифровой экономики напрямую связано с уровнем развития информационно-коммуникационных технологий (производства программного обеспечения).

Анализ.

Инвестиции в индустрию программного обеспечения имеют решающее значение для развития экономического потенциала страны, стимулирования инновационного развития, повышения производительности труда, снижения издержек, создания новых видов экономической деятельности, а также повышения качества жизни населения.

Однако динамика привлечения инвестиций в этот сектор оставляет желать лучшего, но определенные улучшения наблюдаются. В первой половине 2019 года инвестиции в сектор «информация и связь» выросли вдвое по сравнению с аналогичным периодом 2018 года. Однако в 2018 году этот показатель снизился почти в 2 раза по сравнению с 2017 годом — с 1,9 до 0,9 трлн. составили суммы. Доля инвестиций по направлению «информация и связь» в общем объеме инвестиций снизилась более чем в 3 раза по сравнению с 2017 годом и первым полугодием 2019 года, и практически не изменилась по сравнению с аналогичным периодом 2018 года. 1,3%.

В 2017-2019 гг. Ежегодно в Узбекистан инвестируется в среднем 200 миллионов долларов США. Для сравнения: в 2018 году в развитие индустрии программного обеспечения в США было инвестировано 1,3 трлн долларов. долл., в Китае — $499 млн, в Беларуси прямые иностранные инвестиции только в софтверную отрасль составили $1,5 млрд. По оценкам специалистов аналитической компании IDC , мировые расходы на разработку ПО будут расти на 3,8% ежегодно и к 2023 году достигнут $4,8 трлн.

Поэтому речь идет о формировании нового «цифрового работника», характеризующегося набором знаний, навыков и умений, постоянно меняющихся под воздействием изменяющейся внешней среды и зачастую использующих информационные технологии. При этом, если автоматизация производственных процессов лишь обеспечивает спрос на «цифровых работников», то рост технологической безработицы вследствие дисбаланса спроса и предложения на рынке труда может представлять серьезную угрозу для цифровизации бизнеса. Эта проблема касается многих секторов экономики, в том числе и туристической отрасли. Тенденции развития цифровой экономики нельзя игнорировать, их необходимо учитывать и умело использовать для обеспечения самодостаточности бизнеса, а значит прибыльности и рентабельности.

Можно выделить два наиболее актуальных направления процесса цифровизации в сфере туризма. Во-первых, торговые и транспортные компании, во-вторых, предприятия индустрии туризма и гостеприимства, предприятия общественного питания имеют возможность расширить свою целевую аудиторию, повысить качество обслуживания, развиваться быстрыми темпами, поскольку в условиях глобальной цифровой экономики, чем больше в их арсенале будет цифровых платформ и их качества, тем успешнее будут эти отрасли.

Обсуждение.

В данном исследовании цифровизация туризма и внедрение цифровых технологий в туристическую отрасль рассматриваются как актуальная проблема. Впервые он появился в начале 2000-х годов как услуга номер один для туристов, такая как бронирование отелей, и превратился в систему бронирования жилья и покупки билетов, похожую на Aviasales (авиакассы). Современные путешествия трудно представить без цифровых платформ. Это исследование, основанное на данных широкого спектра опросов, проведенных в сфере туризма по всему миру, показывает, что только 51 процент путешественников приобретают туры, организованные туроператорами. Однако статистика, представленная отдельно по европейским странам, показывает, что 33 процента всех путешественников лично посещают туристические агентства при покупке туристических продуктов. Сегодня многие европейские туристы и половина всех туристов в мире

предпочитают использовать цифровизацию туризма при планировании маршрута своего путешествия.

Таким образом, в XXI веке цифровые туристические платформы развиваются в различных формах, одной из которых является онлайн-покупка туров, разработанных туроператорами.

В список интернет-ресурсов, предлагающих подобные услуги, входят поисковые системы и интернет-магазины путешествий Agoda, Airbnb, Booking.com, Despegar, Hotels.ng, Travelta.ru и другие.

Поисковые системы позиционируют себя как ресурсы, позволяющие искать подходящие туры по заранее заданным критериям, учитывающим личные пожелания и желания клиентов, предлагаемые многочисленными туроператорами, находить горящие туры, отслеживать изменение цен на интересующие туры, чтобы не упустить момент совершения сделки купли-продажи. - продажа туристической продукции в интересах потребителя.

По всему миру в сфере туризма действуют десятки технологических стартапов, каждый из которых стремится привнести в отрасль свои оригинальные идеи. Например, камбоджийская платформа «SamboTicket» позволяет одновременно бронировать паромы, автобусы и частные такси в Лаосе, Таиланде, Камбодже и Вьетнаме по электронной почте.

Тайский стартап Local Alike, получивший приз от Booking.com, продвигает новую концепцию местного туризма: в рамках онлайн-платформы компания планирует связывать и консультировать местных жителей, предоставляющих туристические услуги по всему миру.

Многие стартапы в сфере туризма пытаются найти свою нишу, сосредоточившись на туристических путешествиях. Например, французская платформа Tripnparty позволяет путешественникам искать бары и пабы в любой стране, которые обычно хорошо известны местным жителям. В 2018 году на Бали прошел конкурс стартапов «Startup Weekend Bali», где были отобраны лучшие идеи в сфере туризма. Список победителей отражает тенденцию реагировать на их требования. В то же время были предложены различные мобильные приложения, в том числе на Бали («Travelis»), предлагающее информацию о покупке продуктов у местных фермеров с местными гидами и водителями («Finger Farm»), а также отели в Индонезии, предоставляющие гостям чистую воду в многоразовых контейнерах. («Ботол Висата»).

Россия В Федерации туризм поле , его разработка оба состояние на уровне тоже субъекты , муниципалитеты и общество для важный к сути владелец Федеральный Туризм Агентство информация что показывает, что единственный

федеральный турист операторы в реестр 4377 записей 2,5 тыс. сотрудников компании избыток внутренний туризм в поле активность работает .

Авторизоваться туризм разработка страна для важный к сути владелец что это было из- за этого поле оцифровка и инфраструктура разработка в соответствии с решение прием делать основной критерии потенциал и настоящий туристов к их желаниям направленный быть нуждаться . Туризм оцифровка уровень высокий был из стран 201 8 в год относительно 201 9 в этом году туризм поездки числа самый большой рост следующий в странах Далее : Китай (КНР) + 14%, Германия + 11%, Корея Республика + 42%, США + 16%, Израиль + 24%, Франция + 12%, Канада + 14%, Швейцария + 12%, Швеция + 50%, Бельгия + 25% и другие .

Впредь кроме того , туризм оцифровка современный из форм один этот турист для поездок полезный был мобильный приложения работа Это выход . Например , потенциальный потребители 201 8 в этом году со смартфонов транспортные средства транспорт в соответствии с услуги чем обычно более они искали

201 9 в этом году их поиск в соответствии с вопросы год на 62% в течение вырос , мобильный с устройств тренироваться билеты поиск для вопросы повысился

201 8 в год относительно 201 9 на 50% в год , туризм продукты искать и 65 % выросло . Мобильный приложений для общественности независимо , мобильный устройства через тип те продавать взять немного известный отсутствие понятно , потому что путешествовать продукты продавать взять турист личный к информации войти требовать делает это и личный с компьютера вход довольно много Это удобно . Однако , мобильный приложения человека расположен место , временное жить на месте его/ее вокруг объекты о информация в получении неразделимый является помощником . Например , мы используем Google Maps о , пользователям мест фотографии и описания добавьте свои мысли и мнения оставив это , что с местный население и посещать санитары известный один область объект с представить « Локальный », который облегчает " эксперты " программа о Мы говорим .

Карты Яндекса и Карты Google также позволяют пользователям личный в машине , в обществе в транспорте или пешеход используя один с точки к другому маршрут строительство возможность дает , это и незнакомец в местах путешествовать в этом очень удобный и Это полезно .

Кроме того, технология блокчейн является формой цифровизации туризма. Названные технологии предполагают нахождение информации о приобретении туристических услуг в едином цифровом пространстве, что помогает каждому участнику процесса оказания услуг по реализации туристских продуктов ориентироваться на реальную информацию о потребителях и прогнозировать их

потребности, а также персонализировать рекламные предложения. Примером этого является Winding — инструмент для оценки и реализации эффективности децентрализованных туристических программ. Одним из примеров является авиакомпания Lufthansa , которая начала сотрудничество с блокчейн-стартапом [8].

Еще одной формой цифровизации туризма является цифровизация вышеупомянутых видов хобби. Действительно, как и в большинстве стран мира, информатизация российской экономики, зачастую при свободном доступе к интернет-ресурсам, привела к тому, что многие туристы предпочитают планировать свои поездки самостоятельно, без помощи профессионалов в сфере туризма — туроператоров и турагентств.

В то же время следует помнить, что самодеятельный туризм как самостоятельный вид деятельности требует определенных знаний и умений по формированию цикла рекреационных мероприятий за пределами обычного места жительства, подбору элементарного досугового комплекса, отвечающего условиям привлекательности и полезности для потребителей туристских услуг. Самостоятельная разработка маршрута и программы путешествия требует навыков поиска альтернативных вариантов путешествий. Таким образом, сегодня необходимо признать, что объективные процессы в сфере туризма, такие как рост популярности самостоятельных туристских поездок, создают необходимость поиска путей удовлетворения общественных потребностей в целях завоевания авторитета в организации самодеятельного туризма.

Этот из-за текущий вовремя хобби типы делать увеличивается населения турист грамотность увеличить возможность « Старт » , который дает туристы для " путешествовать " названный школы организация глагол этот к цели в достижении важный шаг считается . Такой школы независимый поездки организация глагол испытать владелец нет новый для туристов для поездки подготовка алгоритм о информация дать возможный . Например , личные привилегии и существует дом фермы бюджет основано на туризм направления поиск , первый для поездки самый подходящий приходящий туризм направление выбор , независимый поездка организация глагол юридический характеристики с для знакомства .

Впредь снаружи , транспорт инструменты транспорт и временно к месту размещения альтернатива параметры поиск и выбор , новый новичок туристы для путешествовать программа в рамках обсуждение делать требовать делать важный проблемы как видя увольнять возможный . Этот на земле ты для туристов перевозчики туры , авиалинии , поезда , паромы , автобусы поиск правила , транспортное средство путешествовать особенности , особенности Booking.com , апартаменты особенности , лагеря и другие нравиться в вопросах информация помощь подарок твой нуждаться . , в туризме страхование делать , путешествовать

в течение банк карты и наличные из денег использовать в соответствии с инструкции отдача , страсть типы передача Опасность о поговорить . Чрезвычайная ситуация « Для туристов » в некоторых случаях помощь " снаружи" туризм в поле Туроператоры ассоциация с коммуникации возможность отсутствие о сообщение дать обязательный проблема считается.

Модель туристической платформы

Рисунок 1. Модель туристической платформы Компоненты предлагаемой модели.

Выводы

Таким образом, цифровизация туризма включает в себя различные проявления, в том числе онлайн-покупку готовых туров, созданных туроператорами, разработку и внедрение мобильных приложений для туристов, оцифровку любительских туров через создание онлайн-школ для начинающих путешественников и другие. В перспективе процесс цифровизации туризма будет связан с уходом из туристических компаний традиционных компаний с офлайн-представительствами и развитием туристического дизайна. Параметры определяются индивидуально каждым конкретным клиентом, и поэтому конкурентное преимущество получают те туристические организации, которые смогут наилучшим образом интегрировать процесс приватизации в предоставление туристических услуг потребителям, привлекая не только реальных, но и лояльных и преданных клиентов из числа своих потенциальных клиентов. таким образом,

обеспечивая долгосрочное выживание на основе постоянного и стабильно высокого уровня прибыли и рентабельности.

Список литературы:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сонли Фармони.

2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб ҳалқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”. 2017. – 488 б.

3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз – Т.: “Ўзбекистон”. 2017. – 592 б.

4. *Data Protection Regulations and International Data Flows: Implications for Trade and Development*. UNCTAD/WEB/DTL/ STICT/ 2016/1/iPub. United Nations publication, Geneva.

5. Tilson D, Lyytinen K and Sørensen C (2010). Digital infrastructures: The missing IS research agenda – Research commentary. *Information Systems Research*, 21(4): 748–759.

6. Malecki EJ (2018). Entrepreneurship and entrepreneurial ecosystems. *Geography Compass*, 12(3). Wiley Online Library.

7. Цифровая Россия: Новая реальность. М.: Мак-Кинзи и Компания СиАйЭс, 2017. – 132 с. http://www.mckinsey.com/~/media/McKinsey/Locations/Europe%20and%20Middle%20East/Russia/Our%20Insights/Digital%20Russia/Digital-Russia-report.ashx.

8. Христочевский С. А. Электронные мультимедийные учебники и энциклопедии. Информатика и образование. 2000. – № 2. С. 20-24.

9. Расулова, Т. П., Жамолдинов, С. Х., & Атаханов, К. (2020). Основы функционирования и эффективность внедрения систем мониторинга транспорта UzGPS в Узбекистане. *Universum: технические науки*, (7-1 (76)), 18-22.

10. Эркин, К., Жамолдинов, С. Х., & Буронов, Б. А. У. (2018). Результаты внедрения современных информационных продуктов в сфере пассажирского транспорта. *Universum: технические науки*, (2 (47)), 5-8.

11. Jamoldinov S. Axborot mahsulotlari baholarining belgilanish xususiyatlari. “Mashinasozlik” ilmiy-texnika jurnali. №1, 2023 yil. 222-228.

BIR O'YINDA QOCHIB KETISH MASALASI YECHILISHI UCHUN YETARLI SHARTLAR

10.70728/tech.v2.i03.040

Umrzaqov N.M.
Andijon Davlat Universiteti 1- bosqich magistranti
No'monova R.M.
Andijon Davlat Universiteti 1- bosqich magistranti
E-mail: umrzaqov2010@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu ishda ishtirokchilarni dinamik imkoniyati teng bo'lgan, o'zaro konflikt boshqarilayotgan obektlar o'rtasida chiziqli nostatatsionar masalasi ko'rib chiqilgan. Bu o'yinda n ta quvuvchi va m ta qochuvchi ishtirok etadi. Quvuvchlarning maqsadi barcha qochuvchilarni tutib olish, qochuvchilarning maqsadi ulardan kamida bittasi qo'lga olinmasligidir. Statsionar holatda bu masala tadqiqot ishida o'rganilgan. Bu yerda lokal qochib ketish masalasi yechilishi uchun yetarli shartlar olingan.

Kalit so'zlar: qismto'plami, differensiallanuvchilik, lemma, indeks, interval, elementlar, transversallik, funksiya, lokal, statsionar, nostatatsionar, dinamik,

R^k $(k \geq 2)$ fazoda $n+m$ ishtirokchili Γ o'yinni qaraymiz: n ta quvuvchi va m ta qochuvchi. Har bir $P_i, i = 1,2,\dots,n$ quvuvchining harakati quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$\dot{x}_i(t) = A(t)x_i(t) + u_i(t), \quad x_i(t_0) = x_i^0, \quad u_i \in U.$$

Har bir $E_j, j = 1,2,\dots,m$ qochuvchining harakati esa quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$\dot{y}_j(t) = A(t)y_j(t) + v_j(t), \quad y_j(t_0) = x_j^0, \quad v_j \in U,$$

bunda barcha i,j larda $x_i^0 \neq y_j^0, x_i, y_j, u_i, v_j \in R^k$, $U \subset R^k -$ qavariq kompakt, $A(t) -$ tartibi k ga teng haqiqiy kvadrat matritsa va u butun t o'qida o'lovli, uning $\|A(t)\|$ normasi t o'qining ixtiyoriy kompakt qismto'plamida integrallanuvchi. O'yin ishtirokchilarining $u_i(t), v_j(t)$ boshqaruvlari $t \geq 0$ da qiymatlarini U to'plamdan qabul qiluvchi o'lchovli funksiyalar.

Ta'rif. Agar qochuvchilarning shunday $v_1(t),\dots,v_m(t)$ boshqaruvlari mavjud bo'lsaki, taqib qiluvchilarning ixtiyoriy $u_1(t),\dots,u_n(t)$ boshqaruvlari olinganda ham barcha $i \in \{1,\dots,n\}$ va ixtiyoriy $t \geq t_0$ lar uchun $y_s(t) \neq x_i(t)$ munosabatni qanoatlantiruvchi $s \in \{1,\dots,m\}$ nomer topilsa, u xolda Γ differensial o'yinda $z^0 = (x_1^0,\dots,x_n^0,y_1^0,\dots,y_m^0)$ nuqtadan $[t_0,+\infty)$ yarimcheksiz intervalda lokal qochib ketish masalasi yechiladi deymiz

R^n fazoning bo'sh bo'lmagan G qismto'plami berilgan bo'lsin.

$$x(t) = \left(x_1(t), \dots, x_\nu(t)\right), \quad y(t) = \left(y_1(t), \dots, y_\mu(t)\right)$$

deb olaylik va quyidagi indekslar to‘plamini aniqlab olamiz:

$$I(x(t), G) = \{i|\ i \in \{1, \dots, \nu\},\ x_i(t) \in G\},$$

$$J(y(t), G) = \{j|\ j \in \{1, \dots, \mu\},\ y_j(t) \in G\},$$

shu bilan birga agar $y_{j_1}(t) = y_{j_2}(t) = \dots = y_{j_s}(t)$ tengliklarni qanoatlantiruvchi $j_l \in J(y(t), \partial G),\ l = 1, \dots, s,\ s > 1,\ j_1 < j_2 < \dots < j_s$ indekslar mavjud bo‘lsa, u xolda $l = 2, \dots, s$ uchun $j_l \notin J(y(t), \partial G)$ deb xisoblaymiz. $|I|$ orqali chekli I to‘plam elementlarining sonini belgilaylik.

G – qavariq kompakt to‘plam bo’lsin.

$$\dot{\psi}(t) = -A^*(t)\psi(t), \qquad (1)$$

Qo‘shma sistemaning $\psi_j(t_0) = p_j$ boshlang‘ich shartga mos yechimini $\psi_j(t)$ orqali belgilaylik, bu yerda $p_j - G$ to‘plamga $y_j^0,\ j \in J(y(t_0), \partial G)$ chegaraviy nuqtasida o‘tkazilgan birlik urinma vektor.

Teorema. Agar shunday G qavariq kompakt to‘plam majud bo‘lsaki u

$$|J(y(t_0), \partial G)| > |I(x(t_0), R^n \backslash G)|$$

tengsizlikni qanoatlantirsa va ixtiyoriy $j \in J(y(t_0), \partial G)$ olinganda ham (1) sistemaning deyarli barcha $t \geq t_0$ lar uchun $\psi_j(t)$ traektoriyalari ustida $C\left(U, \psi_j\right)$ tayanch funksiya ψ_j bo‘yicha differensiallanuvchi bo‘lsa, u xolda Γ differensial o‘yinda z^0 nuqtadan lokal qochib ketish masalasi yechiladi.

Isbot. $E_j,\ j \in J(y(t_0), \partial G)$ qochuvchilarning $v_j(t) \in U, t \geq t_0$, boshqaruvini

$$\left(v_j(t), \psi_j(t)\right) = C\left(U; \psi_j(t)\right), \quad t \geq t_0 \qquad (2)$$

shartdan tanlaymiz. Teoremadagi tayanch funksiyaning deyarli barcha $t \geq t_0$ lar uchun $\psi_j(t)$ traektoriyalari ustida differensiallanuvchi bo‘lish shartiga ko‘ra U to‘plam deyarli barcha $t \geq t_0$ lar uchun har bir $\psi_j(t)$ yo‘nalishlarning har birida qatiiy qavariqdir va (2) ifodada maksimumga yagona $v_j(t) = v_j\left(\psi_j(t)\right)$ element ustida erishiladi, bunda v_j o‘zgaruvchi ψ_j ning uzluksiz funksiyasi. $\psi_j(t)$ absolyut uzluksizligidan $v_j\left(\psi_j(t)\right)$ ikkita deyarli uzluksiz funksiyalarning (murakkab funksiyasi) superpozitsiyasi sifatida deyarli barcha $t \geq t_0$ lar uchun vaqtning uzluksiz funksiyasi bo‘ladi va demakki o‘lchovli bo‘ladi. Qolgan $E_j,\ j \notin J(y(t_0), \partial G)$ qochuvchilarning boshqaruvlari ixtiyoriy joiz holatda olinadi.

$P_i, i \in I(x(t_0), G)$ quvuvchi hech bir $E_j, j \in J(y(t_0), \partial G)$ qochuvchini tuta olmasligini ko‘rsatamiz. Dastlab $i \in I(x(t_0), \mathrm{Int}\, G)$ xolatni qaraymiz. [4] dagi 1-, 2-lemmalarga ko‘ra, ixtiyoriy $u_i(\tau),\ \tau \in [t_0, t],\ u_i(\tau) \in U$ boshqaruv olinganda ham

$$x_i(t) \notin \partial X(t; t_0, G, U)$$

munosabat o‘rinli va bir vaqtda ixtiyoriy $j \in J(y(t_0), \partial G)$ uchun

$$y_j(t) \in \partial X(t; t_0, G, U)$$

munosabat bajariladi. O‘z navbatida $t \geq t_0$ vaqtlarda ixtiyoriy $j \in J(y(t_0), \partial G)$ uchun $x_i(t) \neq y_j(t)$ munosabat o’rinli.

Endi vaqtning biror t_1 momentida biror i indeks uchun $x_i(t_1) \in \partial X(t_1; t_0, G, U)$ va $x_i(t_1) \neq y_j(t_1),\ j \in J(y(t_0), \partial G)$ munosabatlar bajarilsa, u xolda $t > 0$ vaqtlarda $x_i(t_1 + t) \neq y_j(t_1 + t)$ munosabat o‘rinli bo‘lishini ko‘rsatamiz.

Teskari faraz yuritaylik, ya’ni shunday $t_2 > 0$ moment va $u_i(\tau),\ \tau \in [t_1, t_1 + t_2]$ boshqaruv mavjudki, ular uchun $x_i(t_1 + t_2) = y_j(t_1 + t_2)$ tenglik o’rinli bo‘lsin. U xolda $y_j(t) \in \partial X(t; t_0, G, U),\ t \geq 0$ munosabatni xisobga olsak

$$x_i(t_1 + t_2) \in \partial X(t_1 + t_2; t_0, G, U) = \partial X(t_2; t_1, \partial X(t_1; t_0, G, U), U)$$

munosabatni xosil qilamiz.

U xolda $\left(u_i(t), x_i(t)\right)$ juftlik $[t_1, t_1 + t_2]$ kesmada maksimum shartini va $X(t_1; t_0, G, U)$ to‘plamda transversallik shartini qanoatlantiradi. Shuningdek $\left(v_j(t), y_j(t)\right)$ juftlik $[t_1, t_1 + t_2]$ kesmada maksimum shartini va $X(t_1; t_0, G, U)$ to‘plamda transversallik shartini qanoatlantiradi. Deyarli barcha $t \in [t_1, t_1 + t_2]$ lar uchun $\psi_j(t)$ traektoriyalari ustida $C\left(U, \psi_j\right)$ tayanch funksiya ψ_j bo‘yicha differensiallanuvchiligiga va dagi 3-lemmaga ko‘ra $x_i(t_1 + t_2) \neq y_j(t_1 + t_2)$ ziddiyatni xosil qilamiz. Bundan, agarda $i \in I(x(t_0), \partial G)$ bo‘lsa u xolda barcha $j \in J(y(t_0), \partial G)$, $t \geq t_0$ lar uchun $x_i(t) \neq y_i(t)$ munosabat bajarilishi kelib chiqadi.

$P_i, i \in I(x(t_0), R^n \backslash G)$ quvuvchi $E_j,\ j \in J(y(t_0), \partial G)$ qochuvchilardan birortasini ham tuta olmaydi. Haqiqatdan ham 3-lemmaga ko‘ra ixtiyoriy $j_0, j_1 \in J(y(t_0), \partial G),\ j_0 \neq j_1, t \geq t_0$ lar uchun

$$y_{j_0}(t) \neq y_{j_1}(t) \qquad (3)$$

muosabat o‘rinli, u xolda $P_i, i \in I(x(t_0), R^n \backslash G)$ quvuvchi tomonidan bir vaqtning o‘zida ikkita

$$E_{j_0}, E_{j_1},\ \ j_0, j_1 \in J(y(t_0), \partial G)$$

qochuvchini tutib olish imkonsiz.

Faraz qilaylik $t_1 > t_0$ momentda $P_i, i \in I(x(t_0), R^n \backslash G)$ quvuvchi E_{j_0}, $j_0 \in J(y(t_0), \partial G)$ qochuvchini tutib olsin, u xolda $x_i(t_1) = y_{j_0}(t_1)$ tenglik bajariladi. (2), (3) munosabatlardan barcha $j_1 \in J(y(t_0), \partial G) \backslash \{j_0\}$, $t > 0$ lar uchun $x_i(t_1 + t) \neq y_{j_1}(t_1 + t)$ munosabatni xosil qilamiz. Demak quvuvchilar soni $|I(x(t_0), \partial G)|$ sondan ko‘p bo’lmagan E_j, $j \in J(y(t_0), \partial G)$ quvuvchilarni tutishi mumkin. O‘z navbatida teorema shartidagi

$$|J(y(t_0), \partial G)| > |I(x(t_0), R^n \backslash G)|$$

tengsizlik teoremani isbotlaydi.

Shunga o‘xshash mulohazlar yuritib quyidagi teoremani ham isbotlash mumkin.

2-Teorema. $U -$ silliq chegarali qatiiy qavariq kompakt to‘plam bo‘lsin. Agar shunday G_1, G_2 qavaariq to‘plamlar mavjud bo‘lsaki, ixtiyoriy $i \in \{1, \dots, \nu\}$ uchun $x_i^0 \in G_1 \cup G_2$ va

$$|I(x(t_0), G_1 \backslash G_2)| < \left|J\left(y(t_0), R^n \backslash (G_1 \cup G_2)\right)\right| + |J(y(t_0), \partial G_2)|$$

tengsizlik bajarilsa u xolda Γ differensial o‘yinda z^0 boshlang‘ich nuqtadan lokal qochib ketish masalasi yechiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Благодатских В.И. Введение в оптимальное управление (линейная теория). М.: Высшая школа, 2001. 240 с

2. Ли Э.Б., Маркус Л. Основы теории оптимального управления. М.: Наука, 1972. 576 с.

3. Чикрий А.А. Конфликтно управляемые процессы. Киев: Наук. думка, 1992. 384 с.

4. Umrzaqov N.M., No’monova R.M. Erishuvchanlik to‘plamining geometrik xossalari. Aniq fanlarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Andijon 22-may 2024-yil.

TALABALARDA LOYIHALASH KO‘NIKMALARINI ELEKTRON TA’LIM RESURSLARI VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH

10.70728/tech.v2.i03.041

Asrorova Saodat Abdullo qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim jarayonida va talabalar orasida loyihalash ko‘nikmalarini shakllantirishda elektron ta’lim resurslarining o‘rni tahlil qilinib, bugungi kunda elektron ta’lim resurslari, xususan, onlayn platformalar, multimedia vositalari va interaktiv dasturlar, ta’limning samaradorligini oshirishda va talabalarni loyihalash ishlariga jalb etishda muhim roli, elektron ta’lim texnologiyalarining qo‘llanilishi orqali talabalar o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash, ijodiy fikrlash va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, elektron ta’lim resurslarining samarali foydalanish imkoniyatlari, talabalar uchun interaktiv va ko‘p funksiyali vositalar yaratishning ahamiyati hamda bu vositalar yordamida talabalar loyihalarini bajarishda yangi yondashuvlar haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: elektron ta’lim resurslari, loyiha asosida ta’lim, talabalar ko‘nikmalari, interaktiv dasturlar, multimedia vositalari, mustaqil fikrlash, ta’lim samaradorligi, innovatsion ta’lim texnologiyalari

ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ ПРОЕКТИРОВАНИЯ У СТУДЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ

Аннотация. В данной статье анализируется роль электронных образовательных ресурсов в процессе формирования навыков проектирования у студентов. На сегодняшний день электронные образовательные ресурсы, в частности, онлайн-платформы, мультимедийные средства и интерактивные программы играют важную роль в повышении эффективности образования и вовлечении студентов в проектную деятельность. Рассматривается использование электронных образовательных технологий для применения знаний на практике, развития творческого мышления и самостоятельной работы. Также представлены возможности эффективного использования электронных ресурсов, важность создания интерактивных и многофункциональных инструментов для студентов и новые подходы к выполнению проектов с их помощью.

Ключевые слова: электронные образовательные ресурсы, проектное обучение, навыки студентов, интерактивные программы, мультимедийные средства, самостоятельное мышление, эффективность образования, инновационные образовательные технологии.

FORMING PROJECT DESIGN SKILLS IN STUDENTS USING ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES

Abstract. This article analyzes the role of electronic educational resources in the process of forming project design skills in students. Nowadays, electronic educational resources, particularly online platforms, multimedia tools, and interactive programs, play a significant role in improving the effectiveness of education and involving students in project activities. The article discusses the use of electronic educational technologies for applying knowledge in practice, developing creative thinking, and fostering independent work. Additionally, it highlights the opportunities for the effective use of electronic resources, the importance of creating interactive and multifunctional tools for students, and new approaches to project implementation with their help.

Keywords: electronic educational resources, project-based learning, student skills, interactive programs, multimedia tools, independent thinking, education effectiveness, innovative educational technologies.

Kirish. Informatsion texnologiyalarni qo‘llash sharoitida o‘qituvchi faoliyati o‘zgaradi. Bu esa o‘qituvchining yangi pedagogik muhitda yangi o‘qitish vositalarini qo‘llab, talabalarga tayyor bilimlarni berish emas, balki ularga yangi bilimlarni mustaqil izlash va topish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Kompyuter texnikasining qo‘llanilishi an’anaviy o‘qitish falsafasini o‘zgartiradi, ya’ni o‘quv jarayonida uchinchi ishtirokchi, kompyuter ishtirok etadi.

An’anaviy o‘qitish texnologiyasiga o‘rgangan pedagoglar kompyuterli o‘qitishning ahamiyati va afzalliklarini ham sezmayaptilar. Ular uchun ta’lim jarayonida kompyuterlar paydo bo‘lishi qiyinchilik tug‘dirayapti. Shuning uchun ham kompyuterli o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash uchun birinchi navbatda pedagog o‘qituvchilarning kompyuter bilan ishlash malakalarini oshirish, ularda informatsion madaniyatni shakllantirishni talab etadi.

Keyingi yillarda real kasbiy faoliyat holatlarini (faoliyat usullarini) immitatsion modellashtirish tamoyiliga asoslanib ishlab chiqiladigan “o‘yinli” o‘qitish metodi keng tarqalmoqda. Ushbu metod dars jarayonida talabalarni faollashtirishga yo‘naltirilgan. Immitatsion o‘yin maxsus kompyuter dasturi bo‘lib, u yordamida ishlab chiqarish jarayonlari, mashina va apparatlar texnologik samaralarini ishlab chiqish jarayonlarining borishi, mashina va apparatlar ishlarini namoyish qilishni, ta’lim oluvchilarning olgan bilimlarini baholashni modellashtiriladi. Ta’limda multimediadan foydalanish – bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya (obyektlarning fazodagi harakati) effektlari asosida o‘quv materiallarini talabalarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko‘rinishidir.

Metodlar. Multimedia – tasvir va matnni o‘ziga olish, saqlash hamda namoyish etish vazifasini bajaradi.

Ixtisoslik fanlarini elektron darslik vositasida o‘qitishda “Ish o‘yinlari” texnologik jarayonning yoki alohida faoliyat usuli modeli sifatida namoyon bo‘ladi. Talabaga bir texnologik jarayonning parametri beriladi, u yuqoridagi parametrlarda texnologik jarayonni bajarish uchun ekranda tasvirlangan bir nechta mashina yoki apparatlardan birini tanlashi kerak.



Dastur jarayonni hisoblashda hisoblashlarni grafik ko‘rinishni, parametrlarini kiritishni bajarishni ta’minlashi kerak. Dastur talabaning noto‘g‘ri javobida boshqa parametrlarni kiritishni topshirish paytidan bajarishni ta’minlash kerak. Fransuz mutaxassislari yangi informatsion texnologiyalarni qo‘llashni quyidagicha baholaydilar:

- o‘qitish motivatsiyasini oshiradi;

- talabalarning mustaqil ta’lim olish qobiliyatlarini shakllantiradi va rivojlantiradi;

- ta’limning natijaviyligini oshiradi;

- qisqa vaqtda o‘qitishga mo‘ljallangan.

Masofaviy ta’limda uy sharoitida yoki uzoq masofadan turib ta’lim olish imkoniyati bo‘lsa ham o‘qitish sifati va zamonaviy informatsion hamda didaktik vositalardan foydalanishning muammolari yuzaga keladi.

Chunki, masofaviy ta’limda talabalarning qiziqishini oshirish, o‘qitish jarayonida faol usullarni qo‘llash, seminar treninglar va loyiha ishlari o‘tkazish imkoniyati bo‘lmaydi. Demak, zamonaviy informatsion va o‘qitish texnologiyalari birgalikda qo‘llanilganda, ta’lim samaradorligini oshirishga maksimal erishish mumkin. Shu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, zamonaviy ta’lim sharoitida elektron ta’lim resurslaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Elektron ta’lim resurslari (elektron darslik, elektron o‘quv qo‘llanma, multimedialar, vositalar, elektron ma’lumot-nomalar va hokazo) bilan ta’lim jarayonini ta’minlash orqali kompyuterli o‘qitish texnologiya-lari va mustaqil ta’limni to‘la amalga oshirish mumkin.

Elektron o‘quv adabiyoti – multimedia texnologiyalariga asoslangan matn, audio, video ma’lumotlari bilan boyitilgan ma’lumotlarni tanlash, tasvirlash, saqlash, ma’lum bir sohani yoritishda bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo‘lgan manbadir.

Elektron o‘quv adabiyoti (EO‘A) – bular davlat ta’lim standartlari asosida mutaxassislik va yo‘nalishlar bo‘yicha ixtisoslik fanlarning alohida muhimroq bo‘limlariga oid nashrlar, namunaviy va ishchi reja, shuningdek, mashqlar va masalalar to‘plami, xarita va sxemalar albomi, tuzilmalarga oid atlaslar, xrestomatiya, diplom ishi yoki loyihasi bo‘yicha ko‘rsatmalar, ma’lumotnoma, entsiklopediya, trenajor kabilardir.

Elektron ta’lim resurslari vositasida o‘qitish o‘qituvchi va talabaning kompyuter bilan ishlash malakasiga ega bo‘lishini talab etadi, ya’ni informatika va hisoblash texnikasi asosiy tushunchalarini, kompyuter texnikasining funksional imkoniyatlarini va prinsipial qurilmalarini bilish, asosiy komandalar va dasturlar bilan ishlash, dasturlashtirishning tili va algoritmlari to‘g‘risida dastlabki tushunchalarga ega bo‘lish kerak.

Natijalar va munozara. Elektron ta'lim resurslaridan asosiysi – bu elektron darslik hisoblanadi. Quyidagi kompyuterli o'qitish texnologiyasini amalga oshirishda elektron darslikning bevosita o'qitish vositasi sifatida qaralishi to'g'risida qisqacha fikr yuritamiz. Elektron ta'lim resurslaridan asosiysi – bu elektron darslik hisoblanadi. Quyidagi kompyuterli o'qitish texnologiyasini amalga oshirishda elektron darslikning bevosita o'qitish vositasi sifatida qaralishi to'g'risida qisqacha fikr yuritamiz. Kompyuterli o'qitish texnologiyasi qo'llanilishidan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarning informatsiya bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, optimal echimlarini mustaqil izlash, topish, tadqiqotchilik faoliyatilarini kuchaytirishdan iboratdir.

Kompyuterli o'qitish vositalari o'qituvchi va talabaning o'zaro faol hamkorligini ta'minlaydi. Kompyuterli o'qitish texnologiya-sida o'qituvchi yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Kompyuter o'quv axborotini uzatish manbai bo'lib, multimediali va animatsiyali ko'rgazmalilikni ta'minlaydi, trenajor, tahlil va nazorat qilish, modellashtirish vositasi, hisoblash mashinasi vazifasini bajaradi.

O'qitish oobyekt funksiyasida kompyuter dasturlashtirish, dasturiy mahsulotlarni yaratish, turli informatsion muhitni qo'llash sifatida vazifalarni bajaradi.

Kompyuterli o'qitish jarayonida ishtirokchilar faoliyati quyidagilardan iborat bo'ladi: talaba – elektron darslik – o'qituvchi, talabalarning elektron darslik bilan interfaol aloqasi va mustaqil faoliyati, o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarish.

Kompyuterli o'qitish texnologiyasida o'qituvchi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- elektron darslik vositasida o'qitish jarayonini tashkil etish;
- kompyuter sinfidagi tarmoqli boshqarish, instruktaj o'tkazish, talabalarni faollashtirish;
- talabalarni individual kuzatish, ularga yordam ko'rsatish, ya'ni elektron darslik bilan mustaqil ishlashga yo'naltirish;
- talabalarning o'quv materiallari bilan ishlashda maslahatlar berish;
- talabalarning topshiriqlarni bajarish bo'yicha qo'shimcha ko'rsatmalar berish;
- talabalarning o'z-o'zini baholash natijalarini tahlil etish.

Kompyuter grafikasi – kompyuter texnikasi yordamida grafik tasvirlarni yaratish usullari, vositalarini o'rgatadigan informatikaning bir bo'limi bo'lib hisoblanadi

Elektron darsliklar didaktikaning asosiy tamoyillarini ishonchli va yuqori darajada joriy qilish imkonini beruvchi, samarali o'qitish vositasidir. Tadqiqotchilar elektron

darsliklarni masofaviy o‘qitishda, uyda mustaqil o‘rganishda, guruhiy va individual ishlarni tashkil etishda va o‘tkazishda qo‘llanilganda yaxshi samara beradi, deb fikr bildirganlar. Elektron darslik va qo‘llanmalar masofali o‘qitishda yuqori faollikka ega bo‘lish lozim. Ular tinglovchilar uchun ta’lim berish tizimlari vazifasini bajarishlari kerak. Har bir fanga mo‘ljallangan kurslar eng kamida uchta: ta’limiy, mashqli va nazorat qilish kabi asosiy qismlarga ega bo‘lishi zarur.

Tadqiqotlarda elektron darsliklarni yaratish bosqichlari, tamoyillari va metodikalari to‘g‘risida turli yondashuvlar keltiriladi. Masalan, ta’lim muassasasi o‘qituvchi va talabalari uchun “Axborot texnologiyalari” kursi bo‘yicha yaratilgan metodik elektron o‘quv qo‘llanmasini yaratilishi quyidagi bosqichlarda amalga oshirilgan.

1. Boshlash jarayoni.

2. Maqsadni aniqlash.

3. Mundarija tuzish – rejalashtirish.

4. Dasturiy mahsulotni tayyorlash.

Elektron darsliklar turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, animatsiya, ovoz, grafik, jadval, rasm, gipermatnli va test tizimlari bor bo‘lgan darsliklar. Elektron darslik mavzuni talabaga eng qulay ko‘rinishda taqdim eta oladi, u talaba bilan interfaol usulda muloqotda bo‘ladi. Talaba mavzularni mustaqil o‘rganishi va o‘zi olgan bilimni test sinovi asosida sinab ko‘rishi mumkin. Elektron darslikni yaratuvchi ishchi guruhi har bir mavzu, mavzular bloki uchun ssenariy yozadi, qaysi mavzuda kompyuterning qanday imkoniyatidan, yangi pedagogik texnologiyaning qaysi elementidan foydalanish mumkinligini aniqlaydi.

Masofaviy o‘qitish jarayonida elektron darsliklardan foydalanishda fanning mazmunini beribgina qolmasdan, laboratoriya ishlarini ham maxsus jihozlangan xonalarda emas, balki elektron stendlar yordamida bajarish imkoniyatini ham beradi. Talabalar amaliyotda bajara olmaydigan va ko‘zlari bilan ko‘ra olmaydigan murakab, kichik o‘lchamdagi jarayonlarni kompyuter animatsiyasi yordamida ko‘ribgina qolmay, bu texnologik jarayonni boshqara oladilar.

G.N.Nurgaliyevaning elektron darsliklarning yaratishning pedagogik texnologiyasi o‘tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijasi hisoblaydi. Ushbu texnologiya o‘qitish jarayonini inobatga olgan holda darsliklar nazariyasiga asoslanib ishlab chiqilgan bo‘lib, unda elektron darslik – bu jarayonli, modulli, interfaol, multimediali informatsion o‘rgartish vositasi deb isbotlaydi.

Elektron darslik – bu dasturiy metodik majmua bo‘lib, fanni mustaqil yoki o‘qituvchi yordamida o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Elektron darsliklar vositasida o‘qitish

jarayonini xizmat ko‘rsatuvchi ta’lim servis portali orqali samarali tashkil etish mumkin. Ixtisoslik fanlarni elektron darslik vositasida o‘qitishda “Ish o‘yinlari” metodini qo‘llash talabalarning kompyuterlar bilan ishlash malakalarini rivojlantiradi, o‘qitishni faollashtiradi, talabalarning mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil etishni va uni baholashni hamda darsni qiziqarli va ko‘rgazmali bo‘lishini ta’minlaydi.

Elektron darslikning bosma darsliklardan asosiy farqi interfaollik imkoniyatidir. Ixtisoslik fanlardan elektron darsliklardagi texnologiya jarayonlar bajarilishida va ob’yektlar ishlashi yoki maxsulot ishlab chiqarish jarayonining bevosita ishtirokchisi bo‘lishi mumkin.

Murakkab jarayonlar, hodisalarni va obyektlarni modellashtirish hamda animatsiya ko‘rinida taqdim etish imkoniyati bor. Elektron darslikning ta’lim oluvchilar bilan yaqinlashuvi bosma ko‘rinishdagi darsliklardan ko‘ra yuqoriroq. oliy ta’lim uchun ixtisoslik fanlardan elektron darslikni yaratish jarayonida psixologik-pedagogik, texnik-texnologik, estetik va ergonomik talablar qo‘yiladi.

Elektron darslik ham bosma darslik ham, o‘quv va uslubiy qo‘llanma kabi an’anaviy o‘quv nashrlariga qo‘yilgan didaktik talablarga javob berishi kerak. Didaktik talablar ta’lim berishning maxsus qonuniyatlariga va o‘qitishni didaktik tamoyillariga mos kelishi kerak.

Biz tomondan yaratilgan ushbu elektron o‘quv qo‘llanmaning ta’lim jarayoniga qo‘llash tajribalari shuni ko‘rsatdiki, elektron darslik talabalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularga mustaqil bilim olish imkoniyatini yaratadi. Ixtisoslik fanlardan yaratiladigan elektron darsliklarning mazmuni ta’lim oluvchilarni mustaqil va erkin fikrlashga, olingan bilimlarni bosqichma-bosqich boyitish, mukammallashtirib borish, mustaqil ta’lim olish, yangi bilimlarni izlab topish ko‘nikmalarini hosil qilishni ta’minlashi lozim.

Shu nuqtai nazardan biz ixtisoslik fanlardan o‘qituvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishda asosiy didaktik vositalar sifatida qaradik.

Ixtisoslik fanlardan amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan elektron darslik ta’lim oluvchiga:

- ✓ mashg‘ulot mavzusi, maqsadi va o‘tkazilish tartibi haqida ma’lumot etkazishi;
- ✓ javobning to‘g‘riligi yoki noto‘g‘riligi haqida axborot berishi;
- ✓ har bir ta’lim oluvchining bilimini nazorat qilishi;
- ✓ topshiriqlarning zaruriy nazariy materiali va echish uslubini ko‘rsatishi;

✓ «pedagog-darslik-ta'lim oluvchi» tartibotida teskari aloqani amalga oshirishi kerak.

Elektron darslik ixtisoslashgan o‘quv xonalarida o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi qulay imkoniyatlar yaratilishi lozimligi aniqlandi:

- kompyuterli qo‘llab-quvvatlashlardan foydalangan holda talabalar katta miqdordagi topshiriqlarni bajarishga, yechimlarni va ularning grafik talqinini tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan vaqtdan ozod bo‘ladi;

- o‘qituvchining rahbarlik va maslahatchi sifatida qatnashib, kompyuter oldida mustaqil ish shaklida mashg‘ulot o‘tkazish imkonini beradi;

- o‘qituvchiga kompyuter yordamida talabalar bilimini tez va samarali nazoratdan o‘tkazishga imkon beradi;

- o‘qituvchiga nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda o‘zining xohishi bo‘yicha hajmi jihatidan kichik, ammo tarkibi bo‘yicha o‘ta muhim bo‘lgan materiallarni etkazishga imkoniyat beradi.

Xulosa. Talabalarning auditoriya mashg‘ulotlari doirasidan tashqari o‘rganishi mumkin bo‘lgan masalalarni yechishda mustaqil shug‘ullanishlari uchun imkon yaratiladi, o‘qituvchini uy topshiriqlarini, turli hisoblashlarni va nazorat ishlarini tekshirish kabi mashaqqatli ishlardan ozod etadi, talaba bilan, ayniqsa, uy topshiriqlari va nazorat ishlari qismiga oid ishlarni individuallashtirishga imkon beradi.

Maxsus fandan yaratilgan har bir elektron darslik talabalar yoshiga, fanning o‘quv dasturiga mos bo‘lishi, mavzular to‘la yoritilishi, fanlararo bog‘liqlik, o‘quv fani mavzularga mos dizaynlar tanlanishi, fanga qiziqishini orttirishi, ta'limda samaradorlikka erishilishiga xizmat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqudusov O. Kasb ta'limi o‘qituvchilari tayyorlashga integrativ yondashuv: O‘quv qo`llanma. –T.: Fan, 2005. – 160 b.

2. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o`qitish texnologiyalari: O‘quv qo`llanma. – Buxoro.: Muallif, 2001. – 182 b.

3. Batishev S.Ya. Профессиональная педагогика: Профессиональное образование. – Москва.: 1997. – 511 с.

4. Dayri, N. G. (2000). Учительское мастерство и педагогическая практика. Tashkent: Sharq.

5. Pestalozzi, J. H. (1801). How Gertrude Teaches Her Children.

6. Sh.A.Abdullaeva., D.A.Axatova, B.B.Sobirov, S.S.Sayitov. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. –T.: Fan, 2004. – 264 b.

7. Shuvalov, A. A. (1997). Инновационные технологии обучения в высщей школе. Москва: Высщая школа.

International Journal of Science and Technology
Volume 2, Issue 3, March. 2025:

1. FORMATION AND DEVELOPMENT OF MOBILE COMMUNICATION TERMINOLOGY
E'zoza Arzimurodova
4-7-page
2. INTEGRATION OF FOREIGN LANGUAGES AND SUBJECTS IN EDUCATION
Nafisakhan Kazimova, Gulshodakhon Abdullaeva
8-15- page
3. PRACTICAL MECHANISMS OF APPLICATION OF CONTEXTUAL TEACHING MODELS IN PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION
Maftunakhon Gulomova
16-21- page
4. YUMSHOQ BUG'DOYNING BOSHOQ KO'RSATKICHLARIGA SARIQ ZANG KASALLIGINING TA'SIRI
Durdona Shavkatjonovna Shokirova, Xurshid Sadullayevich To'raqulov, Toxir Axmadovich Bozorov, Boxodir Xo'razovich Chiniqulov, Sodir Karimjonovich Meliev, Siroj Murtoza o'g'li Isoqulov, Bexruz Odilovich Ochilov, Fazlidin Abdulazizovich Meliqo'ziev,
22-28- page
5. ПОДГОТОВКА К ХУДОЖЕСТВЕННОМУ АНАЛИЗУ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА
Махкамова Саодат Бахтияровна
29-35- page
6. ГОСУДАРСТВЕННЫЙ БЮДЖЕТ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 2025: АНАЛИЗ ОСНОВНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ
Гафурова Умида Фатиховна, Юнусова Дильфуза Зокиржон кизи
36-41- page
7. TIKUVCHILIKDA QO'LLANILADIGAN POLIMER KOMPOZITSIYALARNING ADGEZION XUSUSIYATLARINI OSHIRISH YO'LLARI
Azimova M.N., Tashpulatov S.SH., Temirova G.I.
42-48- page
8. AGROTURIZMNI JORIY QILISHDA FERMER XO'JALIKLARINING ICHKI VA TASHQI SALOHIYATLARI
Ergashboyev Minghojiddin Jasurbek o'g'li, Eshmuradov Ulug'bek Tashmuratovich
49-59- page
9. THE ROLE AND IMPORTANCE OF TEACHING METHODS IN EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN TEACHING ENGLISH
Allaberdieva Gulshoda Bakhtiyarovna
60-68- page
10. N-TARTIBLI DETERMINANTLARNI HISOBLASHDA BA'ZI BIR XOSSALARDAN FOYDALANISH
Jo'rayeva Nigoraxon Dilshodbek qizi
69-74- page
11. ВЛИЯНИЕ КОМПЛЕКСНЫХ УПРАЖНЕНИЙ НА СОРЕВНОВАТЕЛЬНУЮ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТЬ ЮНЫХ БАДМИНТОНИСТОВ
Азимов Нодир Насиллоевич
75-87- page
12. TIB QONUNLARI ASARIDA YALPIZNING O`RGANILGANLIK DARAJASI
Abdullayeva Gulshodaxon Aloviddin kizi, Kazimova Nafisaxon Minovarovna
88-92- page
13. OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN IJTIMOIY HIMOYAGA MUHTOJ BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI
Egamqulova Saodat Alijanovna

93-96- page
14. TA`LM JARAYONIDA INTELTEKTUAL KOMPETENSIYA VA UNING RIVOJLANISHI
O‘rinova Feruza O‘ljayevna
97-102- page
15. O‘ZBEKISTON VA HINDISTON TA’LIMIDA "HISOBLASH USULLARI" FANIDA LAGRANJ INTERPOLYATSIYA KO‘PHADINI O‘QITISH METODIKASI
Soliyeva Gavharoy Yodgorjon qizi, M.Y.Eshnazarova
103-107- page
16. OLIY TA’LIMDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKILLASHTIRISHDA NOSTANDART TESTLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI
Nurnazarova Gavharoy Baxtiyor qizi
108-113- page
17. COGNITIVE COMPONENTS OF THE CREATIVE PROCESS OF ATHLETES IN CONFLICT SITUATIONS IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL ACTIVITY AND THEIR FEATURES
Ibrakhimov Sanjar Urunbayevich
114-120- page
18. DEVELOPMENT OF INFORMATION AND COMMUNICATION SKILLS OF FUTURE EDUCATORS USING MODERN COMMUNICATION TECHNOLOGIES
Karimova Guzalkhon Berdikul kizi
121-125- page
19. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNI TARBIYALASHDA AKSIOLOGIK YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA’LIM TIZIMI VA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING ROLI
Mamatova Zarena Abdujalilovna
126-129- page
20. OILA TUSHUNCHASINING LINGVOKOGNITIV TASNIFI
Yusufova Zebo Abduhamidovna
130-134- page
21. TA’LIMNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: KADRLAR TAYYORLASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH
Yulduz Rizayeva
135-137- page
22. NODAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA’LIM-TARBIYANI O‘YIN ORQALI YETKAZISH
Xallokova Maksudaxon Ergashevna, Nuriddinova Muslima Komiljon qizi
138-143- page
23. KASBGA YO‘NALTIRISH TAMOYILLARI VA UNI OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYALARI
Mir-Yusupova Muxayyoxon Alimjanovna
144-148- page
24. ROSSIYA IMPERIYASI BOSIB OLGAN HUDUDLARDA MILLIY HARAKATLARNI BOSTIRISH STRATEGIYALARI
Mutallibjonov Boburmirzo Muzaffarjon o’g’li
149-160- page
25. FEATURES OF RECEPTIVE SPEECH SKILLS IN TEACHING ENGLISH IN THE DEVELOPMENT OF MATURE PERSONALITY
Nazaralieva Matlyubakhan Anarjanovna
161-169- page
26. BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING RAQAMLI KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK LOYIHALASHNING ROLI
Olamova Mamura Umarovna
170-176-page

27. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLISHINI TASHKIL ETISHNING YANGI TRENDLARINI YARATISH
Z.A.Asadova
177-181- page
28. MAKTABLARDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHDAGI MUOMMOLAR VA ULARGA PEDAGOGIK YECHIMLAR
Shoisayeva Dilxumora Shojalil qizi
182-186- page
29. TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO STUDENTS ACCORDING TO THEIR SOCIAL BACKGROUND
Sayidov Shukrullo Khaliljonovich
187-190- page
30. MUSTAQIL FIKRLASHDA LOYIHA ISHINING O'RNI (FIZIKA FANI MISOLIDA)
Meliyeva Lola Eshboyevna
191-196- page
31. WHAT FUNCTIONS DOES THE CONTROL SYSTEM PERFORM IN AN ELECTRIC VEHICLE
Shukurov Nuritdin Rakhimovich
197-200- page
32. K. PALENNING TAFTISH MATERIALLARIDA SAMARQAND VILOYATIDAGI TOG'-KONCHILIK ISHLARI XUSUSIDA
Xamidova Xuriyatxon G'afurjon qizi
201-207- page
33. АНАЛИЗ УРОВНЯ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА
Максудхужаева Дилшодахон Мансурхужа кизи
208-214- page
34. СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОД К ЭКОЛОГИЧЕСКОМУ ВОСПИТАНИЮ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА
Юлдашева Дилафруз Махамадалиевна
215-218- page
35. ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES USED IN TEACHING GEOGRAPHY AND THEIR ADVANTAGES
Jurayev Erali Khaliyar ugli
219-223- page
36. KASBIY TA'LIM JARAYONIDA TEXNOLOGIYA O'QITUVCHILARINING LOYIHALASH FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI
Abdiraxmanov Sardor Normuhamadovich, Turayev Xumoyiddin Abdug'afforovich
224-231- page
37. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI TIL O'RGATISHNING ASOSIY PRINSIPLARI VA METODOLOGIYASI, ULARNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI
Sidikova Shohsanam Shoilhom qizi
232-239- page
38. TALABALARDA AXLOQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY PEDAGOGIK JIHATLARI
Tursunova Malika Sanjar qizi
240-245- page
39. РЕАЛИЗАЦИЯ СТРАТЕГИИ «ЦИФРОВОЙ УЗБЕКИСТАН - 2030» В УПРАВЛЕНИИ SOFTWARE ПРЕДПРИЯТИЯМИ
Жамолдинов Сайдилло Хасанович
246-254- page
40. BIR O'YINDA QOCHIB KETISH MASALASI YECHILISHI UCHUN YETARLI SHARTLAR
Umrzaqov N.M., No'monova R.M.

255-258- page
41. TALABALARDA LOYIHALASH KO‘NIKMALARINI ELEKTRON TA’LIM RESURSLARI VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH
Asrorova Saodat Abdullo qizi
259-267- page

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI DANG‘ARA TUMANI INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY
SCIENCE AND TECHNOLOGY